



O'ZBEK TILI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**K.Sh.Turdiyeva, D.Ahmedova, G.K.Kurambayeva,
M.X.Mahkamov, F.A.Akbarxodjayeva**

O‘ZBEK TILI

*O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlari uchun yangi avlod
darsligi sifatida tavsiya etilgan
(Tibbiyot institutlarining rus guruhlari uchun)*

**Poytaxt exclusive
Toshkent 2021**

YŷK: 811.512.133.

КБК 81.2 (ŷ36)

ŷ 16

Taqri zchilar:

Z.Soliyeva – O‘zDJTU «O‘zbek tili» kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

T.Ernazarov. – O‘zMU «O‘zbek tili va nutq madaniyati» kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur darslik tibbiyot institutlarining talabalariga mo‘ljallangan.

Unda sog‘liqni saqlash ta‘lim sohasining davolash ishi, kasbiy ta‘lim, pediatriya ishi, tyibbiy biologiya ishi ta‘lim yo‘nalishlarining xususiyatlari hisobga olingan holda matnlar, ish yuritish qog‘ozlari kiritilgan. Darslikning grammatika qismi fan o‘qitilishining uzluksiz va uzviy ketma-ketligi hisobga olingan holda yozilgan. Unda diogrammalar, leksik va nazariy qismlar uyg‘unlashgan holda va talabani ijodiy fikrlashga undovchi topshiriqlar, konstruksiyalar, qiziqarli testlar, asosiy so‘z birikmalari, ularning tarjimasini va lug‘ati bilan to‘ldirilgan.

ISBN 978-9943-307-22-3

YŷK: 811.512.133.

КБК 81.2 (ŷ36)

ŷ 16

ANNOTATSIYA

Mazkur yangi avlod darsligi tibbiyot institutlarining barcha fakultetlari rusiyzabon talabarlari uchun mo'ljallangan. Darslikda davolash, pediatriya, tibbiy pedagogika, tibbiy biologiya, farmatsevtika va stomatologiya fakultetlarining talabalariga, barcha tibbiy mutaxassisliklar bo'yicha o'zbek tilining ilmiy va so'zlashuv uslubini o'rganib olish uchun matnlar va yo'nalishlar berilgan. Darslik avvalgi darsliklardan farqli ravishda bir vaqtning o'zida iqtidorli talabalar bilan ishlashga mo'ljallangan topshiriqlardan iborat bo'limni o'z ichiga olgan.

АННОТАЦИЯ

Данный учебник нового поколения предназначен для русскоязычных студентов бакалавриата всех направлений медицинского образования. Учебник включает в себя материал для обучения студентов педиатрического, медико-педагогического, медико-биологического и стоматологического факультетов научному и разговорному стилю узбекского языка по всем медицинским специальностям. В отличие от предыдущих учебников данный учебник содержит в себе раздел упражнений, предназначенных для одновременной работы с одарёнными студентами.

ANNOTATION

This textbook of new generation is intended for Russian-speaking students of a bachelor degree of all directions of medical education. The textbook includes material for training of students of pediatric, medico-pedagogical, medico-biological and dental faculties in scientific and colloquial style of Uzbek in all medical specialties. Unlike the previous textbooks this textbook comprises the section of the exercises intended for simultaneous work with gifted students.

So'z boshi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganidek: "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir".

1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lgan ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Ona tilimiz milliy o'zligimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa, o'zbek tili mustaqil davlatimizning o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Mamlakatimizda "Davlat tili haqidagi qonun" qabul qilingach na faqat filologiya, balki barcha yo'nalishda ta'lim olib boruvchi, shu jumladan, tibbiyot yo'nalishidagi rusiyzabon talabalarga "O'zbek tili" fani o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

A.Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining ochilishi so'nggi yillarda yurtimizda Davlat tili nufuzi yanada ortib borayotganidan dalolat beradi. Yurtimizda yetuk raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida hukumatimizning doimiy e'tiborida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, shuningdek 2017-yil 9-maydagi "Tibbiy ta'limni isloh qilish to'g'risida"gi qarorlarida mamlakatimizda bilimli va amaliy ko'nikmalarni chuqur egallagan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qaratilgan maqsadli vazifalar o'z aksini topgan.

Bunday kadrlarni tayyorlashda esa o'quv adabiyotlarning o'rni beqiyos. Yurtboshimiz imzolagan hujjatlarda ushbu masalaga ham katta e'tibor qaratilgan.

Yangi avlod darsliklari o'z mazmuni jihatidan nazariy va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirgan holda taqdim etilmoqda. Ularda xorijiy darsliklar yaratilishidagi tajribalar ham o'z aksini topmoqda.

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası mualliflar jamoasi tomonidan taqdim etilayotgan tibbiyot oliy o'quv yurtlarida rusiyzabon talabalar uchun yaratilgan ushbu "O'zbek tili" darsligi ham avvalgilaridan aynan shu jihatlari bilan farq qiladi, eng so'nggi ma'lumotlar bilan boyitilgan. Shuningdek, avvalgi darslikdan farqli ravishda mashq va topshiriqlardagi matnlar tibbiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda taqdim etilgan. Bu esa darslikning yana bir o'ziga xos jihatlaridan biridir.

Umuman olganda, darslikdan foydalanish jarayoni o'qituvchini moderator va yo'naltiruvchi sifatida namoyon etadi, talabani esa o'z ustida ijodiy ishlashga, bilimni chuqur egallashga o'rgatadi, bu usul mustaqil ishlarda innovatsion usul sifatida taqdim qilinadi. Darslik namunaviy dastur asosida tuzilgan.

1-MASHG'ULOT

O'ZBEKISTON – YAGONA VATAN

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoda joylashgan. Uning poytaxti Toshkent shahridir. Mamlakat tarkibida 12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi mavjud.

Qadimiy va navqiron shaharlaridan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xivada ko'plab tarixiy yodgorliklar bor.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston xalqining asriy orzusi amalga oshdi – Vatanimiz o'z Mustaqilligini e'lon qildi. O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan. U o'z davlat bayrog'i, madhiyasi, gerbi, qolaversa, o'z milliy valyutasiga ega. O'zbekiston jadal rivojlanish yo'lidan bormoqda. Qisqa muddatlarda u agrar respublikadan sanoati rivojlangan mamlakatga aylandi. Hozirda esa dunyoning avtomobil ishlab chiqaruvchi davlatlaridan biri ekani ham fikrimizning asosli ekanidan dalolatdir.

Yurtimiz o'z pillasi, qorako'li, mevasi, paxtasi va poliz ekinlari bilan ham dunyoda dong taratgan. Shirin-shakar uzumlar va qovuntarvuzlar vatanimizning uzoq burchaklariga jo'natiladi.

O'zbekiston – tuprog'i zar, hosili gavhar, odamlari saxiy, bag'ri keng, mehri daryo, mehmondo'st, insonparvar, xushsuxan diyor.

Mamlakatimizda yuzdan ortiq millat vakillari do'st-u qadrdon bo'lib, yurt manfaati, Vatan ravnaqi yo'lida bunyodkorlik mehnati bilan banddirlar. Ularning huquq va erkinliklari kafolatlangan. Shuning uchun ham, ularning ertangi kundan ko'ngli to'q. Kelajakka zo'r ishonch bilan qaraydilar.

LUG'AT

qadimiy	-	древний
navqiron	-	молодой
asriy orzusi	-	вековая мечта
jadal	-	быстрый
sanoat	-	промышленность
asos	-	основа, основание
pilla	-	кокон

poliz ekinlari	-	бахчевые растения
tuproq	-	земля, глина
hosili gavhar	-	драгоценный урожай
saxiy	-	щедрый
insonparvar	-	гуманный

Topshiriq. Matn bo'yicha o'zaro suhbatlashing va savollar tuzing.

Topshiriq. Matn mazmunini rus tiliga tarjima qiling.

Topshiriq. Vatan haqidagi quyidagi maqollarni yod oling va rus tilidagi muqobilini toping.

O'z uyim – o'lan to'shagim.

Bulbul chamanni sevar,

Odam Vatanni.

Ona yurtning omon bo'lsa,

Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

Eldan ayrilguncha, jondan ayril.

O'zga yurtning dang'illama saroyidan,

O'z yurtningning kulbai vayronasi yaxshi.

Yurt qo'risang o'zarsan,

Qo'rimsang to'zarsan.

Yurti boyning – o'zi boy.

Yurtni obod qilaman degan

O'zi obod bo'ladi.

Yurti tinchning – o'zi tinch.

Yurt bilan bo'lgan yetar murodga,

Yurtdan ayrilgan qolar uyatga.

Vatan gadosi – kafan gadosi.



SUHBAT

Lena:

– Dilnoza, bugun institutimizda “O‘zbekiston yagona Vatan” mavzusi-da ma’naviy-madaniy tadbir bo‘ldi. Bilasanmi, men bu tadbirdan bilmagan va eshitmagan bir qancha ma’lumotlarni bilib oldim.

– Bizning oliygoh tibbiyot oliygohi bo‘lganligi sababli, bu yerda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning chuqur tibbiy bilimlarni egalashlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

– Ha, sog‘liqni saqlash sohasida yurtboshimizning bir qancha qarorlari imzolangan. Ular yurtimiz tibbiyotining yanada yuksalishiga qaratilgan.

– Barcha tibbiy oliy o‘quv yurtlari binolari zamon talabiga ko‘ra qayta ta’mirlanmoqda.

– Ha, simulyatsiya markazida hattoki operatsiya qilishni ham o‘rganish mumkin.

– Shu aziz Vatanda yashash qanday baxt.

– Buning uchun biz nima qilishimiz kerak? Bu haqda o‘ylab ko‘rganmisan?

Dilnoza:

– O‘zbekiston, haqiqatdan ham, go‘zal va jannatmakon diyor, imkoniyatlar va rivojlanishlar kundan-kunga oshib borayotgan mustaqil davlatdir.

– Ha, albatta, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasida ulkan o‘zgarish, yuksalishlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa so‘nggi yillarda bu soha bo‘yicha katta islohotlar amalga oshirildi.

– To‘g‘ri, bu sohada mutaxassislar tayyorlashga ham katta e‘tibor berilgan.

– Bizning institutda simulyatsiya markazi qurildi. Unda talabalar amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashadi.

– Yurtimizning har burchagida ana shunday bunyodkorlik ishlarini ko‘rish mumkin.

– Eng asosiysi osmonimiz tinch, buvim har doim yurtimiz tinchligi, xotirjamligini so‘rab, Vatan kelajagi yoshlar qo‘lidaligini ko‘p aytadilar.

–

Topshiriq. Yuqoridagi suhbatni davom ettiring.

**DAVLAT TILI VA LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN
O'ZBEK ALIFBOSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI.
O'ZBEK TILINING TOVUSH TUZILISHI.
UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR**

Hozirgi davrda jahon xalqlari 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvdan eng keng tarqalgani lotin yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30% idan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar.

1993-yil 2-3-sentabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga o'zgartirishlar kiritildi.


Islah qilingan yangi o'zbek alifbosida 29 ta harf va bitta tutuq belgisi bor.

Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma
a	Aa	<i>Aa</i>	Qe	Qq	<i>Qq</i>
be	Bb	<i>Bb</i>	Er	Rr	<i>Rr</i>
de	Dd	<i>Dd</i>	Es	Ss	<i>Ss</i>
e	Ee	<i>Ee</i>	Te	Tt	<i>Tt</i>
ef	Ff	<i>Ff</i>	U	Uu	<i>Uu</i>
ge	Gg	<i>Gg</i>	Ve	Vv	<i>Vv</i>
he	Hh	<i>Hh</i>	Xe	Xx	<i>Xx</i>
i	Ii	<i>Ii</i>	Ye	Yy	<i>Yy</i>
je	Jj	<i>Jj</i>	Ze	Zz	<i>Zz</i>
ke	Kk	<i>Kk</i>	o'	O'o'	<i>O'o'</i>
el	Ll	<i>Ll</i>	g'e	G'g'	<i>G'g'</i>
em	Mm	<i>Mm</i>	She	Sh sh	<i>Sh sh</i>
en	Nn	<i>Nn</i>	Che	Ch ch	<i>Ch ch</i>
o	Oo	<i>Oo</i>	Nge	Ng ng	<i>Ng ng</i>
pe	Pp	<i>Pp</i>	tutuq belgisi	,	,

FONETIKA

Fonetika – tilshunoslikning bo‘limi bo‘lib, u tilning nutq tovushlari, fonetik bo‘linishlarini, ya‘ni bo‘g‘in, urg‘u va jummalarni o‘rganadi. **Orfoepiya** – so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganadi.

<p style="text-align: center;">Tovush va harf</p> <p>Tovush – og‘zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan qismidir, harf esa tovushning yozuvdagi ifodasidir.</p>	<p style="text-align: center;">Звук и буква</p> <p>Звук – это наименьшая языковая единица, которую мы произносим и слышим, а буква это условный знак, служащий для передачи звуков речи на письме.</p>
--	---



<p>Tovushlar ikki xil bo‘ladi: <i>unli tovushlar va undosh tovushlar</i></p> <p>O‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchramay chiqishi natijasida hosil bo‘ladigan tovushlarga <i>unli tovushlar</i> deyiladi. Tilimizda 6 ta unli tovush bor: <i>a, o, e, i, o‘, u</i>.</p> <p>O‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining ma‘lum bir joyida yoki bo‘g‘izda to‘siqqa uchrashidan hosil bo‘ladigan tovushlarga <i>undosh tovushlar</i> deyiladi. Tilimizda 23 ta undosh tovush bor: <i>b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h, ng</i>.</p> <p>Shulardan 3 tasi harfiy birikma: <i>sh, ch, ng</i>.</p>	<p>Звуки бывают двух видов: <i>гласные звуки и согласные звуки</i></p> <p>При образовании <i>гласных звуков</i> воздушная струя, исходящая из легких, не встречает на своем пути преграды и свободным потоком проходит через рот. Имеется 6 гласных звуков: <i>a, o, e, i, o‘, u</i></p> <p>При образовании <i>согласных звуков</i> воздушная струя, исходящая из легких, встречает на своем пути преграды и характеризуется по наличию голоса. Имеется 23 согласных звуков: <i>b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g‘, h, ng</i>.</p> <p>Из них 3 буквысочетания: <i>sh, ch, ng</i>.</p>
---	--

Mashq. Bir tovush o'zgarishi orqali so'z tizmasini hosil qiling.

Namuna. Soz – so'z – siz – sez

Tol, boy, ko'z, don, dala, salla, tola, tor, tez.

Mashq. Quyidagi so'zlarning harflari ustiga alifbo ketma-ketligini yozing.

Namuna. Asl – 1, 3, 2

Olim, gerb, fan, qadr, chinor, rahbar.

Mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli unlilarni qo'yib yozing.

Agar b...g'imlar b...limganda edi, h...zirgidek yashashimiz bo'lm...s edi. B...shimiz, oyog'imiz, q...llarimizni h...rakatga k...ltira ...lmas edik. H...tto bitta barm...qni ham qim...rlata olmas edik. B...g'imlar t...fayli tal...y harak...t q...lish imkon...yat...ga egamiz.

Mashq. Quyidagi so'zlarning talaffuzi va yozilishini farqlab oling va ulardan foydalanib gap tuzing.

вог - есть

bo'g – mel

qo'y - оставь, баран

bol - мёд

bo'l – давай

quy - налей

os - повесь

o's – расти

o'tmoq - косить

o'y - мысль

oy - месяц, луна

o'zim -я сам

oyna - окно

o'yna – играй

qul - раб

Mashq. Quyidagi so'zlarda *x* va *h* harflarini to'g'ri qo'ying.

Qa..ramon, e..timol, ..ayol, ..aqiqat, ra..bar, fa..rli, pu..ta, me..nat, ..azina, dara..t, ..is, ..urmat, ..aykal, javo..ir, su..bat, ..afta.

Mashq. So'zlashuv uslubida aytilgan so'zlarning adabiy va imloviy to'g'ri shaklini yozing.

Sehir, mehir, dasyor, choch, rayis, kasp, suvak.

Mashq. Matndagi unlilar tagiga chizing. O'zbek tiliga xos tovushlarning aytilishiga e'tibor bering.

Salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun, avvalo, odam o'z tanasining tuzilishi, har qaysi to'qima va a'zolarining normal faoliyatini, o'sish, rivojlanish va ko'payish qonuniyatlarini bilishi zarur. Odam organizmining tuzilishini anatomiya, uning faoliyatini fiziologiya, yashashi, normal o'sishi, rivojlanishi, o'qishi, mehnat qilishi uchun zarur sharoit yaratishni gigiyena fanlari o'rganadi.

Odam organizmining barcha to'qima va a'zolari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, organizm tevarak-atrof muhiti bilan ham doimiy aloqadadir. Bu ikki bog'lanish nerv va endokrin tizim orqali boshqariladi.

Nazorat savollari:

1. Qachon O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qildi?
2. Mustaqillik xalqimizga nima berdi?
3. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tishning ahamiyati nimada?
4. Fonetika deb nimaga aytiladi?
5. Tovushlar necha xil bo'ladi?
6. Unli va undosh tovushlarning farqi nimada?
7. Unli tovushlar deb nimaga aytiladi?
8. Undosh tovushlar deb nimaga aytiladi?

2-MASHG'ULOT

OILAM – TAYANCHIM VA FAXRIM

Oilamiz katta: buvam, buvim, otam, onam, akam, kelinoym, ukam, singlim, jiyanlarim va men. Oilamiz a'zolari juda ahil. Oilamizda doimo kattalar hurmatda, kichiklar izzatda.

Hammamiz o'qiymiz, ishlaymiz. Buvam va buvim hozir nafaqada. Ularning kasblari o'qituvchi bo'lgan. Otam – muhandis, onam – uy bekasi. Akam – haydovchi, kelinoyim – bolalar shifokori. Ukam 11-sinfda o'qiydi, yana futbol bilan shug'ullanadi, singlim esa musiqa maktabida o'qiydi. Jiyanlarim Diyora va Hilola bog'chaga qatnaydilar. Diyora hozir tayyorlov guruhida, keyingi yil maktabga boradi.

U she'rlarni yod biladi, birdan o'ngacha o'zbek, rus va ingliz tillarida sanay oladi. Harflarni ham biladi, ular ishtirokida so'zlar tuza oladi. Men bolalarni juda yaxshi ko'raman. Orzuyim bolalar shifokori bo'lish. Hozir Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining 2-kursida o'qiyapman.

Kechqurun oilamiz a'zolari xontaxta atrofiga to'planadi. Ovqatlanib bo'lgach, hammamiz suhbatlashamiz. Yer yuzida ro'y berayotgan voqealar, kun davomida qilgan ishimiz, yumushlarimiz haqida gaplashamiz.

Bugun bobomning tavallud topgan kunlari, ular 70 yoshga to'ldilar. Ertalabdan oq respublikamizning turli joylarida yashayotgan qarindoshlarimiz qo'ng'iroq qilib, bobomni qutlashmoqda. Kechqurun uyimiz mehmonlar bilan to'ladi. Men dugonam Lenani ham taklif qildim.

Men oila a'zolarim va oilamiz davrasini juda yoqtiraman.

LUG'AT

izzat - уважение, почет	yumush - работа
kelinoyi - сноха, невеста	xontaxta - узбекский стол
shug'ullanmoq - заниматься	orzuz - мечта
tuzmoq - составлять	to'planmoq - собираться
jiyan - племянник (племянница)	sanamoq - считать
tauyorlov guruhi - подготовительная группа	taklif - приглашение
ro'y bermoq - происходит	qo'ng'iroq - звонок
tavallud kuni - день рождения	davra - круг

Topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini rus tiliga tarjima qiling.

SUHBAT

Lena:

– Dilnoza, oila a'zolaring bilan tanishtirsang.

– Oilangizda shifokorlar ko'p ekan-da.

Dilnoza:

– Buvimlar hozir nafaqada. Ular uzoq yillar stomatolog bo'lib ishlaganlar. Bobomlar esa jarroh bo'lgan.

– Bizning oilamiz shajarasida shifokorlar ko'p.

– Yana kimlar shifokor?

– Zo‘r-ku, qoyil senga havasim kelyapti.

– Sen ham kelajakda pediater bo‘lasanmi?

– Shunday oilaga munosib kasb egasi bo‘lishga harakat qil.

– Dadam – endokrinolog, onam esa yuqumli kasalliklar shifokori. Opam va men ular kabi shifokor bo‘lmoqchimiz.

– Opam Toshkent tibbiyot akademiyasi davolash fakultetining 4-kurs talabasi.

– Ha, bobo-buvilarimiz bizga yurt salomatligi posbonlari – shifokorlar mas‘uliyati haqida ko‘p gapirishadi.

– Rahmat, Lena.

Topshiriq. O‘z oilangiz haqida so‘zlab bering.

OILA (MADHIYA)

Mehrdan yaralgan saltanat,
Asosi sadoqat muhabbat,
Undagi ezgulik beminnat,
Poyonsiz va cheksiz kuch-qudrat.
Yo‘lingga muntazir nigoh u,
Dardingdan hamisha ogoh u,
Duoga ochilgan qo‘llar bu,
To‘g‘rilik tomonga yo‘llar u.

Naqorat

Davlatning tayanchi – oila,
Insonning suyanchi – oila,
Qadrdon nigohlar yog‘dusi,
Dillarning yupanchi – oila.

Nur yog‘ar muqaddas qo‘rg‘ondan,
Asraydi shamoldan, bo‘rondan.
U seni taftila o‘raydi,
Hamisha, hamisha qo‘llaydi.
Qaylarda yurasan, kezasan,
Mehrini har nafas sezasan,
Sog‘insang shoshasan, chopasan,
Bir butun baxtingni topasan.

Kavsar Turdiyeva

OILA AN‘ANALARI

O‘zbek milliy mentalitetida o‘ziga xos bo‘lgan oila an‘analari bor.
Masalan:

- oilada otaning hurmatini saqlash;
- katta odam gapirsa, quloq solish, gap qaytarmaslik;
- ovqatlanishda kattalar boshlab berishini kutish; -

- kichik yoshdagi bolalarni izzatlash;
 - mehmon kelsa, xursandchilik bilan kutib olish kabi.
- “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, – deydi dono xalqimiz.

Demak, yaxshi oilada yaxshi tarbiya ko‘rishning siri ham ana shunda ekan.

Topshiriq. Boshqa xalqlarning oila an‘analari haqida qiziqarli ma‘lumotlar to‘plang.

Topshiriq. “Oilangiz an‘analari” haqida so‘zlab bering.

Topshiriq. O‘z shajarangiz (avlod-ajdodingiz) haqida (klaster usulida) ma‘lumot tayyorlang.

MO‘TABAR ONA...

Bolakay uyiga kelib onasiga:

“Bu xatni maktabdagi o‘qituvchim berib yubordilar” – deydi. Onasi xatni o‘qib ko‘z yoshlarini zo‘rg‘a tutib turdi. Uni bolasiga baland ovozda o‘qib berdi: «Sizning o‘g‘lingiz daho! Maktabimiz uning qobiliyatiga kichiklik qiladi. Shuning uchun siz bolangizga uyingizda ta‘lim bering!».

Oradan yillar o‘tdi. Insoniyat tarixiga ulkan ixtiro kashf qilgan inson Edisonning onasi vafot etdi. Kunlarning birida u onasining javonini ko‘zdan kechirayotib, qutidagi xatga ko‘zi tushdi: «Sizning o‘g‘lingiz kaltafahm, tentak. Erta tongdan boshlab uni maktabga kiritmaymiz!».

Buni o‘qigan Edison rosa yig‘ladi va o‘zining xotira daftariga ushbu bitiklarni bitib qo‘ydi:

«Edison tentak bola bo‘lgan. Lekin aqlli onasining tadbiri ila dahoga aylandi!».

Onaning hayotdagi o‘mi shunday!!!

Topshiriq. Oila, ota-ona, farzandlar, ularning o‘rni va burchlari haqida maqollar toping.

URG'U VA BO'G'IN KO'CHIRISH QOIDALARI

Urg'u	
<p>So'z tarkibidagi biror bo'g'inning yoki gapdagi so'zlardan birining boshqalarga nisbatan kuchliroq, cho'ziqroq aytilishiga urg'u deyiladi.</p> <p>Urg'u odatda so'z oxiriga tushadi. Masalan: <i>talabala'r, talabalarga</i>.</p> <p>Urg'u ikki xil bo'ladi:</p> <p>So'z urg'usi – so'zdagi bo'g'inlardan biriga tushadi. Masalan: <i>paxtako'r, paxtakorla'r</i>.</p> <p>Mantiqiy urg'u – gapda so'zlovchining e'tibori qaratilgan so'z yoki so'z birikmasiga tushadi.</p>	<p>Ударение – выделение одного слога в слове или слова в предложении интонацией или повышением тона.</p> <p>Различают два вида ударения:</p> <p>Словесное ударение – падает на один из слогов слова.</p> <p>Логическое ударение в предложении падает на слово или словосочитание.</p>
Bo'g'in	
<p>Bir nafas zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar bo'g'in deyiladi. Bo'g'in unli tovushlar ishtirokida hosil bo'ladi. So'zda nechta unli tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. Masalan: <i>ja-von, siz, mus-ta-qil, so'z</i>.</p> <p>Unli tovushlar bilan tugaydigan bo'g'in ochiq bo'g'in deyiladi. Masalan: <i>o-i-la, to-la, ta-la-ba</i>.</p> <p>Undosh tovushlar bilan tugaydigan bo'g'in yopiq bo'g'in deyiladi. Masalan: <i>daf-tar, gul-don</i>.</p>	<p>Слог – это один или несколько звуков, произносимых одним потоком воздуха. Слог образуется с помощью гласных звуков. Число слогов в слове совпадает с числом гласных. Например: <i>шкаф, вы, неза-ви-си-мый, сло-во</i>.</p> <p>Открытый слог заканчивается на гласный звук. Например: <i>но-га, ру-ки</i>.</p> <p>Закрытый слог заканчивается на согласный звук. Например: <i>тет-радь, кар-ман</i>.</p>
Bo'g'in ko'chirish qoidalari	
<p>1. Bo'g'indagi tovush boshqa bo'g'inga o'tib ketmasligi kerak. Masalan, <i>tin-chi-moq (tinch-imoq emas), daraxt (dar-axt emas)</i>;</p> <p>2. Bir tovushli bo'g'inning o'zi qator oxirida qoldirilmaydi. Masalan, <i>opa-si (o-pasi emas), ota-jon (o-tajon emas)</i>;</p>	<p>1. Звук одного слога не должен переходить на другой слог.</p> <p>2. Слог состоящий из одного звука не должен оставаться в конце строки.</p>

<p>3. Bir tovushli bo'g'inning o'zi keyingi qatorga ko'chirilmaydi. Masalan: <i>filolo-giya (filologi-ya emas), mudo-faa (mudofa-a emas)</i>;</p>	<p>3. Слог, состоящий из одного звука не переносится на другую строку.</p>
<p>4. "ng, sh, ch" harfiy birikmalar bo'g'in ko'chirishda ajratib yozilmaydi. Masalan: <i>ota-ngiz, pe-sho-na</i>;</p>	<p>4. Буквосочетания "ng, sh, ch" при переносе не делятся.</p>
<p>5. So'zlarning birinchi harflaridan tashkil topgan so'zlar, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga ko'chirilmaydi. Masalan: <i>AQSh, BMT, 17, 299</i>.</p>	<p>5. Аббревиатуры, образованные из первых букв слов, многозначные цифры не переносятся на следующую строку.</p>

Mashq. Oila va qarindosh-urug'larni ifodalaydigan so'zlarni rus tiliga tarjima qiling.

Ota, ona, buvi, buva, xotin, er, qiz, o'g'il, o'g'il nabira, opa, singil, aka, uka, qaynata, qaynana, qayni, qaynag'a, qaynsingil, qaynegachi, tog'a, amaki, evara, xola, amma, jiyan, qiz nabira.

Mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli bo'g'inlarni qo'yib yozing.

Ol...zor (вишневый сад), me'...chilik (архитектура), rah...von (богатырь), qi...qish (интерес), ko'z...nak (очки), ogoh... (бдительность).

Mashq. Quyidagi so'zlarning qaysi bo'g'inlariga urg'u tushayotganini aniqlang va daftaringizga ko'chiring.

Oilamiz, buvam, otam, onam, akam, kelinoyim, ukam, singlim, jiyan, katta, hurmatda, kichiklar, izzatda, muhandis, bog'chaga, xon-taxta, shifokor.

Mashq. Quyida berilgan bo'g'inlar oldiga bo'g'in qo'yib so'z yasang.

-tor, -mon, -sod, -mos, -yos, -vod, -chi, -ton.

Mashq. Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratib yozing.

Harf, bo'g'in, bog'lar, kasalxona, singil, uka, qarindosh, tibbiyot, tashxis, muolaja, profilaktika, tog'a, amaki, buvi, istiqbol, Vatan, taraqqiyot.

Mashq. Quyida berilgan bo'g'inlarga bir bo'g'in qo'shib so'zlar tuzing.

Ol..., o'q..., as..., il..., kul..., ko'z..., o's..., cha..., chaq..., yuz..., ka..., sar..., vo..., ba... .

Mashq. Quyida keltirilgan gaplardagi tagiga chizilgan so'zlarning urg'usini qo'yib ko'chiring.

1. Har bir oila tinch va osoyishta hayot kechiradi. 2. Bolalik uy - xandon, bolasiz uy-zindon. 3. Akam tibbiyot institutida tahsil olmoqdalar. 4. Biz juda inoq yashaymiz.

Mashq. Matndagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrating.

Inson tanasining 75-80 foizini suv tashkil qiladi. Bu muvozanatning buzilishi, ya'ni tananing suvsizlanishi a'zo va tizimlardagi muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun kishi o'z tana vazniga qarab sog'lom suv ichishi kerak. Bu me'yor yozda kuniga 2.5-3 litr, qishda 2-2.5 litrga to'g'ri keladi. Sog'lom suv deganda gazsiz, qaynatilgan suv nazarda tutiladi. Suvni har yarim soatda 100 ml dan soat 19:00gacha ichish lozim. Kechqurun soat 19:00 dan keyin qovuq to'lib, uyquni buzmasligi uchun ko'p suv ichish tavsiya qilinmaydi.

Hazil savollar:

1. 100 ta "A" harfli so'zni toping.
2. 6 ta "N" harfli so'zni toping.
3. Tomoqning o'rtasida nima bor?
4. Quloq va qovoqning ikki chetida nima bor?

Nazorat savollari:

1. Oilangizdagi bayram kunlari yoki oila a'zolari bilan bo'lib o'tgan qiziqarli, ibratli voqealar haqida so'zlab bering.
2. Oilada tinchlik-xotirjamlik, mehr-muhabbat hukm surishi uchun nimalarga e'tibor berilishi lozim?
3. O'zbek tilida necha xil urg'u bor?
4. So'zlar qanday bo'g'in turlariga ajratiladi?

5. Urg'u deb nimaga aytiladi?
6. Bo'g'in deb nimaga aytiladi?
7. Ochiq va yopiq bo'g'in haqida ma'lumot bering.
8. "Yaxshi so'z yarim davo" deganda nimani tushunasiz?
9. O'zingiz o'qiyotgan o'quv yurtida o'z ishiga fidoyi bo'lgan insonlardan kimlarni bilasiz?

3—MASHG'ULOT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMZLARI.

O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida tasdiqlandi.

Davlat gerbi – davlat mustaqilligining ramzlaridan biridir. Davlat gerbi dumaloq ko'rinishga ega bo'lib, bu shaklning so'l tomoni rizq-ro'zimiz timsoli – bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa o'zbekning dong'ini dunyoga taratgan bebaho boyligimiz – chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan, uzoqdagi tog'lar va daryolar manzarasida gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sohib turadi, ayni paytda bu O'zbekistonning serquyosh mamlakat ekanligini bildiradi.

Gerbning yuqori qismida esa O'zbekiston ozodligining ramzi sifatida sakkizburchak yulduz, uning ichki qismida yarimoy va yulduz ma'nosi – mamlakat aholisining ko'p qismi islom diniga e'tiqod qilishi, markazida – baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar tasmaiga "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi moviy rang – tiriklik ramzi aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u poklik, beg'uborlik, soflik, orzu

va xayollar tozaligi, ichki go'zalikka intilish timsolidir. Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. Qizil chiziq – vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

Navqiron oq rangli yangi oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

O'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz barcha xalqlar uchun ruhoniyl, ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi tasvirni o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishining ramzi sifatida tushunish lozim.

LUG'AT

ramz - символ

rizq-go'zimiz timsoli - символ богатства

bug'doy boshqlari - колос пшеницы

dong'ini dunyoga taratgan - распространять по всему миру

g'o'za - хлопчатник

chambar - круг

manzara - вид, пейзаж

serquyosh - солнечный, богатый солнцем

moviy rang - голубой цвет

obi-hayot - живая вода

beg'uborlik - прозрачный, простодушный

navqiron - молодой человек в полном расцвете сил

saodat - счастье

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi

*Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga, yo'ldosh, mehribon
Yashnagay to abad, ilmu-fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!*

*Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston!
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

*Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!*

*Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston!
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining so'zlarini O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, musiqasini esa Mutal Burxonov yozgan.

Davlat madhiyasi muayyan bir davlatning milliy suverinetetini ifodalaydigan, tarixan tarkib topgan davlat ramzlaridan biri bo'lib, davlat bayrog'i, gerbi bilan birga mustaqil davlatning muhim tashqi belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Davlat ramzlari xalqning azaliy orzusi, ezgu niyatlari, bugungi hayot mazmunini o'zida aks ettiradi.

LUG'AT

aytmoq - сказать

ortiq - больше

topmoq - найти

aholi - население

har bir - каждый

tuman - район

so'z birikmasi - словосочетание

hudud - территория

gap - предложение

ko'chirmoq - переписать

ko'cha - улица

millat - нация

viloyat - область

so'zlab bermoq - рассказать

Topshiriq. Matn yuzasidan o'zaro suhbatlashing. Matnga savollar tuzing.

Topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini izohlab bering.

Topshiriq. Yangi so'zlar bilan birikmalar tuzing va yozing. Ularni eslab qoling.

LEKSIKOLOGIYA. SO'ZLARNING O'Z VA KO'CHMA MA'NOSI (OMONIM, SINONIM, ANTONIM, PARONIM SO'ZLAR)

<p>Leksikologiya - tilning lug'at tarkibini o'rganadi.</p> <p>So'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Bitta leksik ma'no bildirgan so'zlar bir ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan: <i>stol, fonetika, kitob</i>.</p> <p>Bir nechta leksik ma'no bildirgan so'zlar ko'p ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan: <i>bosh, ko'z, burun</i>.</p>	<p>Лексикология — изучает словарный состав языка. Слова бывают однозначными и многозначными. Слова, имеющие одно лексическое значение, называются однозначными. Например: <i>стол, книга, фонетика</i>. Слова, имеющие несколько лексических значений, называются многозначными. Например: <i>голова, глаза нос</i>.</p>
<p>So'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nosi</p>	
<p>So'z birikmasidagi so'zlar to'g'ri ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda ham bo'lishi mumkin. Masalan: <i>oltin uzuk (to'g'ri ma'noda), oltin kuz (ko'chma ma'noda)</i>.</p> <p>Yozilishi va aytilishi har xil, ammo ma'nolari bir xil so'zlar ma'nodosh so'zlar deyiladi. Masalan: <i>yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra</i>.</p> <p>Yozilishi va aytilishi bir xil, ammo ma'nolari har xil so'zlar shakldosh so'zlar deyiladi. Masalan: <i>olma, qirq, yuz, tush, chang</i>.</p> <p>Qarama-qarshi ma'noli so'zlar zid ma'noli so'zlar deyiladi. Masalan: <i>katta-kichik, yaxshi-yomon, keng-tor</i>.</p> <p>Bir tovush yoki harf bilan farq qiladigan so'zlar talaffuzdosh so'zlar deyiladi. Masalan: <i>asir - asr, yod - yot</i>.</p>	<p>Слова помимо прямого значения могут иметь переносное значение в словосочетании. Например: <i>золотое кольцо (прямое значение), золотая осень (переносное значение)</i>.</p> <p>Синонимы - это слова различные по написанию и звучанию, но одинаковые по значению. Например: <i>юз, афт (лицо)</i>.</p> <p>Омонимы - это слова, одинаковые по звучанию и написанию, но разные по значению. Например: <i>олма - яблоко, олма - не бери</i>.</p> <p>Антонимы - это слова с противоположными значениями. Например: <i>большой-маленький, хороший-плохой, широкий-узкий</i>.</p> <p>Паронимы - слова различающиеся одним звуком или буквой.</p>

Mashq. Tibbiyotda ko'chma ma'noda ishlatilgan holatlar nomini yodlang.

quyon lab	заячья губа
quyosh botishi belgisi	симптом заходящего солнца
qo'g'irchoq ko'z	кукольный глаз
qurbaqa qorin	лягушачий живот
etikdo'z ko'kragi	грудь сапожника
olimpik peshona	олимпийский лоб
qilichboz holati	поза фехтовальщика
mo'g'ul dog'i	монгольское пятно
tyulen panjasi	тюленья лапка
raxit bilakuzuklari	рахитические браслеты
teshilgan koptok belgisi	симптом проколотого мяча
bo'ri tanglay	волчья пасть

Mashq. Quyidagi gaplarning ma'nodosh so'zlarini toping va ularni izohlang.

1. O'choqda kul o'chib qoldi. O'yna, kul, o'qi – talabalik oltin davr. 2. Ichburug'ni "kir qo'l" kasali deb aytishadi. Ko'chada turmay uyga kir, bo'lmasa shamollab qolasan. 3. Och qoringa birdan ko'p ovqat yeyish hazm qilishni qiyinlashtiradi. Eshikni tezroq och, meni ko'rgani kursdoshlarim kelishmoqda.

Mashq. Quyidagi shakldosh so'zlarni qo'llab gap tuzing.

Qo'y (баран) – qo'y (поставь); tush (спускайся) – tush (полдень); osh (еда) – osh (перелезай); qirq (сорок) – qirq (режь); tur (вид) – tur (вставай).

Mashq. Omonim so'zlarning har biri qanday ma'nolarni bildirishini ayting.

Ot, o't, shim, bet, yuz, uch, tush, qovoq, to'p, tut, olma, soch, oq, ko'k, es, oz, son, qo'y, to'y, ich, osh, yoz, bog'lar, yoy, yosh.

Mashq. Quyidagi gaplardagi talaffuzdosh so'zlarni toping.

1. Qadim zamonda bir shoh o'tgan ekan. Bug'uning shoxi juda chiroyli shaklda.




2. Bu ne hol? Hamma yoq ag'dar-to'ntar. Bu xol qanday o'simta ekanligini bilish zarur.

Mashq. Maqollardan zid ma'noli so'zlarni toping.

1. Kattalar gapirganda kichkinalar quloq soladi. 2. Kam gapir, ko'p tingla. 3. Mashg'ulotda og'ir bo'lsa, jangda yengil bo'ladi. 4. Daryo chuchuk – ariq chuchuk, Daryo achchiq – ariq achchiq. 5. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar. 6. Egri bo'lsang sinar qanoting, to'g'ri bo'lsang chiqadi oting. 7. Yolg'on uyaltirar, rost suyuntirar.

Topshiriq. Krossvordni yeching.

1. "Kasal" so'zining sinonimi. 2. "O'simlik" so'zining sinonimi. 3. "Tabib" so'zining sinonimi. 4. "Kasallik" so'zining antonimi. 5. Organizmdagi eng yengil a'zo. 6. Og'riqni qoldiruvchi vosita. 7. Odam organizmidagi jufti bor a'zo. 8. "Najot" so'zining sinonimi. 9. "Shifokor" so'zining qadimgi nomi.



Mashq. Quyida berilgan gaplardagi ajratilgan soʻzlar oʻrniga qavs ichidagi maʼnodosh soʻzlarni topib qoʻying.

1. Kasalxonada bemor koʻp boʻlganligi sababli boʻsh joy yoʻq edi. 2. Ishyoqmaslikdan ortiq azob yoʻq. 3. Tabiat qasr emas, ishxonadir, inson esa uning mehnatkashidir. 5. Tilingda boling bormi? 6. Oftob nurlarini ayamay sochar edi. 7. Samoning rangi koʻm-koʻk, qarasang koʻzlaring dam oladi.

(yalqovlik, quyosh, asal, osmon, odam, shifoxona)

Mashq. Oʻqing. Chap tomondagi soʻzlarga oʻng tomondagi soʻzlardan maʼnodosh soʻzlarni topib, ularni sinonimik qator tarzida yozing.

Kasal	qidirdi, iljaydi, jilmaydi
Kuldi	burun, bemor, bet
Avval	qadim, xaxoladi, axtardi
Izladi	betob, oldin, chehra
Yuz	tabassum qildi, ilgari

Mashq. Berilgan soʻzlarning sinonim va antonimlarini toping. Obod, koʻrkam, ulkan, mitti, moʻl

Nazorat savollari:

1. Respublikamizning qanday ramzlari bor?
2. Oʻzbekiston Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
3. Madhiyamizning muallifi kim?
4. Oʻzbekiston Respublikasining davlat gerbi qachon tasdiqlangan?
5. Leksikologiya nimani oʻrganadi?
6. Qanday soʻzlar bir maʼnoli soʻzlar deb ataladi?
7. Qanday soʻzlar koʻp maʼnoli soʻzlar deb ataladi?
8. Maʼnodosh soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
9. Shakldosh soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
10. Bir-biriga zid maʼnoli soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
11. Talaffuzdosh soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?

4-MASHG'ULOT

ONA TILI – MILLAT KO'ZGUSI

Til – insonga ato etilgan ehsonlar orasida eng mo'jizakor, mehnat va ijodiy faoliyatda qudratli quroldir.

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 5000 ga yaqin til bor. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, hammasi ham million-million kishilarning muloqot, o'zaro axborot va fikr almashish vositasiga aylangan emas. Buning uchun ayni shu tilda yaratilgan badiiy va ilmiy adabiyotlar nufuzi, boshqacha qilib aytganda, shu tilda so'zlashuvchi kishilarning ilmiy va badiiy salohiyati yuksak bo'lishi lozim.

Ona tilimiz – o'zbek tili ana shu talablarga to'la-to'kis javob bera oladigan, lug'aviy xazinasini boy tillardan ekanligi shubhasizdir. Respublikamiz hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Davlat tili esa ana shu millat va elat vakillarining aloqa usuli, ularni fikran bog'lovchi vositadir. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni yigirma besh million bilan o'ttiz million orasida bo'lib, ularning asosiy qismini O'zbekistonda va unga chegaradosh bo'lgan mustaqil davlatlarda istiqomat qilib turgan, o'zbek tilida so'zlashuvchi va o'zini o'zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi.

O'zbek tili Oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi va so'zlashuvchilar soni jihatidan turk tili va ozarbayjon tilidan so'ng uchinchi o'rinda turadi. O'zbek tili eng qadimiy turkiy yozma tillardan biridir. Hozircha o'rganilgan manbalarga ko'ra, u deyarli bir yarim ming yillik tarixga ega.

O'zbek tili shevalarga boy tillardan biri hisoblanadi. Shevalar – umummilliy tilni boyitishning cheksiz manbaidir. Hozirgi zamon o'zbek tili, asosan, uch ko'rinishga ega bo'lib, birinchidan, shevalardan, ikkinchidan, umummilliy adabiy tildan va uchinchidan, ularning qorishmasi bo'lmish kundalik jonli muloqot tilidan tashkil topgan.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy shunday degan: "Har millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur". Shu bois davlatimiz mustaqilligini qo'lga kiritish arafasida o'zbek ti-

liga Davlat tili maqomining berilishi beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Ya'ni, 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi haqida qonun qabul qilindi.

LUG'AT

milliy – национальный

mo'jiza – чудо

muloqot - общение

chegaradosh – приграничный

qorishma – сочетание

maqom – статус

millat ruhi – дух нации

ma'rifatparvar - просветитель

umummilliy – общенациональный

Topshiriq. Matn yuzasidan o'zaro suhbatlashing.

Topshiriq. Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing.

SUHBAT

Lena:

– O'zbek adabiy tilining asoschisi kim?

– Alisher Navoiy qaysi asarida o'zbek tilining boyligini asoslab bergan?

– Dunyoda nechta til bor?

– O'zbek tili qaysi tillar oilasiga kiradi?

– O'zbekistonda Davlat tili haqidagi qonun qachon qabul qilingan?

Dilnoza:

– Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi.

– Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy "Muhokamat-ul lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") kitobida o'zbek tilining hech qaysi tildan qolishmasligini misollar bilan asoslab bergan.

– Dunyoda 5000 ga yaqin til bor.

– O'zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi va so'zlashuvchilar soni jihatidan turk tili va ozarbayjon tilidan so'ng uchinchi o'rinda turadi.

– 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi haqida qonun qabul qilindi.

Topshiriq. Yozuvchi O'.Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan keltirilgan parchalarni o'qing, rus tiliga tarjima qiling. "Ustoz", "Talaba", "O'zbek xalqi", "Shifo" so'zlariga bitiklar keltiring.

Ona tili

Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi. O'limi oldidan onasini ona tilida yo'qlaydi.

Mehr

Quyosh buloq suviga ham, mag'zavaga ham, chaqirtikanakka ham barobar nur sochaveradi.

Yer chuchmomani ham, chaqirtikanakni ham barobar o'stiraveradi. Ota-onaga bolaning yaxshi-yomoni yo'q.

Do'st

Do'st degani daraxt yaprog'iga o'xshaydi. Bahor chog'i – behisob. Kuz kelganda – sanoqli. Yoshlik chog'i – behisob. Keksayganda sanoqli.

Topshiriq. Til haqidagi fikrlarni o'qing va mazmunini ayting.

1. «Ko'ngil durji ichra guhar so'z durur Bashar gulshanida samar so'z durur». (Alisher Navoiy)

2. «Har bir millatning borligini ko'rsatadurg'on oynai hayoti – bu til va adabiyotdir». (Abdulla Avloniy)

3. «Til mustaqilligi – el mustaqilligi». (Maqol)

4. «Og'izga kelganni demak nodonning ishi, oldiga kelganni yemak hayvonning ishi». (Alisher Navoiy)

5. «Til – aql tarozisi». (Maqol)

6. «Til borki, bol keltiradi, til borki, balo keltiradi». (Maqol)

7. «Til – millatning ruhi». (Maqol)

8. «So'z – gul, ish – meva». (Al-Xorazmiy).

Topshiriq. Shu so'zlar dilingizdan o'tgan vaziyatlar bo'lganmi? Ularni qisqacha bayon qiling.

So'z va atama. Til va terminologiya

So'zlar o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda ishlatilishi mumkin. Masalan: <i>oq oltin, qo'li gul, qora oltin, oltin kuz.</i>		Слова могут иметь прямое и переносное значение. Речь человека состоит из общеупотребительных слов и терминов.	
Inson nutqi umumishlatiluvchi so'zlardan va atamalardan tashkil topadi.		Термины употребляются в определенной области науки. Представители этой науки понимают эти слова.	
Atamalar fanning ma'lum sohasida ishlatilib, ularni shu soha kishilari tushunadi. Masalan:		Например:	
Filologiya	Tibbiyot	Филология	Медицина
morfologiya	tonometr	морфология	тонометр
fonetika	fonendoskop	фонетика	фонендоскоп
leksikologiya	kardiogramma	лексикология	кардиограмма
ega	skalpel	подлежащие	скальпель
kesim	shpris	сказуемое	шприц

Maxsus leksikaga birinchi navbatda atamalar kiradi.

Termin (atama) – ma'lum sohada aniq tushunchani anglatadigan rasmiy so'z yoki so'z birikmasidir.

Termin (atama)larni qo'llanilishi jihatidan asosan ikki turga bo'lish mumkin.

Atamalar odatdagi umumaloqadagi so'zlardan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra chiqib quyidagicha farqlanadi.

1. So'zlar ma'lum sohadagina ishlatilib, iste'mol doirasi chegaralangan ma'noda qo'llanilgandagina terminlarga aylanadi.

Masalan: *suv* – umumiste'molda ko'lmak, qor suvi, vodoprovod suvi, gaz, mineral suv ma'nosida ishlatiladi. Termin ma'nosida kimyoda – H₂O.

2. Termin aniq, konkret tushunchani ifodalab, emotsional ekspresiv bo'yoqqa ega bo'lmaydi.

Tilda kichraytirish-erkalash ma'nosini bildirgan *-cha* affiksi negiz bilan birga mazkur tushunchani hosil qiladi.

Orqa ildizchasi – miya

Ildizcha anesteziyasi.

3. Bir so'z bir necha sohaning atamasi bo'lishi mumkin. Masalan: *morfologiya.*

Morfologiya

Tilshunoslik sohasida

Biologiya sohasida

ATAMALAR (ТЕРМИНЫ)

Umumxalq
tushunadigan va
qo'llaydigan atamalar

Tor ixtisoslik doirasida
qo'llaniladigan,
mutaxassislarga tushunarli
bo'lgan maxsus so'zlar

Fizikada

Issiqlik, jism,
elektr, magnit, gaz,
muvozanat, harorat

Diod, gravitatsiya,
ionlanish

Ilmiy-texnik atamalarni o'zbek tilidagi imkoniyatlar yordami bilan yasashda atamani aynan tarjima qilish muhim ahamiyatga ega.

Masalan:

коклюш (ko'kyo'tal)

корь (qizamiq)

пневмония (zotiljam)

аппендицит (ko'richak)

Atamalarning talaygina qismi baynalminal so'zlardan iborat. Unday so'zlar ko'pgina millatlar tillarida bir xilda qo'llanadi.

Masalan:

Morfologiya

Giperbola

Genetika

Alkoloid

Bakteriya

Fonendoskop

Mashq. Quyidagi gaplarni o'qing. Ulardagi atamalarni aniqlang.

1. Ega va kesim - gapning bosh bo'laklari. 2. Jamiyatda hamma o'z o'rniga ega. 3. Rentgen surati jarrohning ishi uchun juda muhim. 4. Gastroskop – me'dani tekshiruvchi asbobdir. 5. Fonetik usulda odamlar harflar talaffuzini o'rganadilar. 6. Nog'ora parda ortida o'rta quloqda uchta mayda eshitish suyakchalari bo'lib, «bolg'acha», «uzangi», «sandon» deb ataladi. 7. Fermentlar tarkibida doimo uglerod, vodorod, ba'zida kislorod va azot bo'ladigan birikma hosil bo'ladi.

Mashq. Quyidagi so'zlarni rus tiliga tarjima qiling va gaplar tuzing. Ulardan ichki va tashqi a'zolarni toping.

Qoshiq, anatomiya, tillaqosh, boshliq, o'rdakburun, bo'taloq, jigarbandim.

Mashq. Lingvistik va matematik terminlarni alohida ustunlarga yozing.

Qo'shuv, kelishik, unli tovush, ayiruvchi, undosh tovush, ko'paytirish, bo'lish, sifat, aylana, fe'l, olmosh, gap, oddiy kasr, maxraj, o'nlik, aniqlovchi, to'ldiruvchi, tenglama, masala, so'z birikmasi.

Mashq. Tanlagan kasbingizga mos rolli o'yinda ishtirok eting ("Shifokor va hamshira", "Bemor va shifokor"). Bunda o'z ixtisosligingizga oid terminlardan foydalaning.

Mashq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Til, aholi, adabiyot, mamlakat, donishmand, o'simlik, gulzor, zamon, texnika, beqiyos, olima, yozuvchi.

Mashq. O'qing, tor ixtisoslik doirasida qo'llaniladigan atamalarni toping.

1. Kimyoviy tolalar sun'iy va sintetik tolalarga bo'linadi.

2. Ateroskleroz – hayot uchun muhim bo'lgan yirik arteriyalar devorlarida yog'simon moddalarning to'planib qolishidan iborat kasallik.
3. Vitamin C organizmda moddalar almashinuvida muhim ahamiyatga ega.
4. Dorivor o'simliklar: na'matak, chakanda, jiyda, anor, bodom, do'lana, dorivor valeriana.
5. Romshteks – mol go'shtidan tayyorlanadigan quyuq taom.

Nazorat savollari:

1. O'zbek tiliga qachon Davlat tili maqomi berildi?
2. Qaysi o'zbek mumtoz adabiyotining namoyandasi o'zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi?
3. "Til – do'stlik kaliti" maqolning ma'nosini izohlab bering?
4. Til haqidagi qanday hikmatli iboralarni bilasiz?
5. "Atama" deganda nimani tushunasiz?
6. Atamalar qo'llashiga ko'ra necha turga bo'linadi?
7. Umumxalq qo'llaydigan atamalardan tor ixtisoslik doirasida qo'llanadigan atamalarning farqi nimada?
8. O'zbek tili qaysi tillar oilasiga kiradi?
9. O'zbek tili qaysi tillar guruhiga mansub?
10. Berilgan atamalar qaysi sohada uchraydi? *Jism, issiqlik, quvvat, energiya, atom.*

5-MASHG'ULOT

DUNYO TILLARI

Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo'lishi uchun muhim vosita hisoblanadi. 1999-yilda yer yuzi aholisi 6 milliardga yetdi va bu aholi 2976 tilda gaplashadi. Shundan 200 tilning har birida 1 milliondan ortiq, 70 tilning har birida 5 milliondan ziyod, faqat 13 tilning har birida 50 milliondan ko'p kishi so'zlashadi. Qolgan tillarning har birida esa 1 milliondan oz kishi gaplashadi.

Kavkaz tog'larida joylashgan Dog'istonda 1 milliondan ortiq aholi bo'lib, ular 40 ga yaqin tilda muloqot qilishadi.

Dunyodagi tillar kelib chiqishi, lug'aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo'linadi. Yer yuzida 20 ga yaqin til oilasi bor. Til oilasi o'z navbatida til guruhlariga bo'linadi.

O'zbek tili oltoy tillari oilasi, turkiy tillar guruhiga mansub.

Hozirgi kunda qo'llanish yoki qo'llanmasligiga ko'ra tillar tirik va o'lik tillarga bo'linadi. Ma'lum bir jamiyatning aloqa vositasi bo'lib xizmat qilayotgan til tirik til sanaladi. Hozirgi davrda ma'lum bir jamiyatning aloqa vositasi bo'lib xizmat qilmaydigan, faqatgina yozma yodgorliklar orqaligina ma'lum bo'lgan til o'lik til sanaladi. Masalan: lotin tili, so'g'd tili, qadimgi hind (sanksrit) tili, qadimgi slavyan tili, qadimgi xorazm tili.

Lotin tili qadimgi Rim imperiyasining rasmiy tili sifatida mavjud bo'lgan. Bu til asta-sekin o'lik tilga aylangan. Hozirgi davrda bu til faqat ilmiy atamalarda ishlatiladi. Lotin tili o'rta va oliy tibbiyot o'quv yurtlarida o'qitiladi.

LUG'AT

muomala – обращение

tirik til – живой язык

o'lik til – мёртвый язык

jamiyat – общество

yodgorlik – предмет, являющийся памятью; памятник

Topshiriq. Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing.

Topshiriq. Yangi so'zlar bilan birikmalar tuzing va yozing. Ularni eslab qoling.

SUHBAT

Lena:

– Dilnoza, qaysi tillar xalqaro rasmiy til hisoblanadi?

– Turkiy tillarga qaysi tillar kiradi?

– Boshqa tillarni bilishning qanday foydasi bor?

Dilnoza:

– Rasmiy xalqaro tillarga: rus, ingliz, fransuz, xitoy, ispan va arab tillari kiradi?

– Turkiy tillar oilasiga: o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, uyg'ur, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, nog'oy, oltoy, qrim-tatar va boshqa tillar kiradi.

– Xalqlar o'rtasidagi birlik, ahillik, mehr-oqibat va hurmat til va madaniyatni bilishdan boshlanadi.

– Ko'p tilni bilishning xosiyati nima-
da, bilasanmi?

– Rahmat, Dilnoza. Sen bilan suhbat-
lashib ko'p narsalarni bilib oldim.

– Ha, bilaman. O'zbek xalq shoiri
G'afur G'ulom aytganlaridek: “Ha-
yotda ko'p tilni bilish chuqur bilim
olmoqchi bo'lgan yoshlar uchun juda
zarur. Inglizcha, nemischa, fransuzcha
yoki italyanча tillarni bilish dunyo
madaniyati xazinasiga yo'l ochadi”.

Tillar ko'pdir dunyoda

Tillar ko'pdir dunyoda, Bir-biridan ziyoda. Kulib bizlarga qarab Arabcha so'zlar arab. So'zlar aytib bir talay Nemis der: “Ishlar qalay?”	Bizga qo'shni hamda do'st Qozoq, qirg'iz, xitoy, rus. Barisi o'z elida, So'zlaydi o'z tilida. Tilni o'rgansang qancha Do'stlaring bo'lar ancha.
--	--

Topshiriq. «Tillar ko'pdir dunyoda» she'rini ifodali o'qing.

Topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering

1. Jahon tillariga qanday tillar kiradi?
2. Jahon tillariga xos bo'lgan, o'zbek tilida ham ishlatiladigan so'zlarni davom ettiring. Global, sport, foto, fokus, kompyuter, ofis, faks, kollej, internet, telefon.

Ibora (Фразеологизм)

<p><i>Ibora</i> alohida predmetlar, belgilar va harakatlar nomlari uchun xizmat qiladigan turg'un so'z birikmalaridir. Iboralar gapda bitta bo'lak vazifasida keladi.</p>	<p>Фразеологизм - это связанные, устойчивые сочетания двух более слов, равные по значению слову. например:</p>
<p><u>jonim bilan</u></p>	<p><u>с большим удовольствием</u></p>
<p><u>bosh ustiga</u></p>	<p><u>отвести душу</u></p>
<p><u>og'zi qulog'ida</u></p>	<p><u>рот до ушей</u></p>
<p><u>alamdan chiqmoq</u></p>	<p><u>облегчиться, отомстить</u></p>
<p><u>aravangni tort</u></p>	<p><u>проваливай, катись</u></p>
<p><u>achchiq kulgi</u></p>	<p><u>язвительный смех</u></p>
<p><u>asabga tegmoq</u></p>	<p><u>действовать на нервы</u></p>
<p><u>achchiq ustida</u></p>	<p><u>сгоряча</u></p>
<p><u>kapalagi uchdi</u></p>	<p><u>испугался</u></p>

Topshiriq. Iboralarni izohlab bering.

Namuna: Boshini ko'tarolmay qoldi. Qattiq betob bo'lgan odam boshini ko'tarolmaydi. Iboraning ko'chma ma'nosida biror shaxs, noxosdan g'ayrixoxlik qilib qo'ysa, bergan va'dasining ustidan chiqolmasa, da'fatan xijolatga tushsa, boshini ko'tarolmay qoladi. Sababi sherigining, o'zga odamning ko'ziga tik qarashga uyalib, istihola qiladi.

Yuzi yo'q. Ko'zini yog' bosdi. Qulog'ini tishlab qo'ygan. Burnidan buloq bo'lib chiqdi. Og'ziga kuchi yetmagan. Tishini tishiga qo'ydi. Tilimning uchida turibdi. Bo'ynidan ip o'tkazmoq. Qo'li qo'lga tegmaydi. Yuragidan urdi. O'pkasi yo'q. Oyog'i olti, qo'li yetti.

Mashq. Qavs ichida berilgan so'zlardan mosini nuqtalar o'rniga tanlab, gaplarni ko'chiring.

1. Kasallikaniqlansa davolash kechadi. Kasallik aniqlansa davolash kechadi. (erta, kech, oson, qiyin)

2. Ovqat yesang u seni, ovqat yesang sen uni ko'tarib yurasan. (kam, ko'p)

3. Buvimning kasallari asorat qoldirgani uchun ularni yotqizdik. (kasalxonaga, shifoxonaga)



4. Uning yarasi borligini aniqlashdi. (oshqozonida, me'dasida)
5. Uning . . . juda chiroyli. (yuzi, afti, basharasi)
6. . . . birinchi yordam ko'rsatildi. (bemorga, betobga)

Mashq. Quyidagi iboralar qanday ma'noni bildirishini toping.

Ko'zi ko'ziga tushdi.	Ko'z qirini tashladi.
Qo'y og'zidan cho'p olmagan.	Oyog'ini qo'liga olib yugurdi.
Yerga ursa, ko'kka sapchiydi.	Quloq soldi.
Tepa sochi tikka bo'ldi.	Xayoli patday to'zidi.

Mashq. Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sanamay sakkiz deydigan; chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan, yulduzni benarvon uradigan – yerga ursa ko'kka sakramoq.

Mashq. Gaplardagi iboralarni ajrating, ma'nosini izohlang.

O'rtog'ingga ayt, o'pkasini bosib yursin. Biror gap bo'ldimi deb, o'takam yorila yozdi-ya. Savolga javob berolmaymanmi deb, yuragim shig' etib ketdi. Peshona teriga tayangan odam bexavotir yashaydi.

Mashq. Quyidagi iboralarning o'zbek tiliga mos bo'lgan tarjimasini toping, ular ishtirokida gap tuzing.

1. Знать как свои пять пальцев. 2. Смотреть сквозь пальцы. 3. Язык без костей. 4. Море по колено. 5. Пропустить мимо ушей. 6. Сидеть сложа руки. 7. Бежать куда глаза глядят.

Mashq. Quyidagi iboralar qanday ma'noni bildirishini toping. So'z birikmalarining qaysi birida so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?

- | | |
|------------------|-------------------|
| 1. Shirin til. | 3. Egri ish. |
| 2. Zangori olov. | 4. Achchiq ovqat. |
| 5. Katta uy. | 8. Shirin nok. |
| 6. Ochiq qo'l. | 9. Ochiq eshik. |
| 7. Issiq non. | 10. Sovuq gap. |

Mashq. Quyidagi iboralar qanday ma'noni bildirishini toping.

Ibora	Izoh
Og'zi qulog'ida	Xursand
Ko'zi moshdek ochildi
Ko'z ochib yumguncha
Beli og'rimagan
Kitobga ko'z tashladi

Mashq. Lug'atdan foydalanib, berilgan iboralarning sinonim yoki antonimlarini toping.

Suvga tushgan bo'lka nonday, ammamning buzog'i, tepa sochi tikka bo'lmoq, boshi osmonda, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan.

Nazorat savollari:

1. "Til bilgan - el biladi" hikmatli so'zining ma'nosini izohlab bering?
2. Turkiy tillar guruhiga o'zbek tilidan tashqari yana qaysi tillar kiradi?
3. Qanday tillar tirik tillar deb ataladi?
4. Qanday tillar o'lik tillar deb ataladi?
5. O'lik tillarga qaysi tillar kiradi?
6. Jahon tillariga qanday tillar kiradi?
7. "Ibora" deganda nimani tushunasiz?

6-MASHG'ULOT**ODAM ANATOMIYASI**

Anatomiya fani – odam tanasining shakli, tuzilishi, rivojlanishi hamda morfologiya va vazifasini bir-biriga bog'lab o'rganadigan fandır. Anatomiya fanining nomi *yunoncha (grekcha)* – «anatemno» so'zidan olingan bo'lib, *kesaman* degan ma'noni bildiradi. Anatomiya yada murdani pichoq bilan kesib o'rganish asosiy usullardan biri hisoblanadi. Odam anatomiyasiga ba'zi biologik fanlar: antropologiya, fiziologiya, gistologiya, embriologiya, qiyosiy anatomiya asos bo'lib hisoblanadi. Anatomiya fanini o'zlashtirmay turib, bu fanlarni o'rganish qiyin.

Gippokrat odam anatomiyasiga katta e'tibor berib, odam tanasi tuzilishini o'rganish tibbiyotning bosh negizidir, deb ta'kidlagan. Iba

Sinoning «Tib qonunlari» asarida u odam anatomiyasi masalasiga ko'p o'rin ajratgan. Yana bu asarda odam tanasi qismlari bir-biri bilan qattiq bog'lanib, bir butunlikni hosil qiladi, deb izohlagan.

Odam organizmining barcha qismlarini, a'zolarining tuzilishini, shaklini o'rganishda lotin yoki yunon so'zlari keng qo'llaniladi. Anatomiya atamalari birinchi marta 1894-yilda Shvetsariyaning Bazel atamalari anatomiya nomenklaturasi (BNA)da barcha a'zolar tuzilishi o'rganilgan. Lekin ular (BNA) orasida a'zolar tuzilishiga mos kelmaydigan atamalar ham bo'lgan. Shuning uchun 1955-yilda Parijda chiqarilgan Xalqaro anatomlar syezdida yangi – Parij anatomiya atamalari PNA qabul qilindi. Hozirgi kunda anatomiyani o'rganishda PNA ga rioya qilinadi.

Qadimiy anatomiya fani a'zolari alohida-alohida o'rganib kelgan, ularning o'zaro munosabatlarini, organizmning bir butunligini hisobga olmasdan, faqat dalillarni to'plash bilan chegaralangan. Hozirgi davrda esa bu fan a'zolarining o'zaro munosabatlarini, ularning bir sistemaga birlashish qonuniyatlarini dialektika qonunlariga asoslangan holda o'rganadi, organizmning yagona sistema ekanligini, uning tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligini, shakli bilan vazifasining bir-biriga bevosita aloqador ekanligini nazarda tutadi.

LUG'AT

qism - часть

atama - термин

kesmoq - резать

jins - пол

mos - подходящий

tafovut - разница

alohida - отдельно

dalil - доказательство

butunlik - целостность

to'plamoq - собирать

chambarchas - тесно связанный

yagona - единый

Topshiriq. Matnni tarjima qiling va qisqacha mazmunini so'zlab bering.

Topshiriq. Matnga savollar tuzing.

Topshiriq. Lug'atdagi so'zlardan foydalanib 6 ta gap tuzing.

SUHBAT

Lena:

— Gulnoza, sen atamalar deganda nimani tushunasan?

— Biz anatomiya fanida ham ko'plab atamalardan foydalanamiz. Ular juda qadimda paydo bo'lgan. To'g'rimi, Dilnoza?

— Ha, 700 ta atrofida. Bu atamalar ichida lotincha so'zlar qayerdan paydo bo'lgan?

— Demak, tibbiyot rivojlangan sari atamalar soni ham ko'paya borgan.

— Masalan qachon va kimlar?

— Vanihoyat, 1895-yilda Bazel shahrida bu ish nihoyasiga yetkazilgan.

Dilnoza:

- Atamalar ma'lum bir fan, soha yoki kasbga oid so'zlardir.

- Ha, bundan 3000 yil ilgari Qadimgi Yunonistonda anatomiya fani rivojlana borishi bilan anatomiya atamalari qo'llanila boshlangan. Bilasanmi, qancha atama qo'llangan?

- Keyinchalik rimliklar bu atamalardan foydalanishgan va lotin tilidagi atamalarni qo'shishgan.

- To'g'ri, ko'p yillar davomida turli mamlakat olimlari atamalarni tartibga solish uchun uringanlar.

- XV asrda Leonardo da Vinchi, XVI asrda A.Vezaliy va turli davrlarda boshqalar tomonidan.

- To'g'ri, lekin mos kelmaydigan atamalar ham anchagina bo'lganligi uchun 1955-yilda Parijda o'tkazilgan Jahon anatomlari kongressida yangi nomenklatura qabul qilindi.

Topshiriq. Insonning ichki a'zolariga oid so'zlarni yod oling.

bosh suyagi - череп

o't pufagi - желчный пузырь

miya - мозг

til - язык

milk - десна

halqum - глотка

qizilo'ngach - пищевод

oshqozon - желудок

asab - нерв

oshqozon osti bezi - поджелудочная железа

jinsiy a'zolar - половые органы

yurak - сердце

taloq - селезёнка

ichak - кишка

to'g'ri ichak - прямая кишка

ko'richak - слепая кишка

ingichka ichak - тонкая кишка

suyak - кость

murtak bezlari - гланды

ray - сухожилие, связка

qon tomir - кровеносный сосуд

jigar - печень

muskul - мышца

o'pka - лёгкие

bachadon - матка

tuxumdon - яичник

buyrak - почки

MORFOLOGIYA. SO'Z TURKUMLARI

Morfologiya (Морфология)

Morfologiya so'z turkumlari va grammatik kategoriyalarni o'rganuvchi fan.

Морфология изучает части речи и их грамматические категории

So'z turkumlari (Части речи)

O'zbek tilida oltita mustaqil so'z turkumlari mavjud:

1. Ot
2. Sifat
3. Son
4. Olmosh
5. Fe'l
6. Ravish

Uchta yordamchi so'z turkumlari:

1. Ko'makchi
2. Bog'lovchi
3. Yuklama

Bundan tashqari, o'zbek tilida uchta alohida so'zlar guruhi mavjud:

1. Undovlar
2. Modal so'zlar
3. Taqlidiy so'zlar

В узбекском языке шесть самостоятельных частей речи:

1. Имя существительное
2. Имя прилагательное
3. Имя числительное
4. Местоимение
5. Глагол
6. Наречие

три служебных частей речи:

1. Послелогои
2. Союзы
3. Частицы

Кроме того в узбекском языке три особых групп слов:

1. Междометия
2. Модальные слова
3. Подражательные слова

Ot (Имя существительное)

Ot predmetning nomini bildirib, kim? nima? savoliga javob beradi. O'zbek tilida rus tilidan farqli holda kim? savoli faqat odamlarga beriladi. Otlar *atoqli* va *turdosh* bo'ladi.

Turdosh otlar qanday tushunchani ifodalashiga ko'ra 2 xil bo'ladi.

1. Aniq otlar — *kitob, tovush, havo, shahar, daqiqa va boshqalar.*
2. Mavhum otlar — *go'zallik, sevgi, g'azab, kamchilik, do'stlik, madaniyat va boshqalar.*

Имя существительное обозначает предмет и отвечает на вопросы кто? что? В отличие от русского языка вопрос кто? (kim?) относится только к людям. Имена существительные бывают *собственные* и *нарицательные*.

Нарицательные существительные в зависимости от выражаемых понятий бывают двух видов.

1. Конкретные существительные — *книга, звук, воздух, город и др.*
2. Абстрактные существительные — *красота, любовь, дружба, ярость и др.*

Otlarda son kategoriyasi (Множественное и единственное число имён существительных)

Otlarda ko'plik (Множественное число имён существительных)	
<p>Otlarda ko'plik sonni yasash uchun -lar qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: <i>qush - qushlar, odam - odamlar, kitob - kitoblar</i>;</p> <p>Narsalar sanash ohangida aytilsa, -lar qo'shimchasi oxirgi so'zga qo'shilishi mumkin. Masalan: <i>Stolda kitob, daftar va darsliklar bor</i>.</p> <p>Sondan keyin kelgan otlarga -lar qo'shimchasi qo'shilmaydi. Masalan: <i>Guruhimizda o'n ikki talaba bor</i>.</p>	<p>Для образования множественного числа к существительным присоединяется аффикс -лар. Например: <i>qush - qushlar, odam - odamlar, kitob - kitoblar</i>;</p> <p>При перечислении ряда предметов аффикс -lar может прибавиться к последнему слову. Например: <i>tolda kitob, daftar va darsliklar bor</i>.</p> <p>Существительные, стоящие после числительного, в отличие от русского языка употребляются без аффикса -лар. Например: <i>Guruhimizda o'n ikki talaba bor</i>.</p>

Egalik qo'shimchalari (Аффиксы принадлежности)

Egalik qo'shimchalari narsaning qaysi shaxsga tegishli ekanini bildiradi.		Аффиксы принадлежности обозначают какому лицу принадлежит предмет.
Birlik	Ko'plik	
I shaxs -m; -im	-miz; imiz	
II shaxs -ng; ing	-ngiz; ingiz	
III shaxs -i; -si	-si; lari	

Mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi atoqli otlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1.shahri, nomli teatr (Navoiy, "Navoiy"). 2.qahvaxonasi,asari,shahri ("Guliston", Guliston). 3.asari, ...yillari (bolalik, "Bolalik"). 4.qahvaxonasi, ... gul (gunafsha, "Gunafsha"). 5. ... jurnali, gulning ...si (g'uncha, "G'uncha"). 6. ...jurnali, ...yoqildi (gulxan, "Gulxan"). 7. ...devoriy gazetasi, ... o'quv quroli (globus, "Globus").

Mashq. Insonning tashqi a'zolarini rus tiliga tarjima qiling.

Bosh, soch, peshona, qosh, ko'z, qovoq, kiprik, burun, og'iz, jag', lab, quloq, iyak, yuz, bo'yin, yelka, ko'krak, bel, biqin, qorin, qo'l, tirsak, kaft, panja, barmoq, oyoq, tizza, tovon.

Mashq. Gaplarni ko'chiring. Atoqli va turdosh otlarni ajrating.

1. Barcha sayyoralar orasida Yupiter eng katta sayyora hisoblanadi.
2. Institutimizdagi ko'p talabalar «Sihat-salomatlik», «Hamshira» jurnallariga obuna bo'lishdi.
3. Havo yomon bo'lganligi sababli samolyot Sankt-Peterburgda bir kun qolib ketdi.
4. O'zbekiston hududida 12 ta viloyat bor.
5. Ashurning Qorabayir oti musobaqada yutib chiqdi.

Mashq. Gaplardagi otlar qaysi shaxs va sonda berilganini ko'rsating.

1. Sog'lig'im yomonlashgani sababli shifokorga murojaat qildim.
2. Guruhingizda Afg'onistondan kelib o'qiyotganlar ham bormi?
3. Gapirmagan gaping – sening quling, gapirsang uning quliga aylanasan.
4. Qizaloqning sharsharaday sochlari yoyilgan, yuzlarida kulgichi bor edi.
5. Osmonning rangi o'zgarib, birpasda osmonni qora bulut qopladi.
6. Insonning insonligi odob-axloqi bilan.
7. Yuzingdan kulgu, lablaringdan tabassum arimasin.
8. Yoshliging besamar o'tishini xohlamasang har bir daqiqadan unumli foydalan.

Mashq. Quyidagi otlarga III shaxs birlik qo'shimchalarini qo'shib yozing.

Bahor, kuz, nutq, burun, qayiq, ko'ngil.

Mashq. Quyidagi otlarga ko'plik qo'shimchasini qo'shing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Daraxtlar havoni tozalaydi.

Daraxt, qahramon, kumush, yigit, daryo, paxtakor, dastgoh, korxon, foyda, narx, masjid, guruh.

Mashq. So'zlarni bir-biriga bog'lab ko'chiring.

Namuna: O'qituvchilar, xona – o'qituvchilar xonasi.

1. O'rik, gul.
2. Chumchuq, uya.
3. Biz, maktab.
4. Tog', qor.
5. Men, qo'g'irchoq.
6. Sen, daftar.
7. Quyosh, nur.
8. Paxta, ochilish.
9. Bulbul, ovoz.

Mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan egalik qo'shimchalarini qo'yib ko'chiring.

1. Bizning dala... chaman, unda quvnab o'saman. 2. Sizning aka... chinni zavod...da ishlaydimi? 3. Bizning tuman... obod. 4. Kichik korxonada ishchi...

Mashq. Turdosh otlarning atoqli otlarga o'tishiga o'nta misol keltiring va har biri bilan gaplar tuzing.

Masalan: lola – Lola bugun anatomiya darsida qoldirgan darsini qayta topshirdi.

Mashq. Quyidagi so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling va gaplar tuzing

1. Моя мечта. 2. Наши зубы. 3. Моя диета. 4. Ваш диагноз. 5. Его лицо. 6. Причина твоей болезни. 7. Состояние больного. 8. Староста группы. 9. Способности организма. 10. Узбекский язык. 11. Твоя профессия.

Mashq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling va egalik ma'nosini bildiruvchi konstruksiyalarni toping.

1. Gippokrat qadimgi Yunonistonning mashhur shifokori. 2. O'zbekistonning tabiati juda go'zal. 3. Singlimning ko'zlari qop-qora. 4. Ularning gapi menga ta'sir qildi. 5. Boshingning og'rig'i ko'p uxlagandan bo'lsa kerak. 6. Bizning oilamiz katta. 7. Mening otam 1-shahar kasalxonasida shifokor bo'lib ishlaydi, onam esa o'qituvchi. 8. Sening singling bormi? 9. Ovqatlanish tartibini o'zgartirgach, tanamizdagi ortiqcha vazndan qutuldik. 10. Kitoblarning ikkitasi meniki.

Mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli egalik qo'shimchasini qo'yib daftaringizga ko'chiring.

1. O'tgan kun... shartnomaning muddat... tugadi. 2. Bolaning bo'g'imlar... og'riyaptimi? 3. Bu voqea uning ko'z old...dan o'tdi. 4. Men o'zimning tarjimai hol...ni yozib topshirdim. 5. Bemorning qon bosim.... ko'tarildi. 6. Sizning guruh... da nechta talaba o'qiydi? 7. Bu kasalning belgi.... 8. Afshona o'zining buyuk tabib... bilan dunyoga mashhur.

Mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Tayanch-harakatlanish tizimi skelet va muskullardan iborat. Odam skeletining funksiyasi – ko'p qirrali. Eng muhimi, gavdada u tayanch va himoya vazifasini bajaradi. Skeletning tayanch vazifasi tufayli unga barcha skelet muskullari birikib turadi. Skelet ichki a'zolari, qon tomirlari va nerv sistemasini himoya qilish vazifasini ham o'taydi.

Suyaklarning ko'mik qismida qonning shaklli elementlari ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, suyaklar mineral tuzlar deposi bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Odam anatomiyasi fanining o'rganish obyekti, predmeti haqida gapirib bering.
2. Odam anatomiyasi fani nimani o'rganadi?
3. Odam anatomiyasi fani qaysi sohalarni o'z ichiga oladi?
4. Morfologiya nimani o'rganadi?
5. Ot so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
6. Ot so'z turkumi qanday turlarga bo'linadi?
7. Otlarda son kategoriyasi haqida ma'lumot bering.
8. Otlarda egalik kategoriyasi haqida ma'lumot bering.

7-MASHG'ULOT.

MEN SHIFOKOR BO'LMOQCHIMAN

Yoshligimdan oq xalat kiyib yurgan shifokorlarga havas qilganim uchunmi yoki ko'p kasal bo'lganimdanmi, shifokor bo'lishni orzu qilardim. Shuning uchun ham, tibbiyot institutiga kirdim. Mana 2-kursda o'qimoqdaman. Endi esa oldimda bir maqsad turibdi. U ham bo'lsa, malakali shifokor bo'lib yetishish. Shifokorlik kasbi boshqa kasblarga qaraganda ancha mas'uliyat talab qiladi. Chunki oldiga bemor kelganda bilimlarga tayanib to'g'ri tashxis qo'yish, tez xulosa chiqara olish, to'g'ri davo belgilash katta ahamiyatga ega.

Shifokor doimo bemorlarga yordam berishga tayyor turadigan inson bo'lishi kerak. Ba'zan o'z manfaatlaridan kechib bo'lsa ham bemor uchun o'z vaqti va sog'ligidan voz kechish kerak. Kasallikning kechish jarayonini o'rganish uchun uni o'zida sinab ko'rgan shifokorlar ozmun-

chami? Qon kerak bo'lgan bemorlardan qonini ayamaganlar-chi?

Shifokorlar juda katta bilim zahirasi ega bo'lishlari kerak, chunki kasalliklarning kelib chiqishi, tarixi murakkab, yo'ldosh kasalliklar ko'p bo'lishi mumkin.

Men kelajakda endokrinolog bo'lmoqchiman. Bu sohaga oid ko'pgina kasalliklar qalqonsimon bez faoliyati bilan bog'liq. Hozirgi kunda okean va dengizdan uzoqda joylashgan ko'pgina mamlakatlardagi kabi bizning yurtimizda ham yod tanqisligi muammosi bor. Bu esa o'z navbatida gipoteriozlarni keltirib chiqaradi.

Men tibbiyot haqidagi bilimlarimni oshirib, endokrin kasalliklarni xalq tabobati yo'li bilan davolashni o'rganmoqchiman.

LUG'AT

taayanmoq - опираться

tashxis - диагноз

voz kechmoq - отречься, отказаться

xulosa - вывод

jarayon - процесс

Topshiriq. Yuqoridagi matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Topshiriq. Yangi so'zlar bilan birikmalar tuzing va yozing. Ularni eslab qoling.

Kasbga tomon eltadigan yo'l

Siz o'z kasbingizni to'g'ri tanladingizmi? Birinchi ma'ruzalar sizda pushaymonlik, afsus kayfiyatini uyg'otmadimi?

Kasbingizni tanlashda turli baho mezonlarini qo'llagan bo'lishingiz kerak.

- Bo'lajak kasbingiz qanday ijtimoiy ahamiyatga ega?

- Siz tanlagan o'quv yurti talabalariga qayerda ehtiyoj bor?

- Ishingiz shaxsiymi yoki odamlar bilan ishlashni talab qiladimi?

- Kasbingiz sizdan qanday shaxsiy sifatlarni talab qiladi? Siz bu sifatlarga egamisiz?

Esingizda tuting: zerikarli kasbning o'zi yo'q. Faqat birdaniga uning eng qiziq tarafini ko'rish qiyin – axir u darrov namoyon bo'lmaydi. Kasbga tomon yagona yo'l esa - o'qish, o'rganishdir.

Topshiriq. O'zingiz orzu qilgan mutaxassislikka chorlagan yo'lingiz haqida so'zlab bering.

Oliy o'quv yurtiga kirishingizdan avval biror kasbingiz bo'lganmi?

Boshqa kasblarga munosabatingiz qanday?

Kerak yo kerak bo'lmagan kasblar ham bormi?

Topshiriq. Quyidagi qaydlardan birortasi bilan bog'liq voqeani eslang.

□ Shifokor o'zining eng yaqin kishisini davolaganday davolasa, bemor shuncha tez tuzaladi.

□ Qiynalib o'qisang, qiynalmay davolaysan.

□ Ba'zi bir hunarni, balki o'qimasdan o'rgansa bo'lar, ammo shifokorlik bundan mustasno.

□ Dard chekib qiynalayotgan bemorning birgina tabassumi uchun, joningni berishga tayyor bo'lmasang, yaxshisi shifokor bo'lmay qo'ya qol.

□ Huzuringga bemor kelganda cho'ntagingni o'ylab cho'pchak aytadigan bo'lsang, yaxshisi "oqshom ertaklari" ga borib qo'ya qol.

□ Shifokor uchun baxt – bu o'lim to'shagida yotgan bemorning tuzalib oyoqqa turishidir.

□ Davolasam nima berar ekan? – deyishdan ko'ra, nima bersam davo topar ekan, deyishni odat qil.

□ Hech narsani bilmasang ham, balki shifokorlik diplomini olishing mumkin, ammo davolovchi shifokor diplomini emas.

□ Joni azobda turgan bemordan bir nima umid qilgandan ko'ra, gadoydan sadaqa so'ragan yaxshiroq.

□ Yaratganning mo'jizasini qarang, inson bosh miyasini yuragidan kattaroq qilib yaratgan. Qalbing buyurganini emas, aqling buyurganiga qarab ish tut, degani shu bo'lsa kerak.

Kelishiklar (Падежи)


<p>Kelishiklar otlarning gapda boshqa so'zlarga munosabatini bildiruvchi grammatik shakllardir. O'zbek tilida oltita kelishik bor.</p>	<p>Падежами называются грамматические формы, выражающие различные отношения существительных к другим словам в предложении. В узбекском языке существует шесть падежей.</p>
--	--

Otlarning kelishiklarda turlanishi (Склонение существительных по падежам)

Kelishiklar (Падежи)	Kelishik savollari (Падежные вопросы)	Kelishiklar qo'shimchasi (Падежный аффикс)	Rus tilidagi kelishiklar shakliga mosligi (Соответствующая падежная форма в русском языке)	Misollar (Примеры)
Bosh kelishik	kim? (кто?) nima? (что?) qayer? (какое место?)	-	Именительный падеж	Karim, qishloq
Qaratqich kelishigi	kimning? (чей? чья? чье?) nimaning? (чего?) qayerning (какого места?)	-ning	Родительный падеж без предлога	Karimning daftari, qishloqning mevasi
Tushum kelishigi	kimni? (кого?) nimani? (что?) qayerni? (какое место?)	-ni	Винительный падеж без предлога	Karimni ko'rdim, qishloqni sog'indim
Jo'nalish kelishigi	kimga? (кому?) nimaga?(чему?) qayerga? (куда?)	-ga, -ka, -qa	Дательный падеж без предлога	Karimga xat yozdim, qishloqqa ketaman
O'rin-payt kelishigi	kimda? (у кого?) nimada? (на чем?), qayerda? (где?)	-da	Винительный падеж с предлогами <i>в</i> и <i>на</i> Родительный падеж с предлогом <i>у</i> Предложный падеж с предлогами <i>в</i> и <i>на</i>	Karimda qalam bor, qishloqda uy bor

Chiqish kelishigi	kimdan? (у кого, от кого?) qayerdan? (от- куда?), nimadan? (из чего? с чего?)	-dan	Родительный падеж с предлогами <i>у, от, из, с</i>	Karimdan maslahat so'radim, qishloqdan keldim
-------------------	---	------	---	---

Kelishiklar



Mashq. Qavslarning o'rniga zarur kelishikdagi so'zlarni qo'ying.

Shahar chekkasida (nima?) bor. (Nimaning) shoxida bulbullar sayrayapti. Yomg'ir yog'ib, quyosh porlagach, Anvar osmonda (nimaning?) ko'rdi. Men o'qishga borish uchun (nimaga?) chiqaman. Tamaki (nimaga?) zarar. (Nimadan?) ulkan baxt yo'q. Badantarbiya (nimada?) moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

Mashq. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring. Imlosiga e'tibor bering.

O'ktam gulzor yoni... darrov joy hozirladi. 2. Komila xursand bo'lib qalam-qog'ozni o'rtog'i... tutqazdi. 3. Qochoq cho'pon... ismi Yodgor, otasi... ismi Bozor. 4. Buloq... ham, qishloq... ham Oyko'l nomi berilgan. 5. Behzod tishi... bosib, teskari burilib oldi. 6. Zarifa sen... nima bo'ldi?

Mashq. Quyidagi savollarga so'z birikmalaridan foydalangan holda javob bering.

Bugun ma'ruzada kim bo'lmadi?	yaqin do'stim
Do'stingning nimasi yo'q?	qizil qalam
Bu gullar kimga atalgan?	aziz ustoz
O'qituvchi kimni chaqirdi?	mening kursdoshim
Odamlar nimadan vahimaga tushishdi?	qattiq zilzila
Mandat haqida kimdan bilish mumkin?	mas'ul kotib

Mashq. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Gaplarda otlar qaysi kelishikda kelganini ko'rsating.

1. Shifokorning shifo topolmay ojiz qolganini bemor sezmasligi kerak. 2. Har kim ilmi bo'lishni xohlasa o'qishni yoshligidan boshlasin. 3. Sog'lik – boylikdan a'lo. 4. Har bir inson o'z sog'ligiga katta e'tibor berishi kerak. 5. To'g'ri tuzilgan kun tartibida hikmat ko'p.

Mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Кто как слышит?

Орган слуха у кузнечиков расположен на передних ногах. Поэтому можно сказать, что кузнечики и их родственники, сверчки, прыгают на “ушах”.

У дельфинов слуховые окошки «примостились» на нижней челюсти. У раков слуховой аппарат находится на основании коротких усиков. Чуткий слух помогает некоторым хищникам охотиться. Подслеповатые от рождения летучие мыши научились на слух охотиться на бабочек и мух, находить своё гнездо и летать между линиями электропроводов, не задевая их.

Mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli kelishik qo'shimchasini qo'yib ko'chiring. Biror bir so'z turli kelishiklarda keluvchi yaxlit matn tuzing.

1. Bemor palata . . . yotqizildi.
2. Bemor . . . navbatchi shifokor tekshirib ko'rdi.
3. Bemor . . . tahlil uchun qon olindi.
4. Bemor . . . isitmasi ko'tarildi.
5. Bemor . . . yurak urishi tezlashdi.
6. Bemor . . o'pka shamollashi. . . belgilari aniqlandi.

Topshiriq. Matnni o'qing. Shu matn asosida bahs-munozara o'tkazing.

Mening birinchi bemorim

Mana, men pediatr sifatida ilk bor bemor qabul qilyapman. Kiyimimni almashtirgani kirib ketyapman. Yuragim duk-duk urganini sezyapman. Mana eshik ochilyapti. Bolachasini ko'targan yoshgina onaxon bo'sag'ada turibdi.

- Kiring!- deyman men.
U ham qimtinib kiradi.
– Assalomu alaykum!
– Vaalaykum assalom.
O'zimni jiddiy qiyofaga solib so'rayman.
– Nimadan shikoyat qilyapsiz?
– Bolamning isitmasi chiqyapti.
Men bolaning tomog'ini ko'raman. O'pkasini eshitaman.
– Hayriyat, o'pkalari toza.
– Tomog'i qizaribdi! - deyman men. Dori yozib berganimda esa qo'llarimning titrashini bildirmayman.
– Rahmat! – deydi u bolasini yo'rgaklashga qiynalib. U ilk bor bemor bolasini olib chiqqan, men esa ilk bemorimni ko'rardim.

Nazorat savollari

1. O'zbek tilida nechta kelishik bor?
2. Qaysi kelishikning qo'shimchasi yo'q?
3. Tushum kelishigi qaysi savollarga javob beradi?
4. Jo'nalish kelishigi qaysi savollarga javob beradi?
5. O'rin-payt kelishigi qaysi savollarga javob beradi?
6. Chiqish kelishigi qaysi savollarga javob beradi?
7. Qaysi allomani tabobat otasi deb atashadi?
8. Shifokor qanday bo'lishi kerak?

8-MASHG'ULOT

SHIFOXONADA

Sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan shifoxonamiz Toshkent shah-
rining Yunusobod tumanida joylashgan. Ushbu shifoxona 1979-yili
tashkil topgan. U ko'p o'rinliligi va bemorlarga yuqori sifatli yordam
ko'rsatishi bilan shahrimiz, hatto respublika miqyosida ham tahsinga
sazovordir. Shifoxonaga kiraverishda bir nechta dorixonalar, ovqat-
lanish shaxobchalari tashkil etilgan. Bemorlardan tashqari shu yerga
kelib ketuvchilar uchun ham bu juda qulay. Biz shifoxonaning
qabulxona bo'limiga kiramiz. Bu yerda bir qancha shifokorlarning

xonalari mavjud. Ular quyidagilardan iborat: jarroh, travmatolog, ko'z kasalliklari, lor kasalliklari, nevropatolog, pediater, UTT, tez laborator tahlil, rentgen qilish xonalaridan iboratdir.

Bu shifoxonada chaqaloqlar, chala tug'ilgan bolalar, reanimatsiya, ko'krak yoshidagi bolalar bo'limi, pulmonologiya, nevrologiya, mikronevrologiya, somatika, xirurgiya bo'limlari ham mavjud. Shifokor va hamshiralalar vrachlar malakasini oshirish institutining kafedra xodimlari bilan muntazam hamkorlikda faoliyat olib boradilar.

Har bir bo'limda navbatchi shifokor bor. Bu esa bemorlar hayoti doimiy nazoratda ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Har kuni ertalabki yig'ilish o'tkazilib, bemorlar haqida bosh shifokor boshchiligida muhokama qilinadi. Bu esa mas'uliyatni yanada oshiradi.

LUG'AT

hikoya - рассказ

mavjud - есть, существует

yuqori - высокий

muntazam - постоянно

bog'liqlik - связь

nazorat - контроль

qulay - удобный

miqyos - масштаб, размер

tahsin - похвала, восхищение

sazovog - достойный

malaka oshirish - повышение

квалификации

Topshiriq. Matni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

Topshiriq. Yangi so'zlar bilan birikmalar tuzing va yozing. Ularni eslab qoling.

SUHBAT

Shifokor huzurida

— Mumkinmi? Assalomu alaykum.

— Salom. Kiring. Marhamat, o'tiring.

— Doktor, men o'zimni yomon his qilyapman.

— Nima bezovta qilyapti?

— Bir necha kundan beri boshim (oyog'im, qulog'im, qornim) og'riyapti.

— Issig'ingiz bormi?

— Ha, kecha 38° daraja bo'ldi.

— Qani, og'zingizni oching. Qon bosimingizni ham o'lchab ko'rish kerak. Tomog'ingiz qizargan. Siz shamollagansiz. Mana ret-

sept. Dorixonadan dorilarni olasiz. Kechqurun sut ichib yoting. Uch kundan so'ng kelasiz. Bu esa qon va siydik tahlili uchun yo'llanma.

— Rahmat, doktor. Xayr.

— Xayr. Salomat bo'ling.

Topshiriq. Sizning hududingizda joylashgan shifoxonani tasvirlab bering.

Shifoxona ichki kasalliklar bo'limida shifokorning hamshiraga ko'rsatmalari

— Men bemorlarni ertalab soat to'qqizdan boshlab ko'raman.

— Bemorlarning kasallik tarixini ham o'zingiz bilan oling.

— Barcha bemorlarning o'z o'rinlarida bo'lishlarini nazorat qiling.

— Ko'rikni erkaklar (ayollar) bo'limidan boshlaymiz.

— Bugun (kecha) qancha bemor qabul qilindi?

— Bemorlardan kim kechasi yomon uxladi (bezovta bo'ldi, og'riqdan shikoyat qildi, isitmaladi)?

— Bemorni nevropatolog (jarroh, ginekolog...) ko'rigidan o'tkazing.

— Menga mana bu bemorning kasallik tarixini, kardiogramma (rentgenogramma, UTT) natijalarini bering.

— Mana bu bemorni jarrohlik bo'limiga o'tkazishga tayyorlang.

— Bemorning qon bosimini har ikki soatda o'lchab turing.

— Bemorning bir kecha-kunduzda qancha suyuqlik ichgani va qancha peshob ajratganini aniqlang.

— Bemorning tomir urishini aniqlang.

— Bemorning haroratini o'lchab, natijasini ayting.

— ... palatadagi bemorga tinchlantiruvchi dori bering.

Otlarning yasalishi (Образование имён существительных)

<p>Otlar asosan morfologik usul bilan yasaladi. Morfologik usulda so'z o'zagiga maxsus qo'shimchalar qo'shiladi. Shaxsni bildiruvchi otlar quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> -chi: ishchi; -dosh: vatandosh; -kash: mehnatkash; -bon: bog'bon; -paz: oshpaz; -dor: chorvador; -shunos: tilshunos; -xon: kitobxon; -soz: soatsoz; -kor: paxtakor. <p>Joyni bildiruvchi otlar quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> -zor: paxtazor; -iston: O'zbekiston; -xona: qabulxona. 	<p>Имена существительные образуются в основном морфологическим способом. При морфологическом способе к основе слова присоединяются особые аффиксы. Имена существительные, обозначающие названия лиц, образуются при помощи следующих аффиксов:</p> <ul style="list-style-type: none"> -chi: ishchi; -dosh: vatandosh; -kash: mehnatkash; -bon: bog'bon; -paz: oshpaz; -dor: chorvador; -shunos: tilshunos; -xon: kitobxon; -soz: soatsoz; -kor: paxtakor. <p>Имена существительные обозначающие названия мест образуются при помощи следующих аффиксов:</p> <ul style="list-style-type: none"> -zor: paxtazor; -iston: O'zbekiston; -xona: qabulxona.
---	--

Mashq. Nuqtalar o'rniga ot yasovchi qo'shimchalarni qo'yib ko'chiring.

1. Bog'... daraxtlar atrofini chopib chiqdi. 2. Kutubxonada kitob..... lar uchun konferensiya bo'ldi. 3. Paxta... xuddi oppoq qor bilan burkangandek. 4. Osh... juda shirin osh pishiribdi. 5. Chet elda vatan... larimizni uchratib qoldik. 6. Institutimizda tibbiyot... lar anjumani bo'lib o'tdi.

Mashq. Berilgan so'z birikmalaridan gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

Bo'lim, tibbiy hamshira, kasallik tarixi, muolaja xonasi, jarroh, bolalar shifokori, ko'z shifokori, teri kasalliklari shifokori, yo'llanma, ma'lumotnoma, navbatchi shifokor. -



Mashq. Quyidagi mashqdagi yasama otlarni toping.

1. O'zbek xalqi juda mehnatkash xalq. 2. Mashhur Asaka avtomobil zavodida juda ko'p ishchi qizlar mehnat qilishadi. 3. O'zbekiston O'rta Osiyodagi eng go'zal diyori. 4. Qozog'iston bizning eng yaqin qo'shnimiz. 5. Soatimni tuzatish uchun soatsozga olib bordim. 6. Har ikki yilda Samarqandda musiqashunoslar simpoziumi bo'lib o'tadi. 7. Kitobxonlar yozuvchi P.Qodirov bilan uchrashdilar.

Mashq. So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating.

Yordamchi, terimchi, olmazorda, daftarim, ishchiga, oshxona.

Mashq. Quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalar ishtirokida so'zlar yasang va gaplar tuzing.

-soz, -kor, -shunos, -bon, -chi, -kash, -xon, -zor, -paz.

Mashq. Ot yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing.

O'quvchi, kitobxon, oshpaz, aqlli, suvchi, suvdon, zargar, mehnatkash, soatsoz, tilshunos, supurgi, elak, tirnoq.

Mashq. Rus tiliga tarjima qiling.

Ambulatoriyalar

Ambulatoriya — shifoxonadan tashqarida tibbiy yordam ko'rsatadigan davolash-profilaktika muassasasidir. Unda ko'pi bilan beshta shifokor bo'ladi. Ambulatoriya poliklinikadan o'z faoliyati hajmining kamligi bilan farq qiladi. Shifokorlar faqat asosiy ixtisosliliklar bo'yicha bemorlarni qabul qiladilar.

Hamshiraning ambulatoriyadagi vazifalariga xona va bemorlarni qabulga tayyorlash, qabul vaqtida shifokorga yordam berish, ambulatoriya kartasining pasport qismini to'ldirish, arterial qon bosimini o'lchash va kasallik tarixini to'ldirish kiradi.

Mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Клиника для шопоголиков, которая находится в хорватском Загребе

Изначально это медицинское учреждение планировали построить в форме обычного магазина и придать зданию необходимый антураж. Но потом поняли, что пришедшие сюда лечиться шопоголики всё время будут думать о покупках, если увидят, к примеру, палату в виде обувного или галантерейного отдела. Именно по этой причине к отделке и планировке помещений подошли традиционно. И сейчас эта клиника выглядит как обычный дом. Но патологическую зависимость от желания совершать покупки здесь лечат – пусть и с переменным успехом. Врачи уже давно сравнивают шопоголизм с наркоманией и алкоголизмом и лечат эти недуги похожими методами – с помощью психолога, антидепрессантов, а иногда в самых крайних случаях – психиатра.

Topshiriq. Quyida talabaning XXIII asr klinikasi haqidagi tasavvuri bilan tanishasiz. Shu mavzuda o'z fikringiz bilan o'rtoqlashing.

XXIII asr tibbiyoti

Men vaqt mashinasiga o'tirib kelajakka otlandim. Mashinadan tushib shahar ko'chalarini keza boshladim. Eng ajablanarlisi, biron bir shifoxonaga duch kelmadim. Shunda ro'paramdan chiqqan bir kishiga yuzlandim.

– Assalomu-alaykum! Uzr, men bu yerlik emasman. Biroz mazam bo'lmayapti. Shifoxona qayerdaligini ayta olmaysizmi?

– Ajoyib odam ekansiz-ku, qaysi asrdan keldingiz yoki osmondan tushdingizmi? – dedi u.

– Yo'g'ey, XXI asrdan. Bizda kasalxonalar mavjud dedim bir oz iymanib.

– Ha mayli. Baxtingizga bugun vaqtim bor edi. Men nanotexnologman. Taxminan 100 yilcha avval texnologiyalar juda tez rivojlana boshladi. Odamlar organizmiga mikrochiplar yuborilib, shu tarzda odam tanasi nazoratga olindi. Bu chiplar kun davomida tana harorati, qon bosimi, yurak urishini nazorat qiladi.

– Odamlar bu shaharda hech ham kasal bo'lishmaydimi?

– Kamdan-kam hollarda. Chunki chiplar shunday xususiyatga egaki, organizmga kirgan virus, bakteriyalarga qarshi kurashadi va ular uyali aloqa orqali nazorat qilinadi.

– Demak, rivojlanish nanotexnologiyalarga, ya'ni chiplarga bog'liq ekan-da.

– Shunday desa ham bo'ladi. Hozirgi kunda immunitetni oshirish maqsadida ilmiy ishlarni olib bormoqdamiz.

– Hayot davomiyligi sizlarda qancha? – qiziqdim men.

– Hozircha taxminan 100-120 yil. Kelgusida texnologiyalar rivojlanishiga qarab odam umri ham uzayishiga umid qilib qolamiz.

– Katta rahmat vaqtingizni ajratganingiz uchun. Ishingizga omad tilayman! – deya minnatdorchilik bildirdim.

– Salomat bo'ling!

Shu tariqa biz xayrlashdik. Taassurotlar ostida o'z asringa qaytib kelganimni sezmay qoldim.

Nazorat savollari:

1. Qo'shimchalar necha turga bo'linadi?
2. So'z yasovchi qo'shimchalarning vazifalari nimalardan iborat?
3. Shakl yasovchi qo'shimchalarning vazifalari nimalardan iborat?
4. Shifoxona bu qanday muassasa?
5. Shifoxonaga kelgan bemor birinchi qaysi bo'limga uchrashishi kerak?
6. Shaxs otlarini yozing va so'z yasovchi qo'shimchalarining tagiga chizing.

9–MASHG'ULOT.

YIL FASLLARI

Yer Quyosh atrofida bir yilda bir marta aylanib chiqadi. Shu davrda u o'z sirtini quyoshga har xil vaziyatda tutib beradi. Quyosh osmonda baland ko'tarilganda uning nurlari yerga to'g'ri tushib, uni kuchliroq qizdiradi va Yer yuzi issiq bo'ladi. Quyosh uncha baland ko'tarilmay nurlari yerga qiyalab tushganida yerni paypaslab o'tib ketgandek bo'ladi va yer yuzi soviy boshlaydi.

Qishdan keyin bahor, bahordan keyin go'zal yoz keladi. Yoz o'zining haqiqiy kuchini ko'rsatadi. Kunlar juda isiydi, bolalar suvdan



chiqmay qolishadi. Biroq hademay kuz yaqinlashib, uning ba'zi bir alo-matlari paydo bo'la boshlaydi. Kunlar qisqarib, tunlar uzayadi. Asta-sekin daraxtlarning bargi sarg'ayib, to'kila boshlaydi. Hademay daraxt-lar yap-yalang'och bo'lib, shumshayib qoladi, tabiat yana qorni kuta boshlaydi. Shu tarzda fasllar almasha-almasha yil o'tadi. Azaldan bu jarayon takrorlangani takrorlangan. Ammo Yer sharining barcha joy-ida ham yil fasllarining bir-biridan farqi uncha sezilarli emas. Shimoliy va Janubiy qutblar atrofi yil davomida sovuq. U yerda quyosh chiqsa ham Yerni qizdirolmaydi. Ekvatorning ikkala tomonida, tropiklarda esa yilning hamma fasllari ham issiq, quyosh har doim tik turadi. Shuning uchun ham, bu yerlar quyosh issig'ini yaxshi qabul qiladi.

LUG'AT

Aylanmoq – кружиться

Vaziyat - ситуация

Qoq o'rtasi - прямо в середине

Hademay – вскоре

Qizdirmoq - раскалять

Sirt – поверхность

Alomatlar – признаки

Quyosh tutilishi – затмение солнца

Qutb – полюс

Topshiriq. Matnni o'qing.

Topshiriq. Matnga savollar tuzing.

Topshiriq. Yangi so'zlar bilan birikmalar tuzing va yozing. Ularni eslab qoling.

Ob-havoga oid so'z birikmalari va gaplar

Весна, лето, осень, зима	Bahor, yoz, kuz, qish
Год	Yil
Сегодня хорошая погода	Bugun havo yaxshi
Сегодня плохая погода	Bugun havo yomon
Сегодня солнечно	Bugun havo ochiq
Сегодня пасмурно	Bugun havo bulut
Сегодня тепло	Bugun kun issiq
Сегодня холодно	Bugun kun sovuq
Что сообщает бюро погоды?	Ob-havo byurosi nima deydi?
Какая будет завтра погода?	Ertaga ob-havo qanday bo'ladi?
Погода неустойчивая	Havo aynib turibdi

Дождливая погода	Yog'ingarchilik
Идет дождь, идет снег	Yomg'ir yog'yapti, qor yog'yapti
Стало тепло	Isib qoldi
Стало холодно	Sovuq tushib qoldi
Гром	Momaqaldiraq
Жара	Jazirama
Мелкий дождь	Mayda yomg'ir
Метель	Izg'irin
Молния	Chaqmoq
Мороз	Sovuq

Topshiriq. Yuqoridagi so'zlardan foydalangan holda bugungi kun ob-havosi haqida so'zlang. Ertangi kun ob-havosi haqida ma'lumot tayyorlang.

Topshiriq. Quyidagi maqollarning mazmunini tushuntiring va rus tilidagi muqobilini toping.

1. Bir daraxt kessang, o'n daraxt ek.
2. Daraxt bir yerda ko'karadi.
3. Har kim ekanini o'radi.
4. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar.
5. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.

Topshiriq. Namuna asosida dialoglar tuzing.

– Anvar, Toshkentdagi botanika bog'ida bo'lganmisan?

– Ha, bo'lganman, u juda katta bog'.

– Bog'ning senga nimasi yoqdi?

– U yerning havosi toza va yoqimli. Rang-barang chiroyli gullar, noyob o'simliklar, turli daraxtlar bor. U yer go'zal tabiatimizning boy va ulkan xiyoboniga o'xshaydi.

– Anvar agar havoda kislorod bo'lmasa, nima bo'ladi, bilasanmi?

– Albatta bilaman, odam bir daqiqa ham yashay olmaydi.

Sifat (Прилагательное)

<p>Predmetning belgisini bildirgan so'zlar sifat deyiladi. Sifat <i>qanday? qanaqa? qaysi?</i> savollariga javob beradi. Sifat ot bilan son va kelishikda moslashmaydi.</p> <p><i>Chiroyli uy, chiroyli uyga, chiroyli uylarda.</i></p> <p>O'zbek tilida sifatlar asliy va nisbiy bo'ladi.</p> <p>1. Asliy sifatlar: <i>oq, qizil, sariq, yashil, yaxshi, katta.</i></p> <p>2. Nisbiy sifatlar. Nisbiy sifatlar boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: <i>aql-aqlli, ish-ishchan, savod- savodsiz.</i></p> <p>Sifat gapda aniqlovchi, hol va kesim vazifasida kelishi mumkin.</p>	<p>Часть речи, которая обозначает признак или качество предмета, называется прилагательным. Прилагательные отвечают на вопросы <i>какой? какая? какое? который? которая? которое?</i></p> <p>Прилагательные в узбекском языке согласуются с существительными ни в числе, ни в падеже.</p> <p>В узбекском языке прилагательные бывают качественными и относительными.</p> <p>1. Качественные прилагательные: <i>oq, qizil, sariq, yashil, yaxshi, katta.</i></p> <p>2. Относительные прилагательные. Относительные прилагательные образуются из других частей речи: <i>aql-aqlli, ish-ishchan, savod- savodsiz.</i></p> <p>Прилагательные в предложении могут выполнять роль определения, обстоятельства и сказуемого.</p>
<p>Sifatning uchta darajasi bor:</p> <p>1. Oddiy daraja hech qanday qo'shimchaga ega emas. Masalan: <i>yaxshi, yomon, katta, kichik, keng, tor, qizil.</i></p> <p>2. Qiyosiy daraja sifatga <i>-roq</i> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <i>katta- katta+roq, yaxshi-yaxshi+roq, arzon- arzon+roq.</i></p>	<p>Прилагательные имеют три степени:</p> <p>1. Исходная степень не имеет никаких аффиксов. Например: <i>yaxshi, yomon, katta, kichik, keng, tor, qizil.</i></p> <p>2. Сравнительная степень образуется путем присоединения к прилагательным аффикса <i>-roq</i>.</p> <p>Например: <i>katta- katta+roq, yaxshi-yaxshi+roq, arzon- arzon+roq.</i></p>

3. Orttirma daraja – *eng, juda, bag'oyat* so'zlari yordamida yasaladi. Masalan: *eng kuchli, juda katta, g'oyat go'zal.*

3. Превосходная степень с помощью присоединения образуется слов *eng (самый), juda, g'oyat, bag'oyat (очень)* к качественным прилагательным. Например: *eng kuchli, juda katta, g'oyat go'zal.*

Sifatlarning yasalishi (Образование прилагательных)

Sifatlar asosan quyidagi qo'shimchalar va old qo'shimchalar yordamida yasaladi:

- li: sutli;
- siz: suvsiz;
- chan: talabchan;
- gi: kuzgi;
- k: pedagogik;
- choq: maqtanchoq;
- iy: ilmiy;
- dor: rangdor;
- g'in: ozg'in;
- qin: jo'shqin;
- ser-: serquyosh;
- be-: befarq;
- no-: noto'g'ri

Прилагательные в основном образуются при помощи следующих аффиксов и префиксов:

- молочный;
- безводный;
- требовательный;
- осенний;
- педагогический;
- хвастливый;
- научный;
- цветной;
- худой;
- возвышенный;
- солнечный;
- безразличный;
- неправильный



Mashq. Quyidagi predmet nomlari – otlarning belgi xususiyatini ifodalovchi so'zlarni toping, birgalikda ko'chiring.

Bino, bog', qishloq, shifokor, jigar, kitob, soch, mahsulot, yurak, ko'z, ko'ylak, bemor, qon, ichak, oyoq, sabzi, daraxt, gul, sigir, daryo.

Mashq. Sifatlarni toping va ularning darajalarini aniqlang.

1. Dunyodagi eng uzun daryolardan biri Nil daryosi hisoblanadi.
2. Salimning bo'yi Olimnikidan balandroq bo'lgani bilan u Olimdan ancha nimjon.
3. Ko'm-ko'k osmonda parday oppoq bulutlar suzib

yurishibdi. 4. Bizning eng katta xatomiz vaqt qadriga yetmasligimizdadir. 5. Bu xona shinam va qulay. 6. Quyosh botayotgan paytidagi manzara har doimgidan ham chiroyliroq ko'rindi. 7. Qo'rqoq xavf oldidan titraydi, rahmdil xavfni ko'rib titraydi, botir esa xavfdan so'ng.

Mashq. Quyidagi maqollardagi sifatlarni qo'yib chiqing.

1. so'z suyuntirar,

.....so'z kuyuntirar.

2.yuzingdan....

.....so'zing a'lo.

3..... gap bilan ilon inidan chiqar, gap bilan pichoq qinidan chiqar.

Mashq. Quyidagi so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling va ularning bir nechtasiga gap tuzing.

Молочная железа -

Глазное яблоко -

Двенадцатиперстная кишка -

Брюшная аорта -

Слепая кишка -

Поджелудочная железа-

Бедренная кость -

Костный мозг-

Грудная клетка -

Височная кость

Mashq. Berilgan ot turkumiga oid so'zlar quyidagi sifatlarning qaysi birlari bilan so'z birikmasini hosil qila oladi?

Ot: bemor, ob-havo, davo, uy

Sifat: mo'tadil, og'ir, yengil, quyoshli, shifobaxsh, yangi, past, baland.

Mashq. Nuqtalar o'rniga mos sifatlarni kerakli darajada qo'ying.

..... matematik Amper ko'chada misolni yechishni o'ylab bolar edi. Birdan u ... doskaga ko'zi tushib cho'ntagidan bo'ni olib misolni yecha boshladi.doska esa qo'zg'aldi. Amper yozuvini davom ettirdi. Atrofdagilarning kulgusi uning fikrini bo'ldi. Qarasa, yozayotgan doskasi izvoshning orqa tomoni ekan.

Mashq. Gaplarni ko'chiring, sifatlarning yasalishi va tuzilishini ayting.

1. Odobli, bilimdon, ishchan va mehnatsevar yigit har bir oilaning ko'rkidir. 2. Yozgi ta'tilni tamomlab, bilim yurtiga jo'nadim. 3. Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir. 4. Qishki sport saroyida yosh-yosh bolalar shug'ullanishmoqda. 5. Oqko'ngil, beg'araz do'stning qadriga yetish kerak. 6. Bilimsiz va hunarsiz kishi hayotda o'z o'mini topolmaydi.

Mashq. Quyidagi sifatlarning oddiy darajasini qiyosiy darajaga aylantiring.

Kuchli bo'lay desang chop.

Go'zal bo'lay desang chop.

Aqlli bo'lay desang chop.

Uzoq umr ko'ray desang chop.

Mashq. Sanalgan qaysi ranglar kasallik nomlarida uchraydi?

Ranglar: qora, oq, sariq, qizil, ko'k, jigarrang, kulrang, pushti.

Mashq. Keltirilgan otlarga mos sifatlarni toping va yozib chiqing.

Tosh, suv, gul

sochiq, ichak

qo'l, oyoq, mijoz

kasallik, dard

bo'y, uy, daraxt

deraza, kiyim

sut, daftar

globus, yo'l,

dengiz, haqiqat

do'st, pichoq

ish, uzuk

odam, qiz

katta, kichik

baland, past

novcha, pakana

keng, tor, yo'g'on

ingichka, semiz, oriq

chuqur, sayoz, og'ir

yengil, issiq, sovuq

quruq, ho'l, iflos

eski, yangi, o'tkir

o'tmas, to'g'ri

egri, qimmat, arzon

yosh, qari, chiroyli, xunuk

Mashq. Quyidagi soʻz birikmalarni tarjima qiling va ular ishtirokida gap tuzing.

Хорошее самочувствие больного, опытный врач, медицинская сестра, сильные боли, тяжелое состояние больного, давящая боль, спокойный ребенок, болезненная процедура, эффективное лечение, полезные советы.

Topshiriq. Berilgan soʻzlar yordamida gap tuzing. Soʻzlarni rus tiliga tarjima qiling.

Par, qattiq, muzli, sehrli, iforli, xushxoʻr, jarangdor, koʻlmakli, uyquchan, baland, yomgʻirli, gulli, saxiy, serquyosh, yam-yashil, yovuz, qahramon, begʻubor, koʻm-koʻk, bulutli, yoqimli, barra, nurli, charagʻon, oltin, zumrad.

Nazorat savollari:

1. Yoz faslida tabiatda qanday oʻzgarishlar sodir boʻladi?
2. Qish faslida tabiatda qanday oʻzgarishlar sodir boʻladi?
3. Oʻz ijodida tabiat, fasllar mavzusini aks ettiruvchi qanday rassomlarni bilasiz?
4. Qanday soʻzlarga sifat deyiladi?
5. Sifat qanday savollarga javob beradi?
6. Sifatning qanday darajalari bor?
7. Qiyosiy daraja qanday yasaladi?
8. Orttirma daraja qanday yasaladi?

10-MASHGʻULOT

ABU ALI IBN SINO

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur boʻlgan Abu Ali ibn Sino qomusiy olim sifatida oʻz davridagi fanlarning deyarli barchasi bilan shugʻullangan. Falsafa, tabobat, fizika, kimyo, matematika, geologiya, minerologiya, astronomiya, botanika, din tarixi, musiqa, sheʼriyat, filologiya va boshqa fanlarga oid asarlari allomaning buyuk isteʼdod sohibi va yirik qomusiy olim ekanligidan dalolat beradi. Ilmiy adabiyotlarda ibn Sino qalamiga mansub 450 dan ortiq

asar qayd etiladi.

Ibn Sino Buxoro yonidagi Afshona qishlog'ida tug'ildi, yoshligi ham shu yerda o'tdi. So'ng uning ota-onasi Buxoroga ko'chib keladi va u Buxoroda mavjud bo'lgan ilmiy muhit ta'sirida ko'p fanlar bilan qiziqib shug'ullanadi. Uning yoshligi va o'spirinlik yillari Buxoroda Somoniylarning hukmronlik davriga to'g'ri keladi. Bo'lajak olim saroyning boy kutubxonasidagi kitoblardan foydalanadi.

IX asr boshlarida ibn Sino Xorazm (Urganch)ga ko'chib keladi va shoh Ma'mun saroyidagi olimlar bilan tanishadi. Bu yerda ibn Sino Iroqiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu al-Xayr Xammar, al-Masihiy kabi olimlar davrasida ijod qilib, bir necha risolalar yaratadi. So'ng Janubda Mahmud Gaznaviy davlatining xuruji orta borishi bilan Eronga yo'l oladi. Eronning Gurgon, Ray, Isfahon kabi qator shaharlarida sarsonlikda kezib, 1037-yili 57 yoshida Hamadonda kasallikdan vafot etadi.

Ibn Sino Sharq va jahon xazinasiga tayanib, o'zining falsafa, tabobat va tabiat ilmlariga bag'ishlangan «Shifo kitobi» («Kitob ash-Shifo»), «Tib qonunlari» («Al-qonun fit-tib»), «Najot kitobi» («Kitob an-najot»), «Bilimlar kitobi» («Donishnoma») kabi yirik asarlarini yozdi. Ammo unga eng katta shuhrat keltirgan asar «Tib qonunlari» bo'ldi.

LUG'AT

qomusiy – энциклопедический
sifatida – в качестве
alloma - ученый, мыслитель
xolos – только лишь
muhit - среда

saroy - дворец
bozor - рынок
oshirtoq - увеличивать
qulamoq - падать
xazina - клад

Topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini gapirib bering.

Topshiriq. Matn asosida dialog tuzing.

Topshiriq. Quyidagi kelishik munosabatlariga asoslangan konstruksiyalarni to'g'ri joylashtiring va ko'chirib yozing.

Abu Ali ibn Sino	odam tana qismlari bir butunlikni hosil qilishi ta'kidlanadi
«Tib qonunlari»da	“Tib qonunlari” jahon tibbiyoti rivojiga katta hissa qo'shdi
Ibn Sinoning	Afshonada tug'ildi
Ibn Sino asablarni	tibbiyotga oid ko'pgina ma'lumotlarni olish mumkin
“Tib qonunlari”dan	ko'p o'rin ajratgan
Ibn Sino odam anatomiyasi masalasiga	o'ziga xos ta'riflaydi

Topshiriq. Rivoyatni o'qing, ma'nosini izohlang, ibn Sino haqida yana qanday rivoyatlar bilasiz? Ulardan birini rollarga bo'lib ijro eting.

Uch buyuk tabib

Bir tabib qattiq kasal bo'lib yotib qoldi. Uning shogirdlari yig'ilib ustozlarini davolashga kirishdilar.

Kasal ustoz ularga:

– Sevimli shogirdlarim, meni davolash uchun behuda zahmat chekmang, tuzalishdan umid uzganman, o'limim yaqin qolganga o'xshaydi. Vafot etganimdan keyin juda qayg'urib oh-voh qilmang, chunki o'rnimga uchta buyuk tabib qoldirib ketaman. Shu zo'r uch tabibning maslahatlariga hammangiz e'tibor bering va boshqalarni ham shunga da'vat qiling, – dedi.

Shogirdlardan biri:

– Bizlarning aziz ustodimiz, sizdan keyin o'ringizga qoladigan uchta tabib kimlar – deb so'radi. Ustod ko'zlarini ochdi, yonidagi shogirdlariga shunday javob berdi:

– Sizlarga so'zlaganim uchta zo'r tabibning birisi – poklik, ikkinchisi parhez, uchinchisi badantarbiyadir. Doimo pok, ozoda bo'lishlik, oz miqdorda ovqatlanish, badantarbiya bilan shug'ullanish – mana shularning hammasi salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralardir.

LUG'AT

shogird - последователь
behuda - зря
maslahat - совет
poklik - чистоплотность

parhez - диета
badantarbiya - гимнастика
salomatlik - здоровье

Ibn Sino odob-axloq to'g'risida

1) Abu Ali ibn Sino aytadi:

– Hayo – insonning abadiy go'zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi.

2) Bir donishmanddan so'radilar:

– Odam uchun yarashadigan kiyimlar ichida eng go'zali qanday kiyim? Donishmand javob berdi:

– Odam uchun yarashadigan eng go'zal kiyim bu – odob-axloq kiyimidir.

3) Abu Ali ibn Sino shunday deydi:

– Haqiqatni ochinglar, to'g'ri yo'ldan yuringlar. Bir-biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar.

4) Abu Ali ibn Sino aytadi:

– Mard kishi o'zini mehnat, riyozat bilan ko'rsatadi. Inson bilan yovvoyi hayvon orasidagi farq yaxshi axloq kasb qilmoqdadir.

Son (Имя числительное)

<p>Son predmetning miqdorini va sanoqdagi tartibini bildiradi. Son <i>qancha? necha? nechta? nechanchi?</i> savollariga javob beradi.</p> <p>Masalan: <i>besht, yigirma yettita, oltinchi, yettitadan.</i></p>	<p>Имена числительные обозначают количество или порядок предметов при счёте. Отвечают на вопросы <i>сколько? который?</i></p> <p>Например: пять, двадцать три, шестой, по семь</p>
<p>Sonlar ikki xil bo'ladi:</p> <p>I. Sanoq sonlar II. Tartib sonlar</p> <p>I. Sanoq sonlarning turlari:</p>	<p>Имена числительные бывают двух видов:</p> <p>I. Количественные числительные. II. Порядковые числительные.</p> <p>I. Разряды количественных числительных:</p>

<p>1. Dona sonlar. -ta: uchta, beshta, yettita;</p> <p>2. Chama sonlar. -tacha: beshtacha -larcha: minglarcha -lab: yuzlab</p> <p>3. Taqsim sonlar. -tadan: beshtadan, o'ntadan</p> <p>4. Jamlovchi sonlar. Birdan yettigacha bo'lgan sonlar -ov: uchov, to'rtov -ala: uchala, to'rtala qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.</p> <p>5. Kasr sonlar. 3/7 - yettidan uch, 1/2 - ikkidan bir</p> <p>II. Tartib sonlar. Tartib sonlar -nchi, -inchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: birinchi, ikkinchi.</p>	<p>1. Количественные обозначает количество. -та: uchta, beshta, yettita</p> <p>2. Приблизительные числительные. - тача: бештача -ларча: мингларча -лаб: юзлаб</p> <p>3. Разделительные числительные. -тадан: бештадан, саккизтадан</p> <p>4. Собирательные числительные образуются присоединением к числительным от одного до семи следующих аффиксов -ов: учов -ала: учала</p> <p>5. Дробные числительные. 1/2, 5/6</p> <p>II. Порядковые числительные образуются путём присоединения аффиксов -nchi, -inchi к числительным: биринчи, иккинчи.</p>
--	---

Topshiriq. Tarixiy asarlarda ushbu o'lchov birliklari uchrab turadi. Ularni bilib oling.


1 Pud – 16 kg	1 Botmon – 128 kg
Chorak 250 gr	1 tutam - 9 sm
1 Misqol – 4,1-4,4 gr	Nimcha – 2 kg
1 enlik - bir barmoq eniga teng	1 sotix - 100 metr kv
1 Qarich – 20 sm	Chaqirim – 1,5 k
1 Qadoq – 400 gr	Sari -2,5 kg

Mashq. Raqamlarni og'zaki ifodalang va so'z bilan yozing.
8, 15, 59, 34, 25, 47, 121, 353, 449, 668, 1656, 2078.

Mashq. Sanoq sonlardan tartib sonlar yasang, so'ngra ular ishtirokida gap tuzing.

yetti, o'n bir, ellik uch, sakson to'rt, bir yuz yigirma besh, uch yuz sakson olti.

Mashq. Gaplarni ko'chiring. Dona sonlar tagiga bir chiziq, chama sonlar tagiga ikki chiziq chizing.



1. Kechagi klinika shifokorlari yig'ilishida o'ttiztacha kishi bor edi. 2. Xonamizda o'n beshta kompyuter bor. 3. Madina biologiya fanidan beshta darsni qayta topshirdi. 4. Biz bu yil bahorda institutimiz hovlisiga elliktacha ko'chat o'tqazdik.

O'zbek tilida vaqt hisobi

Soat necha? Hozir soat necha bo'ldi?	- Сколько времени? Который час?
Soat bir.	- Час.
Soat uch yarim.	- Половина четвертого.
Soat to'rt dan o'n besh daqiqa o'tdi.	- Четверть пятого.
Soat o'n besh daqiqa kam uch.	- Без пятнадцати три.
Soat uchdan besh daqiqa o'tdi.	- Пять минут четвертого.

Mashq. Savollarga sonlar asosida javob bering.

1. Operatsiya soat nechada boshlanadi? (9)
2. Nechanchi yilda tug'ilgansiz? (1987)
3. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi qachon tashkil topdi? (2005)
4. Sizing uyingizga «Paxtakor» bekatidan nechanchi avtobus boradi? (53)
5. Katta yoshdagi odamning yuragi 24 soat mobaynida necha litr qon haydashi mumkin? (10000)
6. Yosh yigitning diastola bosimi qanchaga teng bo'ladi? (80)
7. O'nning yarmi necha bo'ladi?
8. 8,5 litr qonda qancha hujayra mavjud? (25 milliardcha)
9. Katta odam skeletida qancha suyak bor? (200 dan ortiq)
10. Ingichka ichak spiralsimon o'ralgan uzunligi qancha metrli naycha hisoblanadi? (6,5-7,5)

Mashq. Qavs ichidagi ma'lumotlarga asoslanib quyidagi konstruksiyalar bo'yicha savollarga javob bering.

Nima qanchadan ortiq?

Katta yoshdagi odamning skeleti necha suyakdan ortiq? (200 dan ortiq). Sut tishlari yig'indisi nechaga (20) teng? Katta yoshdagi odam tishlarining yig'indisi nechtaga (32) teng? O'pkaga havo xaltachalari orqali har soniyada qancha qon hujayralari o'tadi? (2 mlrd). Vabo kasalligidan nobud bo'lgan insonlar qanchani tashkil etadi? (1000).

Mashq. *Uch, besh, yetti, o'n* sonlarini avval miqdor son, keyin tartib son shaklida qo'llab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mashq. Gaplarni ko'chiring. Sonlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

1. Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. (Topishmoq) 2. Mening kitoblarim hammasi bo'lib yettita. 3. Opam bizga uzgan olmalaridan to'rttadan berdi. 4. Bir daraxtda o'n ikki shox, har shoxda o'ttiz yaproq, yaprog'ining bir yog'i qora, bir yog'i oq. (Topishmoq)

Mashq. Quyidagi gaplarni tarjima qiling. Sonlarni topib ularning turini aytib bering.

1. Bir ko'rgan yuz eshitgandan yaxshi. 2. O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qilig'i. 3. Ular beshovlon o'ta baland tog' tomonga ketishdi. 4. Uyining raqamini bilmayman-u, ammo chap tomondan sanaganda birinchi uy. 5. Minglarcha odam bu o'yinni ko'rish uchun stadionga yig'ildi. 6. Agar daftarlar soni ko'p bo'lmasa, hammamiz bittadan olamiz. 7. Bir butun yettidan birga uch butun yettidan ikkini qo'shsa necha bo'ladi?

Mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Общая протяженность всех сосудов около 100 тысяч километров. 2. Наш скелет образуют 206 костей, 85 парных и 36 непарных. 3. Самые маленькие кости организма человека – слуховые, их вес не превышает 0,05 грамма. 4. Время пребывания смешанной пищи в желудке взрослого человека примерно 6 часов. 5. В сутки в желудке образуется около 1,5 л желудочного сока. 6. Глаз способен различать 130-250 чистых цветовых тонов и 5-10 миллионов смешанных оттенков.

Nazorat savollari:

1. Nima uchun ibn Sinoni qomusiy olim deb atashgan?
2. Ibn Sino merosining qancha qismi bizgacha yetib kelgan?
3. Ibn Sinoning yoshlik yillari qayerda o'tgan?
4. Ibn Sinoning «Tib qonunlari» necha kitobdan iborat?
5. Son so'z turkumi qanday savollarga javob beradi?
6. Miqdor (sanoq) sonlar turlarini sanab bering.
7. Tartib sonlar qanday savollarga javob beradi?

11-MASHG'ULOT

DORISHUNOSLIK


Kasallikni davolash, uning oldini olish uchun har birimiz dorilardan foydalanamiz. Dorilar tayyorlashning besh turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar.

1. O'simliklardan olinadigan dorilar (alkaloidlar, glikozidlar).
2. Hayvon a'zolari va to'qimalaridan olinadigan dorilar (tiredin, insulin, lidaza va boshqa gormon preparatlari).
3. Mikroorganizmlardan, zamburug'lardan olinadigan dorilar (antibiotiklar).
4. Minerallardan olinadigan dorilar (tuzli surgi dorilar va boshqalar).
5. Kimyoviy laboratoriyalarda sintez yo'li bilan olinadigan dorilar.

Dorilar organizmga inyeksiya, me'da-ichak, nafas yo'li va teri orqali yuboriladi. Dorilar turli xilda: suyuq (qaynatma, tindirma, eritma, suspenziya va b.), yumshoq (surtma, liniment, krem, pasta va b.), qattiq (sochma, tabletka, draje, granula va b.) hamda alohida inyeksiya uchun ampula holda chiqariladi.

Dorishunoslik bilan tibbiyotning farmakologiya fani shug'ullanadi. Dorilarni ta'riflashda ta'siriga, ishlatiladigan o'rni, ishlatish usuli, dozalariga, shu bilan birga dorilarning nojo'ya ta'sirlariga, qo'llab bo'lmaydigan hollariga e'tibor berish kerak. Ba'zi bir dori moddalarini statsionar sharoitdagina ishlatish lozimligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Dori moddalarni organizmga yuborish yo'llari:





LUG'AT

o'rta tibbiyot xodimlari - средний медицинский персонал

tarqatmoq - раздавать

taqozo etmoq - предоставлять

faollik - активность

zarar - вред

Topshiriq. Matnning mazmunini so'zlab bering.

Topshiriq. Dorivor o'simliklardan birini tanlang va uning shifobaxsh xususiyati haqida matn tuzing.

Topshiriq. Quyidagi dialogni o'qing.

Dorixonada - В аптеке

— Assalomu alaykum!

— Vaalaykum assalom!

— Sizda analgin yo sitramon bormi?

— Bor.

— Menga analgin bersangiz.

— Xo'p bo'ladi. Yana nima kerak?

— Yana ko'k dori, paxta va bint ham bersangiz. Kechirasiz harorat olchagich ham bering. Qancha bo'ladi?

— Bir ming bir yuz yetmish besh so'm.

— Mana bir yarim ming.

— Marhamat, qaytimini oling.

— Rahmat.

Dorixonaga oid so'zlar

dorixona - аптека

qattiq dorilar – таблетки

eritmalar - раствор

kukun - порошок

tayyor dorilar bo'limi - отдел готовых лекарств

harorat o'lchagich - термометр

bog'lov materiallari - перевязочные средства

retseptura bo'limi - рецептурный отдел

Olmosh va uning turlari, gapda qo'llanilishi, vazifalari**Olmosh – Местоимение**

<p>Ot, sifat, son o'rnida qo'llaniladigan so'zlar turkumi <i>olmosh</i> deyiladi. Olmosh quyidagi turlarga bo'linadi:</p> <p>1. <i>Kishilik olmoshlari</i>: men, sen, u, biz, siz, ular.</p> <p>2. <i>O'zlik olmoshi</i>: o'z.</p> <p>3. <i>Ko'rsatish olmoshlari</i>: bu, shu, u, o'sha, ana, mana.</p>	<p>Часть речи, которая употребляется вместо существительного, прилагательного и числительного, называется <i>местоимением</i>. Местоимения делятся на следующие разряды:</p> <p>1. <i>Личные местоимения</i>: я, ты, он (она), мы, вы, они.</p> <p>2. <i>Возвратные местоимения</i>: сам (сама), себя.</p> <p>3. <i>Указательные местоимения</i>: это (этот), тот, вот.</p>
<p>4. <i>So'roq olmoshlari</i>: kim? nima? qanday? qaysi? necha? nechta?</p>	<p>4. <i>Вопросительные местоимения</i>: кто?, что? какой? (какая, какое?) который, сколько?</p>
<p>5. <i>Gumon olmoshlari</i>: kimdir? allakim? nimadir? allanima? qaysidir, allanima? allaqancha? bir qancha?</p>	<p>5. <i>Неопределенные местоимения</i>: кто-то? что-то? какой-то? сколько-то? несколько?</p>
<p>6. <i>Bo'lishsizlik olmoshlari</i>: hech kim, hech nima, hech qachon, hech qaysi</p>	<p>6. <i>Отрицательные местоимения</i>: никто, ничто, никогда, никакой</p>

7. Belgilash olmoshlari:

har kim, har nima, har bir,
hamma, barcha, bari, ba'zi

7. Определительные местоимения:

каждый (каждая, каждое), все, всякий, всякая, некоторый (некоторая)ю

Mashq. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlarini qo'yib ko'chiring.

1. barcha kasblar orasida o'qituvchilik va shifokorlik kasbini eng olijanob kasb deb bilaman. 2. hayotingni xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham, bemorga yordam berishga shoshilishingni bilaman. 3. Otam-shifokor, 5-bolalar kasalxonasida ishlaydi. 4. hidni qay yo'sinda idrok qilamiz? 5. Diyora, Parizod va Shahnoza - talabalar, Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida o'qishadi.

Mashq. Quyidagi mashqni ko'chiring. Olmoshlarni topib, ularning turlarini aniqlang.

1. Insonni hech nima vijdon azobi kabi qiynamasa kerak. 2. Men do'stimning xatolarini o'z vaqtida yuziga aytmaganim uchun haligacha o'zimni ayblayman. 3. Allakimlar aytgan gaplarga ishonib, ko'zing bilan ko'rmagan narsa haqida fikr bildirish odobdan emas. 4. Men doim shu yo'ldan o'tganimda og'ir kunimda yordam bergan o'sha odamni uchratamanmi deb atrofqa qarab qo'yaman. 5. O'zingga nimani ravo ko'rsang, o'zgaga ham shuni ravo ko'r. 6. Shuni esda tutish lozimki, har bir kishi, u kim, qaysi kasbni egallashidan qat'iy nazar jamiyatning bir bo'laki.

Mashq. Latifani o'qing. Uni tarjima qilib, olmoshlarni toping.

Bir kuni o'z sog'ligiga nihoyatda e'tiborli kishining qo'li ozgina kesilib ketadi. Shunda u o'sha atrofdagi mashhur shifokorni tezda chaqirtiradi. Birpasda yetib kelgan shifokor jarohatni ko'rib unga shunday deydi: "Tezda o'g'lingizni yod surtmasiga dorixonaga yuboring, bo'lmasa..."

- Bo'lmasa nimadir bo'ladimi? -xavotirga tushdi bemor.

- Albatta - dedi shifokor xotirjam ohangda, - bo'lmasa yarangiz tuzalib qoladi.

Mashq. Ajratilgan so'zlar o'rniga kishilik va ko'rsatish ol-


moshlarini q o'yib chiqing.

1. Sukut insonning eng harir libosidir. 2. Anora va Shahnozalar bugun tibbiy ko'rikdan o'tishdimi? 3. Bilmagan narsalarimni oyog'im ostiga qo'yganimda boshim ko'kka yetardi. 4. Jamolliddin bilan birga poliklinikaga bordik. 5. Kishi farosatda qancha nogiron, aybini oqlashda shuncha bilag'on. 6. Do'stimning yozgan xatiga javob yozdim. 7. Kim ari nishiga qilolmas toqat, asalni ko'radi uzoqdan faqat. 8. Mirjalol qizamiqqa qarshi emlandi. 9. Kim aybingni aytsa, u do'sting, ishon, kim yashirib yursa –zaharli ilon.

Topshiriq. Quyida keltirilgan rus tilidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, krossvordni yeching.

Eniga: 1.Маска 2.Вкладыш 3.Упаковка 4.Раствор 5.Отвар 6.Норма 7.Инструмент 8. Марля 9. Рекомендация 10.Горчичник

Во'yiga: 11.Побочное действие 12.Лекарство 13. Порошок 14.Вата 15.Капля



Nazorat savollari:

1. Dori tayyorlashning nechta turi mavjud va ular qaysilar?
2. Dori moddalari organizmga qaysi yo'llar bilan yuboriladi?
3. Dorilarni ta'riflashda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Qaysi dorilar suyuq dorilar tarkibiga kiradi?
5. Olmosh so'z turkumi deb nimaga aytiladi va uning qanday turlari bor?
6. Qaysi olmoshlar kishilik va o'zlik olmoshlariga kiradi?

7. Qaysi olmoshlar ko'rsatish va so'roq olmoshlariga kiradi?
8. Qaysi olmoshlar gumon va bo'lishsizlik olmoshlariga kiradi?
9. Qaysi olmoshlar belgilash olmoshlariga kiradi?

12-MASHG'ULOT

ULUG' AJDODLARIMIZ ABU RAYHON BERUNIY

Abu Rayhon Beruniy o'rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan biri. U 973-yili Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida taval-lud topdi. Zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi, o'sha paytlar Buxoroda yashayotgan bo'lajak olim Abu Ali ibn Sino bilan yozishmalar orqali ilmiy muloqotda bo'ldi. U ona tilidan tashqari arab, sug'diy, fors, yunon tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rgandi. Xorazmdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi natijasida Beruniy 998-yili Jurjon shahriga ketishga maj-bur bo'ldi. Olimning mashhur asarlaridan biri «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» uning Jurjon saroyida xizmat qilgan davrida yaratildi. «Minerologiya» va «Farmakognoziya» kitoblarining har biri mazkur sohalardagi betakror asarlardan bo'lib, jahon madaniyat-ining noyob durdonalaridan hisoblanadi.

Olim yozib qoldirgan 160 dan ortiq asarlari bilan astronomiya, as-trologiya, matematika, geodeziya, geologiya, minerologiya, geografi-ya, arifmetika, tabobat, farmakognoziya, tarix, filologiya va boshqa fanlarning rivojiga noyob hissa qo'sha oldi.

Abu Rayhon Beruniy 1048-yili G'azna shahrida vafot etdi.

LUG'AT

tavallud topmoq - родиться
yoshlik - молодость
o'tkir - острый
safar - путешествие
oqqa ko'chirmoq - переписывать

odamoxunlik - человеколюбие
yod bilmoq - знать наизусть
takrorlanmoq - повторяться
qorong'i - тёмный

FE'L. BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ FE'LLAR

Fe'l (Глагол)	
<p>Predmetning ish harakatini yoki holatini bildirgan so'zlar <i>fe'l</i> deyiladi. Fe'llar <i>nima qildi? nima qilyapti? nima qil-moqchi?</i> savollariga javob beradi.</p>	<p>Слова, обозначающие действие или состояние предмета, называется <i>глаголом</i>. Глаголы отвечают на вопросы <i>что сделал? что делает? что будет</i></p>
<p>Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakli, tuzilishiga ko'ra turlari</p>	<p>(Положительная и отрицательная форма глагола, глаголы по структуре)</p>
<p><i>Bo'lishli fe'llar</i> – ish-harakatning bajarilishini bildiradi. Masalan: <i>yoz, boshla, o'yla, so'zla, ishla.</i></p> <p><i>Bo'lishsiz fe'llar</i> – ish-harakatni ta'qiqlashni yoki bajarilmaslikni bildiradi. Bo'lishsiz fe'l o'zagiga <i>-ma</i> qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: <i>yoz-ma, ishla-ma, o'qi-ma, gapir-ma.</i></p>	<p><i>Утвердительная форма</i> глагола выражает выполнения действия. Например: <i>yoz, boshla, o'yla, so'zla, ishla.</i></p> <p><i>Отрицательная форма</i> глагола выражает запрещение или отрицание действия и образуется путём присоединения к основе глагола аффикса <i>-ma</i>. Например: <i>yoz-ma, ishla-ma, o'qi-ma, gapir-ma.</i></p>
<p>Tuzilishiga ko'ra fe'llar <i>sodda</i> va <i>qo'shma</i> bo'ladi.</p> <p><i>Sodda fe'llar</i> faqat bitta so'zdan tashkil topadi. Masalan: <i>kel, tur, bor.</i></p> <p><i>Qo'shma fe'l</i> ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topadi. Masalan: <i>o'qib chiqmoq.</i></p> <p>Fe'llar yasalishiga ko'ra <i>tub</i> va <i>yasama</i> bo'ladi.</p> <p><i>Yasama fe'llar</i> boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasovchi qo'shimcha orqali yasaladi. Masalan: <i>ish-la, son-a-sana, so'z-la, foyda-lan.</i></p>	<p>По структуре глаголы бывают <i>простые</i> и <i>сложные</i>.</p> <p><i>Простые глаголы</i> состоят только из одного слова: <i>kel, tur, bor.</i></p> <p><i>Сложные глаголы</i> состоят из двух или более слов. Например: <i>o'qib chiqmoq, gapirib bermoq.</i></p> <p>По слово образованию глаголы бывают <i>непроизводными</i> и <i>производными</i>.</p> <p><i>Производные глаголы</i> образуются при помощи глаголообразующих аффиксов. Например: <i>ish-la, son-a-sana, so'z-la, foyda-lan.</i></p>

Topshiriq. Улуғ аждодларимизнинг одоб-ахлоқ уюки инсон фазилатларига оид со'зларини изохлаб беринг. Fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shaklini toping.

Bir donishmanddan so'radilar:

– Qanday alomatlar odamning baxtli ekanligidan dalolat beradi?

Donishmand aytadi:

– Halol mehnat, saxiylik, g'ayrat, ochiq yuzlilik va shirin so'zlilik baxtli odam alomatlaridir.

Yana undan so'radilar:

– To'g'ri yo'lda yurgan tarbiyasiz farzand nimaga o'xshaydi?

– Bunday farzand ortiqcha o'sgan barmoqqa o'xshaydi. Uni kesib tashlamoqchi bo'lsang, og'riydi, o'z joyida qoldirsang, bedavo bo'lib turaveradi.

Bir donishmand go'zal xulqli, odobli, lekin juda xunuk chehrali bir yigitni ko'rib, unga dedi:

– Ey yigit, sening go'zal xulq va odobing xunukligingni yuvib yubordi.

Farididdin Attor aytadi:

– To'rt narsani to'rt narsadan, ya'ni dilni hasaddan, tilni yolg'on va g'iybatdan, qilgan ishingni munofiqlikdan va qorningni harom-xarishdan pok tut, shundagina chin odam hisoblanasan. Ey o'g'il, hech vaqt dilozor bo'lma, dilozorlik bir kun falokat keltiradi, mutakabbir bo'lishdan o'zingni saqla. Takabburlik – johillar odati, aqlli odamlar mutakabbir bo'lmaydilar.

Olim va fozil Nizomiddin bir yigit qarindoshiga nasihat qilib aytadi:

– Ey yigit, farzandlaringni erka qilib o'stirma, ishga, mehnatga o'rgat. Agar farzandlaringda aql, odob, hunar bo'lmasa, seni hech kim yaxshi nom bilan yod etmaydi. Mol-davlatingga mag'rur bo'lib, bolalaringni hunarsiz, odobsiz etib yetishtirsang, uni baxt-saodatdan mahrum etgan bo'lasan. Chunki hunarsiz, odobsiz bolalaring sendan keyin qoldirgan butun boyligingni yo'q yerlarga sarf etib, oxirida muhtojlikda qoladilar, kulfat, mashaqqat yuklari ostida eziladilar. Agar noming xalq orasida hurmat bilan yod etilishini istasang, oilangning doimiy rohatini ko'zlasang, bolalaringga go'zal tarbiya ber, biron hunar egasi qilib yetishtir. Ularning yurish-turishlarini tekshirib tur, yomon odamlardan uzoq bo'lsinlar, yaxshilar bilan suhbat-



dosh bo'lib, ulardan bahra olsinlar.

Topshiriq. *Quyidagi kasalliklar belgilarini o'qing va ular qaysi kasallik alomatlari ekanligini aniqlang. Bo'lishli, bo'lishsiz fe'llarni belgilang.*

1. Ushbu kasallikda harorat ko'tariladi, toshma toshmaydi, tomoq og'rimaydi, ko'z qizarmaydi, sarg'ayadi, ko'ngil ayniydi, siydik sarg'ish rang oladi.

Bu qanday kasallik?

2. Bu kasallikda bola injiq, serzarda bo'ladi, ichi ketmaydi, harorat ko'tarilmaydi, toshma toshmaydi. Kindikda og'riq bo'ladi, orqa chiqaruv teshigi atrofi qattiq qichishadi, uyqusida tishlarini g'ijirlatadi.

Bu qanday kasallik?

3. Mazkur kasallik yuqumli. Tana harorati ko'tarilmaydi, ahlatda yiring bo'lmaydi, bolaga toshma toshadi, kun sayin u ko'payadi, oyoq osti va qo'lning kaftida toshma bo'lmaydi, ichi ketmaydi, toshma 21 kunda yo'qoladi.

Bu qaysi kasallik?

4. Bu kasallikda bemor rangi siniqib, ko'zlarining tagida ko'kish soyalar paydo bo'ladi, darmonsizlanadi. Yo'tal biroz balg'amli bo'ladi. Bemor hansiraydi, lablari ko'karadi, kislorod yetishmaydi.

Gap qaysi kasallik haqida ketyapti?

Mashq. O'qing. Rivoyatdagi fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shaklini ko'rsating.

Amir Temur

Deydilarki, Sohibqiron yetti yoshligida otasi bilan bir qarindoshinikiga bordi. Ul kishi badavlat, nufuzli kishi edi va farovonlik bilan kun kechirardi. Uning yetmishta turk va hind quli bor ediki, uning mollarini shundan bilsa bo'lardi.

O'sha kishi Sohibqironning otasiga shikoyat qildi: "Xudo menga mol-u davlat berdi, lekin uni saqlashga tamoman ojizman. Qullarimiz sabr-u toqatli emaslar, farzandlarim esa salohiyatsiz. Shu sababdan mol-u dunyomga nuqson yetmasa deb qo'rqaman".

Sohibqiron gapga aralashdi va dedi: – Ey ota! Farzandlaringga

mollaringdan bo'lib ber va undan so'ng ularni o'z mol-u mulkiga doxil qilginkim, ular o'z-o'zi bilan ovora bo'lsin. So'ng turk qullarini hind qullarining tepasiga qo'yginki, hindlarni o'z amri farmoniga bo'ysundirsinlar. Keyin har uch qulni topshir. So'ng ularning har birini yettitadan qulning amiri qil. Keyin yetmish qulga bosh bo'lgan yettita qulni bir-birining ta'zim va tashrifiga buyur. Ularni ko'zdan qochirma".

O'sha kishi darhol amir Tarag'ayga dedi: "... Sening bu farzanding jahonga podshoh bo'ladi, chunki buni uning shu gaplaridan fahmlab turibman...". (Abdurazzoq Samarqandiy)

Mashq. Quyidagi so'zlarning har biriga ikkitadan gap tuzing. Birinchi gapda bu so'z fe'l, ikkinchi gapda esa ot so'z turkumi bo'lib kelsin.

Namuna: Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmi? Olma temir moddasiga boy.

Olma, isitma, damlama, surtma, qaynatma, eritma, burama, aylanma, tortma, yig'ma, terma, tindirma, o't, sochma, quyma, yasama, ulama, cho'zma, terlama, tut, kul, o'sma, kesma, suzma, o'rama, dimlama.

Mashq. Quyidagi maqollarda nuqtalar o'rniga qavs ichidagi fe'lning bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklini qo'yib ko'chiring.

1. Yolg'iz otning changi, changi chiqsa ham dong'i (chiqmoq).
2. Jiyan-tog'a el, yakka tomchi sel (bo'lmoq).
3. Bo'shamasa til g'iybatdan, dil uqubatdan (bo'shamoq).
4. Bilimlining bilimi, bilimsizning nimasi (yuqmoq).
5. Chaqirilmagan joyga, chaqirilgan joydan(qolmoq, bormoq).
6. Sevgi pulga (sotmoq), ko'ngil pulga(topmoq).
7. Yolg'on-yashiq, so'ng uyalib(o'tirmoq, gapirmoq).
8. Do'stingni, yo'ldan qolar, dushmani(saqlamoq) siring olar.
9. Vaqtning qadrini (bilmoq) o'z qadrini bilmas.
10. Yo'qolgan bisot, yo'qolgan baxt(topmoq).

Mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling, fe'llarni toping.



1. По мнению писателей, философов, самих медиков, врачу, в первую очередь, необходимы знания по медицине и доброжелательное отношение к людям. 2. Врач наблюдает за состоянием больного. 3. Эта теория разрабатывается в хирургических клиниках. 4. Профессор оперирует вместе с ассистентами. 5. Профессор руководит работой молодого врача. 6. Студенты слушают профессора с интересом.

Mashq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling va fe'lning bo'lishsiz shakli ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

1. Yangi tug'ilgan bolalarda orqa miya ancha rivojlanmagan bo'ladi. 2. Bu yerda avval qishloq shifokorlik punkti bo'lmagan edi. 3. Men sizni oldin ko'rmagan ekanman. 4. Guruhimiz talabalari «Sihat-salomatlik» jurnaliga obuna bo'ldilar. 5. Professor darsi tugagach ko'pchilik kabi menda ham neyroxirurg bo'lish istagi paydo bo'ldi. 6. Inson salomatligini o'ylash davlatimiz siyosatining eng yuqori darajasiga ko'tarildi.

Mashq. Gaplarni tarjima qiling. Fe'llarni kerakli shaklda yozing.

1. Uyqu paytida biz atrofimizda nima bo'layotganligini angla.....miz. 2. Odamlarning aksariyati uzoq yashashni istaydilar, qarishni xohla....dilar. 3. Hamma ham bir xil qari.....di, ammo yosh o'tib borgan sayin ma'lum o'zgarishlardan qutulib bo'lmaydi. 4. Qarish jarayonida oshqozon traktida oshqozon shirasining miqdori kama...di. 5. Ko'p hollarda tepki bilan og'rib tuzalgan kishi tepkiga qarshi immunitetga ega bo'l...di. 6. Bo'g'ma kasalligi bilan ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalar ko'proq xastalan....dilar. 7. Xol dog'larining ko'pi tug'ilishdan oldin yoki tug'ilgan zahoti paydo bo'ladi, ammo ba'zi hollarda ular 14-15 yoshgacha ko'zga tashlan...di.

Mashq. Qavs ichida berilgan fe'llarni bo'lishli shaklda yozing.

1. Vadim va Inna har kuni kamida bir soat o'zbek tili bilan (shug'ullanmoq). 2. Kursdoshim dam olish kunida baliq oviga borgani haqida (so'zlammoq). 3. Bosh miya buyrug'iga binoan tish ovqatning



ma'lum bir qismini (tishlamoq) va so'lak bilan namlangan ovqatni (chaynamoq) so'ngra ovqat bo'g'izga, keyin esa qizilo'ngachga (o'tmoq). 4. Yog'lar o'simliklar va hayvonlar organizmi tarkibiga suyuq yoki qattiq holatda (kirmoq). 5. Yog'lar, uglevodlar va oqsillar ovqatning uchta asosiy turi (hisoblanmoq).

Topshiriq. "Shifokor qanday bo'lishi va qanday bo'lmasligi kerak" jadvalini to'g'ri to'ldiring.

Shifokorning so'zi bemor davolanishida	<i>har doim muhim rol o'ynaydi.</i>	<i>har doim ham muhim rol o'ynamaydi, tashxis to'g'ri bo'lsa bas.</i>
Kiyimlarni pala-partish kiyish, xalatning iflosligi, timoqlarning kirligi va o'sib ketganligi	<i>tibbiyot xodimlari faoliyatida yo'l qo'yib bo'lmaydigan holatlardir.</i>	<i>tibbiyot xodimlari faoliyatida uchrab turadigan holatlardir.</i>
Tibbiyot xodimining tashqi qiyofasi	<i>katta ahamiyat kasb etadi.</i>	<i>unchalik muhim emas.</i>
Ba'zan tibbiyot xodimlarining o'ylamasdan aytib yuborgan so'zlari	<i>bemorda kasallik chaqiradi, bu yatrogeniya deb ataladi.</i>	<i>bemorda hech qanday kasallik chaqirmadi.</i>
Agar bemorda onkologik kasallik bo'lsa, uning tibbiy yordamga kech kelganini, kasallikning o'tib ketganini va uni davolash qiyinligini achinish yoki afsus bilan aytish, yuz ko'rinishida ifoda qilish	<i>shifokorning burchidir.</i>	<i>umuman mumkin emas.</i>
Tibbiyot xodimlari uchun suv bilan havodek zarur narsa – bu...	<i>xushmuomalalik va odoblilik.</i>	<i>tibbiy bilimdir.</i>

Tibbiyot xodimlari odatda tezda	<i>ko'ngli og'riydigan va bemorlarni har bir so'zini o'ziga og'ir oladigan bo'lib qoladilar.</i>	<i>bemorning keraksiz so'ziga e'tibor bermaydilar.</i>
Bemor oldida nimaiki gapirilsa,	<i>xotirjamlik, vazminlik bilan ehtiyotkorona gapirilishi lozim.</i>	<i>hech narsani bekitmasdan, faqat haqiqatni aytish lozim.</i>

Nazorat savollari:

1. Abu Rayhon Beruniy nechanchi asrlarda yashagan?
2. Olim ona tilidan tashqari yana qaysi tillarni o'rgangan?
3. Beruniyning Jurjon shahriga ketishiga nima sabab bo'lgan?
4. Beruniy qaysi tillar rivojiga katta hissa qo'shgan?
5. Fe'l so'z turkumi deb nimaga aytiladi?
6. Fe'l so'z turkumining asosi qanday topiladi?
7. Bo'lishli fe'l deb nimaga aytiladi?
8. Bo'lishsiz fe'l deb nimaga aytiladi?

13-MASHG'ULOT

“TEZ TIBBIY YORDAM CHAQIRISH”

O'z vaqtida ko'rsatilgan “Tez tibbiy yordam” ko'pincha baxtsiz hodisalar tufayli shikastlangan bemorlar hayotini saqlab qolish imkonini beradi. Inson salomatligi bilan bog'liq turli ko'ngilsiz voqealar aksariyat holatlarda kutilmaganda ko'cha-ko'yda, ishlab chiqarish korxonalarida, transport vositalaridan foydalanayotganda sodir bo'ladi. Bunday vaqtda bemorning hayoti tez ko'rsatilgan tibbiy xizmatning sifatiga bog'liq bo'ladi.

“Tez va shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatish” stansiyalari bir yilda bo'ladigan chaqiriqlar soniga qarab toifalarga bo'linadi.

Jarohatlanganlar transport vositalari yordamida tashiladi. Zambil yordamida tashxis eng xavfsiz va samarali usul hisoblanadi. Gorizont tal tekis joyda transportirovka qilishda bemorning oyoq sohasi old tomonda bo'ladi. Yuqoridan pastga tushishda shikastlanganning oyoq sohasi pastda, aksincha, yuqoriga ko'tarilayotganda esa bosh sohasi oldinda bo'ladi. Bosh suyagi, umurtqa pog'onasi shikastlanganlar,

og'ir yaralanganlar pastki qatorga joylashtiriladi. Baxtsiz hodisa ro'y berganda shikastlangan ko'p bo'lsa, tez tibbiy yordam ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxs quyidagilarni bajarishi kerak:

- shikastlanish turi bo'yicha jarohatlanganlar guruhini tuzish;
- hayotiy ko'rsatmalar bo'yicha tez tibbiy yordam ko'rsatish;
- jarohatlanganlarni ularning holati va jarohati darajasidan kelib chiqib, zudlik bilan davolash muassasalariga yuborish.

Zamon kategoriyasi

(Категория времени глагола)

O'zbek tilida fe'lning uchta zamoni bor (Глагол в узбекском языке имеет три времени):

FE'L ZAMONLARI		
Hozirgi zamon fe'li (настоящее время глагола)	O'tgan zamon fe'li (прошедшее время глагола)	Kelasi zamon fe'li (будущее время глагола)
Aniq hozirgi zamon fe'li	Aniq o'tgan zamon fe'li	Kelasi zamon maqsad fe'li
Hozirgi-kelasi zamon fe'li	Yaqin o'tgan zamon fe'li	Kelasi zamon gumon fe'li
	O'tgan zamon hikoya fe'li	
	Uzoq o'tgan zamon fe'li	

Hozirgi zamon fe'li (Настоящее время глагола)

<p>Hozirgi zamon fe'li nutq so'zlanayotgan paytda sodir bo'layotgan ish-harakatni bildirib, nima qilyapti?, nima qilmoqda? savollariga javob beradi. Fe'l o'zagiga -yap-, -moqda- va tuslanish qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Hozirgi zamon fe'li quyidagi shakllarga ega:</p> <p>1. Aniq hozirgi zamon fe'li 2. Hozirgi-kelasi zamon fe'li</p>	<p>Настоящее время глагола обозначает действие, которое совершается в момент речи и отвечает на вопросы нима қияпти?, нима қилмоқда? Образуется присоединением к основе глагола аффикса -yap-, -moqda- и личных аффиксов спряжения. Настоящее время глагола имеет следующие формы:</p> <p>1. Настоящее время данного момента 2. Настоящее-будущее время глагола</p>
<p>Aniq hozirgi zamon fe'li</p>	<p>Hozirgi-kelasi zamon fe'li</p>
<p>Men yozyapman (yozmoqdaman) Sen yozyapsan (yozmoqdasan) U yozyapti (yozmoqda) Biz yozyapmiz (yozmoqdamiz) Siz yozyapsiz (yozmoqdasiz) Ular yozyaptilar (yozmoqdalar)</p>	<p>Men o'qiyman, yashayman Sen o'qiysan, yashaysan U o'qiydi, yashaydi Biz o'qiyimiz, yashaymiz Siz o'qiysiz, yashaysiz, Ular o'qiydilar, yashaydilar</p>

Topshiriq. *“Kim nima qilmoqda?”, “Kim nima qiladi?” texnologiyasi bo'yicha aniq hozirgi zamon va hozirgi-kelasi zamon fe'llarini yasang.*

kim?	nima qiladi?, nima qilmoqda?
bosh shifokor xodimlarga	vazifa bermoq
biolog ish jarayoniga	tayyorlanmoq
pediatr bolaning ahvolini	tekshirmoq
hamshira muolaja	o'tkazmoq
donorlar qon	topshirmoq

Topshiriq. *Quyidagi reja bo'yicha "Shifokorning bir kuni" mavzusida matn tuzing. Unda hozirgi-kelasi zamon fe'llarini qo'llang. Bunda "Shifokor nima qiladi?" degan savol qo'ying.*

Shifokorning bir kuni

- * Shifokorning ish kuni majlis bilan boshlanadi
- * Majlisda navbatchi shifokor bemorlar haqida ma'lumot beradi
- * Shifokor asbob-uskunalarining sozligini tekshirib, ularni ish jarayoniga tayyorlaydi.

Topshiriq. "Kim nima qilmoqda?", "Kim nima qiladi?" texnologiyasi bo'yicha savollarga hozirgi zamon fe'lini qo'llagan holda to'g'ri javob toping.

Shifokor nima qilmoqda?	operatsiya qilmoqda
Jarrohlar nima qilmoqdalar?	tahlil
Stomatolog nima qilyapti?	ko'rikdan o'tkazish
Talabalar nima qilishyapti?	tekshirish
Pediatr nima qilyapti?	kuzatish
Rentgenologlar nima qilishyapti?	tashxis qo'yish
Ayollar shifokori nima qilmoqda?	tinglamoq
Oilaviy shifokor nima qilmoqda?	anamnez yig'ish
Tibbiyot xodimi nima qilmoqda?	niqob almashtirish

Topshiriq. *Quyidagi yumorni o'qing. Matbuot va adabiyotlardan shunga o'xshash tibbiyotga oid qiziqarli ma'lumotlarni topib gapirib bering.*

"Tez yordam"ga tez yordam

Bir kuni "Mo'jizalar maydoni"ning mashhur boshlovchisi Leonid Yakubovichning tobi qochib, "Tez yordam"ni chaqirdi. Chaqiriq bo'yicha kelgan shifokor eshikni ochgan mashhur boshlovchini ko'rib hayajondan hushidan ketib qoldi. Uni uyiga olib kirib yotqizgach, Leonid Yakubovich yana 03 ni tera boshladi. "Biz shifokorni yubordik" deganda, Yakubovich o'sha shifokorga tez yordam kerak, u uyimda hushidan ketib yotibdi, deb javob beradi.

Mashq. Nuqtalar o'rniga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha jadvalning o'ng ustunidan mos javoblarni toping.

Yuqori harorat yoki kimyoviy moddalar ta'sirida to'qimalarning jarohatlaniishi	uning kiyimlari ehtiyotlik bilan yechiladi.
Barcha turdagi kuyish	kiyimlar qirqib olinadi.
Ko'p joy qattiq kuyganda	sterillangan toza choyshabga o'raladi.
Agar bemor olov ta'sirida kuygan bo'lsa	aseptik paxta – doka bog'lab qo'yish kerak.
Og'riqni kuchaytirmaslik uchun	og'riq bilan o'tadi.
Kuygan sohaga.....	og'riq bilan o'tadi.
Badanning ko'p joyi kuygan bo'lsa, bemor.....	kuyish deyiladi.

Mashq. Gaplardagi fe'llarning qo'llanilishiga e'tibor bering? Ularning zamonini aniqlang.

1. Birinchi yordam tibbiyot xodimlari yetib kelguniga yoki bemorni shifoxonaga yotqizguniga qadar ko'rsatiladi 2. Sinish – bu suyak butunligining buzilishidir. 3. Agar umurtqa pog'onasi shikastlangan bo'lsa, jabrlanuvchining holatini o'zgartirmaslik kerak. 4. Ochiq suyak sinishida qon oqishini to'xtatish va jarohat chetlariga 5% li yod eritmasi surtib, steril bog'lam bilan bog'lash kerak. 5. Birinchi yordam – inson hayotini saqlab qolishga qaratilgan tezkor chora-tadbirlar yig'indisidir. 6. I-darajali sovuq qotgan odam issiq xonaga olib kirilib, tanasining sovqotgan joyiga qo'l kafti, dag'al sochiq, aroq, atirga ho'llangan paxta bilan ishqalanadi. 7. Agar qon kapillyarlardan ketib, kesilgan yoki tinalgan joy chuqur bo'lmasa, o'sha yerga brilliant yashili yoki yod eritmasi surtiladi.

Mashq. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha quyidagi jadvalning savollariga o'ng tomondan to'g'ri javoblarni toping.



Agar jarohat tufayli tomirdan qon oqsa nima qilish kerak?	Og'izdan-og'izga tez sun'iy nafas ol- dirib, bir pas yurakni uqalab turish kerak.
Agar ochiq yoki yopiq sinish ro'y bersa nima qilish kerak?	Bolaning boshini sal yuroriroq ko'tarib yuziga suv sepish yoki nashatir spirtini hidlatish kerak.
Agar inson ko'krak qafasi torayishi tu- fayli nafas ololmasa nima qilish kerak?	Maxsus shina yoki yog'och qo'yish kerak.
Agar maktab yoshidagi bola hovlida o'ynab yurib, hushidan ketsa nima qi- lish kerak?	O'sha oyoq yoki qo'lni bukib, tepasi- dan bog'lov qo'yish kerak.

Topshiriq. *Siz institutga kelayotib yo'lda avtohalokat sodir bo'lganligini ko'rdingiz. Bo'lg'usi tibbiyot xodimi sifatida siz jabrlanganlarga qanday birinchi tez yordam ko'rsata olasiz?*

Nazorat savollari:

1. Fe'l deb nimaga aytiladi?
2. Fe'l qanday savollarga javob bo'ladi?
3. Fe'lning nechta zamoni bor?
4. Hozirgi zamon fe'lining qanday turlari bor?
5. Nima qilmoqda? Qaysi zamon fe'lining savoli?
6. Qaysi holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatiladi?
7. Baxtsiz hodisa ro'y berganda shikastlanganlar ko'p bo'lsa, qanday tez tibbiy yordam ko'rsatish mumkin?
8. Kishi badani kuyganda qanday tez tibbiy yordam ko'rsatish mumkin?

**14-MASHG'ULOT
TISH NIMA O'ZI?**

Har bir tish ikki qismdan: tishni jag'ga mustahkamlovchi ildiz yoki ildizlardan va og'izda ko'rinib turadigan qismdan iborat bo'ladi.

Tishda to'rt xil modda bo'ladi. Tishning yuqori qismini qoplovchi emal – qattiq va yaltiroq modda. Sement - ildizni qoplovchi suyakka o'xshash modda. Dentin – fil suyagiga o'xshaydi, tish tanasi un-

dan iborat bo'ladi. Tish pulpasi - bu tish ichidagi bo'shliq, u pulpa bo'shlig'i deyiladi. Tish pulpasi nervlar, arteriya va venadan iborat to'qima hisoblanadi. Ular tishga ildiz uchi yonidagi teshikdan o'tadi.

Ovqatda kalsiy yoki D darmondorisi yetishmasligi emalning zaiflashuviga olib keladi, buning oqibatida tishlar juda erta yemirila boshlaydi.

Odamda tishlar bir marta almashadi. Ikki yoshli bolalarda sut tishlari atalmish 20 ta tish bo'ladi. Sut tishlari ostida ikkinchi tishlar bo'lib, ular olti yoshdan keyin chiqa boshlaydi. Bu sut tishlari 12 yoshga kelib almashinib bo'ladi.

Katta yoshdagi odamda tishlarning to'liq yig'indisi 32 ta ildizli tish bo'lishi lozim. Shundan so'ng bizda yangi tish o'sib chiqmaydi, shu bois tishlarni parvarish qilish, ularning yemirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

LUG'AT

tish - зуб	modda - вещество
jag' - челюсть	qorlovchi - покрывающий
suyak - кость	katta yoshdagi odam - взрослый человек

O'tgan zamon fe'li

(Прошедшее время глагола)

O'tgan zamon fe'li quyidagi turlarga bo'linadi:

Aniq o'tgan zamon fe'li	Yozdim Yozmadim
Aniq o'tgan zamon fe'li	Yozdim Yozmadim
Yaqin o'tgan zamon fe'li	Yozganman Yozmaganman
Uzoq o'tgan zamon fe'li	Yozgan edim Yozmagan edim

Topshiriq. *Quyidagi matnni o'qing. O'tgan zamon fe'llarini toping.*

1997-yil ish faoliyatimni oftalmologiya bo'limida katta hamshira lavozimida boshladim. Ko'z ostiga, ko'z ichiga inyeksiya qilishni o'rgandim. Buni menga katta hamshira Sveta opa o'rgatdilar. Ammo bemorlar menga in'yeksiya qildirishga qo'rqib nuqul Sveta opani kutar edilar. Bir kuni Sveta opaning ishlari chiqib uyda ushlanib qoldilar. Oradan ikki soat o'tdi. Navbatda bemorlar soni ko'payib ketdi. Men bemorlarni muolajaga chaqirdim. Bemorlar esa menga in'eksiya qildirmay: "Sveta opani kutamiz, ularning qo'li yengil", – dedilar. Shunda bir bemor ayol: "Men ishga kechikyapman, menga shu qiz muolaja qilsin", – dedi. Yonimga kelib: "Senga ishonaman," – deb jilmaydi. Men ko'z ichiga in'eksiya qildim.

Bemor ayol juda xursand bo'ldi. Yo'lakdagi bemorlarga meni: "Qo'li yengil ekan", – deb maqtadi. Shunda hamma bemorlar menga inyeksiya qildirishdi. Ana shunday qilib birinchi mustaqil faoliyatim boshlandi.

Kelasi zamon fe'li (Будущее время глагола)

<p>Kelasi zamon maqsad fe'li nima qilmoqchiman? savoliga javob beradi. Fe'l o'zagiga -moqchi qo'shimchasini va kesim affiksini qo'shish orqali yasaladi. Masalan:</p> <p>Men so'zlamoqchiman. Sen so'zlamoqchisan. U so'zlamoqchi. Biz so'zlamoqchimiz. Siz so'zlamoqchisiz. Ular so'zlamoqchi(lar).</p>	<p>Будущее время намерения отвечает на вопрос <i>nima qilmoqchiman?</i> и образуется присоединением к основе глагола аффикса -moqchi и спряжения суффиксов. Например:</p> <p>Men so'zlamoqchiman. Sen so'zlamoqchisan. U so'zlamoqchi. Biz so'zlamoqchimiz. Siz so'zlamoqchisiz. Ular so'zlamoqchi(lar).</p>
---	---

<p>Kelasi zamon gumon fe'li nima qilarman? savoliga javob beradi. Fe'l o'zagiga -(a)r qo'shimchasi va kesim affiksini qo'shish orqali yasaladi. Masalan:</p> <p>Men kelarman. Sen kelarsan. U kelar. Biz kelarmiz. Siz kelarsiz. Ular kelar.</p>	<p>Будущее предположительное время глагола отвечает на вопрос нима қиларман? и образуется присоединением к основе глагола аффикса - (а) г и спряжения суффиксов. Например:</p> <p>Men kelarman. Sen kelarsan. U kelar. Biz kelarmiz. Siz kelarsiz. Ular kelar.</p>
--	--

Topshiriq. *Matnni o'qing. Siz bu savolga qanday javob berardingiz?*

«Men o'n yildan keyin qanday bo'laman?»

– Men Salima Ashurovaman. Hozir Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining pediatriya fakultetida o'qiyapman. O'n yildan keyin magistr diplomini olib, jarrohlik bo'limida ishlayotgan bo'laman. Balki ish faoliyatim O'zbekistonda, balki o'sha payt Koreyada ishlayotgan bo'larman.

– Men, Hamdamova Lobar, o'n yildan so'ng tibbiyot institutida talabalarga dars beraman.

– Men o'n yildan so'ng kardiolog shifokor bo'laman. O'zim tug'ilib o'sgan Samarqand viloyatining Poyariq tumanida shifoxonada ishlayotgan bo'laman.

– Men magistraturani tugatib magistrlik diplomini olaman. Keyin «Bolalarda DAUN kasalligining oldini olish» mavzusida dissertatsiya yoqlayman.

Topshiriq. *Kelasi zamon maqsad yoki gumon fe'llarini qo'llagan holda “Men 10 yoki 15 yildan so'ng” mavzusida taqdimot tayyorlang yoki insho yozing.*

Balki kardiolog bo'larman. (Kelasi zamon gumon fe'li).

Goho bolalar jarrohi bo'lmoqchiman. (Kelasi zamon maqsad fe'li).

Sog'liqni saqlash vaziri bo'larman. (Kelasi zamon gumon fe'li).

Oftalmolog bo'larman. (Kelasi zamon gumon fe'li).

Pediatr bo'lmoqchiman. (Kelasi zamon maqsad fe'li).

Xususiy klinika ochmoqchiman. (Kelasi zamon maqsad fe'li).

Balki reanimatolog bo'larman. (Kelasi zamon gumon fe'li).

Bosh shifokor bo'lmoqchiman. (Kelasi zamon maqsad fe'li).

Topshiriq. *"Tushimda kim bo'libman?" matnidan aniq o'tgan zamon fe'llarini toping. Ularning ba'zi birlarini o'tgan zamonning turli ko'rinishlari bo'lgan fe'llar bilan almashtiring. Bu sizning turli klinik amaliyotlar bilan tanishishingizga yordam beradi.*

Men bir tush ko'ribman, tushimda bemorning terisini ko'rikdan o'tkazibman, timoqlaringizni ko'rsating debman, soch, teri qatlamlaridan tekshirishga qirqma olibman. ***Tushimda kim bo'libman?***

Tug'ruqda bolani qabul qilibman, uning holatini baholabman, tug'ruqxonadan chaqaloqni kuzatibman. ***Tushimda kim bo'libman?***

Bolg'acha bilan bemorning tizzasiga urib ko'ribman, bemordan ko'zini yumib, qo'lini burniga tekkizishini so'rabman, gugurt yoqishni iltimos qilibman. ***Tushimda kim bo'libman?***

Mashq. Ushbu matnni o'qing. Undagi fe'l zamonini aniq o'tgan zamon fe'llariga almashtiring.

Mening ilk amalga oshmagan amaliyotim

Mening ilk amalga oshmagan amaliyotim ancha oldin bo'lgan edi. Tibbiyot kollejida akusherlik yo'nalishida o'qirdim. Yarim kechasi o'zimdanda katta opam uyg'otdi. – Tur! Tur! O'qiganlaringni amalda ko'rsat! Mushugimizning ko'zi yoriyapti. Yordam ber! To'satdan eshitgan bu xabardan qo'rqib ketdim.

– Men odamlarni tug'diraman, – dedim uyqusirab. Opam:

– Agar bunday qo'rqqoq bo'lsang, sendan qanday doya chiqadi, – dedi.

Xullas, opam meni sudrab mushukning oldiga olib chiqdi. Oyoqlarim *dir-dir titragan edi* o'shanda. Men hech narsa ko'rmadim, chunki ko'zimni qattiq *yumgan edim*. Mushugimiz eson-omon bolaladi. Opam: Sendan doya chiqmaydi deb, qo'l siltadi. Yaxshiyamki, farishtalar uning gapiga "omin" *demagan ekan*.

Mashq. Yaqin o'tgan zamon fe'lini toping. Ularni aniq o'tgan zamon fe'li bilan almashtiring.

Venaga qilgan birinchi inyeksiyam juda g'aroyib bo'lgan edi. Muolajaga hamma narsani tayyorlaganman. Qo'llarimni yuvganman. Shprisga dori tortganman. Spirt bilan namlangan paxtani ham olganman. Chilvimi tortib dorini yubordim. Ammo nimagadir bemor qo'li koptokday shishib qoldi. Ranglarim o'chib qo'shni xonadan hamshirani chaqirib chiqdim. U ko'rdi-yu, bemor qo'lidagi chilvimi yechib tashladi. Shish birpasda so'rildi. Men venaga tushgach chilvimi olib tashlamagan ekanman o'shanda.

Topshiriq. Quyidagi "TISHLAR" monologini o'qing.

Biz tishlar 32 og'ayni doim birga inoqmiz. Uyimiz ikki qavat, besh oila hamkorlikda yashaymiz. Bular: kurak, qoziq, aka-uka oziq va aql tishlari oilalaridir. Barchamiz uch qismdan: tish toji, bo'yin va ildizdan iboratmiz. Bo'ynimiz tish toji va ildizni chegaralab turadi. Bo'ynimiz atrofdan milk bilan o'ralgan. Tish tojimiz emal bilan, ildizimiz suyak to'qimasi bilan qoplangan. Ishimiz juda qiyin, har kuni 16-18 soat, hatto ertalabgacha ham ishlashimiz mumkin. Kechasi dam olib, ertalab tongdan ishga tushamiz. Barchamizning o'z vazifamiz bor. Oziq-ovqat hazm bo'lishida katta ahamiyatga egamiz. Masalan: kurak – oziqni kesib oladi, qoziq – uzib oladi, oziq – oziq-ovqatni maydalaydi.

Sizlardan bir iltimos, har kuni bizlarni bir yuvib turinglar. Agar asrab-avaylasangiz sizga ming yil ham xizmat qilamiz.

Mashq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Карнес – болезнь, вызывающая разрушение зубов.



Симптом - явление означающее, нарушение кокой-то функции. Например, симптомами простудных заболеваний являются высокая температура, головная боль, насморк, кашель и усталость.

Mashq. O'qing. O'tgan zamon fe'llarining ishlatilishiga etibor bering.

BU QIZIQ

1. Agar egizaklardan birining u yoki bu tishi bo'lmasa, ikkinchisida ham aynan shu tish bo'lmas ekan. 2. Filning qoziq tishlari butun umr o'sishdan to'xtamaydi, ba'zilarining og'irligi 90 kg ga yetishi mumkin. 3. Amerikalik tish shifokorlari tish qoplamalari va protezlar uchun bir yilda 13 tonna oltin sarflarkan. 4. Afsonalarga ko'ra Buddada 40 ta tish, Odam Otada 30 ta tish bo'lgan. Bir oyda 30 kun bo'lishi ham shundan ekan. 5. Britaniyalik olim Isaak Nyutonning tishi 1816-yili 40 ming dollarga sotilgan. Uni xarid qilgan oqsuyak tishni o'zining uzugiga qo'ydirgan. 6. Tishlarini kuniga 3 marta tozalaydigan insonlar ortiqcha vazn to'plamas ekanlar. 7. Britaniya orollarida nikoh to'ylarda tish protezlari ommabop sovg'a hisoblangan. 8. AQSHning Vermont shtatida ayollar turmush o'rtog'ining yozma ruxsatisiz tish protezini taqishi qonunan ta'qiqlanadi. 9. Xitoyliklar har yili 20-sentabrda "Tishlar salomatligi kuni" milliy bayramini nishonlaydi. 10. Agar siz o'naqay bo'lsangiz, ovqatning ko'proq qismini jag'ingizning o'ng tomonida, aksincha, chapaqay bo'lsangiz chap tomonida chaynaysiz.

Topshiriq. *Nima uchun? Nima qilish kerak? konstruksiyasi bo'yicha savollarga javobni o'ng tomondagi ustundan toping.*

Nima uchun ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq kariyesdan aziyat chekadi?	Sut tishlarida ildiz so'rila boshlaydi va tish tushadi.
Nima uchun so'lak kariyesga qarshi yagona dezinfeksiyalovchi modda hisoblanadi?	Ayollar qonida estrogen gormonlari yuqori bo'lganligi uchun, og'iz bo'shlig'ida streptokoklar tez ko'payadi.

Nima uchun sut tishlar vaqt o'tishi bilan qimirlay boshlaydi?	So'lak tish emalini yemiradigan kislotani yuvishga yordam beradi.
---	---

Mashq. Quyidagi gaplarda o'tgan zamon fe'llarini toping.

1. 1938-yili neylon tolalaridan tayyorlangan tish chyotkalari paydo bo'lgan. 2. Tish chyotkalari cho'chqa, ot va bo'rsiq junidan tayyorlangan. 3. Qadimda xitoyliklar tishlarini tozalamasdan, og'zini choy va choy barglari bilan chaygan. 4. XIX asrda sun'iy keramika tishlarini tayyorlash texnologiyasi yaratilgan. 5. Fransiyalik olimlar ovqatni haddan tashqari ko'p chaynash yuzda ajinlar paydo bo'lishiga olib kelishini isbotlagan. 6. Insonlarda tishlar ikki marta chiqadi – birinchisi sut, ikkinchisi – doimiy. 7. Olimlar kariyesga qarshi vaksinalarni ham o'ylab topishgan. 8. Tish shifokorlari har safar ovqatdan keyin tish tozalashni tavsiya qilmaydi.

Nazorat savollari:

1. Tish necha qismdan iborat?
2. Ular nima deb ataladi?
3. Ovqatda kalsiy yetishmasligi nimaga sabab bo'ladi?
4. Odamda necha yoshdan boshlab doimiy tishlar chiqa boshladi?
5. Tish og'rimasligi uchun nima qilish kerak?
6. Tishlar mustahkam bo'lishi uchun nima qilish kerak?
7. O'tgan zamon fe'lining nechta turi bor?
8. Kelasi zamon fe'lining nechta turi bor?

15-MASHG'ULOT XXI ASRDA INNOVATSIYALAR

Aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish va tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasiga "aqlli tibbiyot" tizimi, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish ko'zda tutilmoqda. Nanotexnologiya kundalik hayotimizni turli

xil qulay vositalar bilan to'ldirmoqda. Nanotexnologiyalar tibbiyotga jadal kirib kelmoqda.

Zamonaviy tibbiy xizmatning tezkorligi, samaradorligi va sifatini oshirishda nanotexnologiyalarning o'rni beqiyos. Shuni hisobga olgan holda tibbiy kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimi takomillashtirilmoqda.

Fuqarolarning malakaviy tibbiy xizmatlariga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, tez tibbiy yordamning sifatini oshirish uchun tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Tibbiy xizmat amaliyotiga zamonaviy ilmiy-texnik vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yo'li bilan uning tezkorligi, sifati va samaradorligi darajasi oshadi.

LUG'AT

tizim — система	samarador — эффективный
aholi — население	tadqiqot — исследование
takomillashtirish — усовершенствовать	tashkiliy — организационный
tibbiy xizmat — медицинское обслуживание	zamonaviy — современный
axborot — kommunikasiya texnologiyalari — информационно- коммуникационные технологии	huquq — право

Topshiriq. *Tibbiyot sohasidagi o'zingiz bilgan nanotexnologiyalar haqida gapiring.*

Topshiriq. *Tibbiy xizmat amaliyotida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi haqida bahs-munozara o'tkazing.*

Fe'ning vazifadosh shakllari

(Функциональные формы глагола)

Fe'ning 3 ta vazifadosh shakli bor

1. Ravishdosh (деепричастие)
2. Sifatdosh (причастие)
3. Harakat nomi (отглагольное имя действия)

Ravishdosh (Деепричастие)

Ravishdosh — fe'lning vazifadosh shakli. Ravishdosh undosh bilan tugagan fe'l o'zagiga *-a*, unli bilan tugagan fe'l o'zagiga *-y* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *kel+a*, *ol+a*, *bor+a*, *o'qi+y*, *ishla+y*, *o'yna+y*.

Bo'lishsiz shakli *-may* qo'shimchasi bilan yasaladi. Masalan: *bor+ma+y*, *ayt+ma+y*;

Ravishdosh fe'l o'zagiga *-b*, *-ib* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *ishla+b*, *o'yla+b*, *ayt+ib*, *kul+ib*.

Ravishdoshning bo'lishsiz shakli *-masdan* qo'shimchasi yordamida yasaladi. Masalan: *gapir+masdan*, *o'yla+masdan*, *qo'rq+masdan*.

Деепричастие — это функциональная форма глагола. Деепричастие образуется присоединением к основе глагола аффикса *-а*, если основа заканчивается на согласный, и аффикса *-у*, если основа заканчивается на гласный.

Отрицательная форма образуется путём присоединения аффикса *-may*. Деепричастие образуется присоединением аффиксов *-b*, *-ib* к основе глагола. Например: *ishla+b*, *o'yla+b*, *ayt+ib*, *kul+ib*.

Отрицательная форма деепричастия образуется при помощи аффикса *-masdan*. Например: *gapir+masdan*, *o'yla+masdan*, *qo'rq+masdan*

Mashq. Quyidagi gaplarda ravishdoshlarni toping va tagiga chizing.

1. Institutni bitirib, magistraturaga o'qishga kiraman. 2. U o'ylab-o'ylab qilgan ishi noto'g'riligini tushundi. 3. Malika orqasiga qaramasdan ketdi. 4. Alisher hech narsa aytmay, uydan chiqib ketdi. 5. U quvona-quvona o'ynadi.

Mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Kichik darajadagi ishlar butunlay yangi dunyo eshigini ochdi. Nanotexnologiya kundalik hayotimizni juda nozik qurilish materiallaridan turli xil qulay narsalar bilan to'ldirishi kutilmoqda. Lekin boshqa bir sohada nanotexnologiyalar tibbiyotda bo'lgani kabi yutuqlarga erisha olmaydi. Doktor Dean Xo shifokorlar va tabletkalarining kasalliklarni davolashda ishlatishi mumkin bo'lgan nanodia-

mondlarni o'rganadi. "Mening guruhim nanomondlar ishlab chiqaradi, ular nanometrik zarralar bo'lib, ularning har biri 4-5 nanometrغا teng. Ulardan terapiya va dori-darmonlarni yetkazishda foydalaniladi", – deydi doktor Dean Xo.

Mashq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Aytish oson, bajarish qiyin. (Maqol) 2. Xonada chekish mumkin yemas. 3. Shifokorga kasallik belgilarini aniq aytish kerak. 4. Men o'qishga kirish uchun ikki yil urindim. 5. Kutubxonadan istagan kitoblaringizni olishingiz mumkin. 6. Kecha fakultetimizda shoirlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Mashq. Matndagi ravishdoshlarni ko'chiring va shaklini ayting.

Antarktida suvlarida yirik yirtqich tyulen – dengiz qoplani yashab, asosan pingvinlar bilan oziqlanadi. U suzib yurgan qushlarni bildirmay suv tagiga tortib ketadi.

Mashq. Ravishdoshlarni ko'chiring va ularning turini ayting.

Matbuotning xabar berishicha, turkiyalik dehqon Yusuf Ofqon o'n besh yoshida ko'r va kar bo'lib qolgan edi. O'ttiz yoshida birdan uning tishi og'rib qoldi. Doktorga murojaat qilishga to'g'ri kelibdi. Doktor uning chap jag'idagi tepa tishini olib tashladi. Yusuf hushdan ketib qoldi. U oradan biroz vaqt o'tgach, o'ziga keldi. Baxtini qarangi, uning yana ko'zi ko'rib, qulog'i eshita boshlagan edi.

Mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

ДНК нанороботы

ДНК нанороботы – это новая концепция доставки лекарств. Они работают по запрограммированной ДНК, в то же время, они компактно складываются, как это делается в искусстве оригами, а потом разворачиваются, как крошечный робот, готовый к действиям.

Учёные, которые провели это исследование, проверили действие таких роботов путем вживления их грызунам. В течение 48 часов работы успешно нашли сосудистые клетки на этой опухоли, вызвали свертывание крови в сосудах этой опухоли и тем самым отсекали кровоснабжение, что привело к гибели злокачественных клеток.

Mashq. Badiiy asarlardan ravishdoshlar ishtirok etgan gaplarga oltita misol toping, ravishdosh yasovchi qo'shimchalar tagiga chizing.

O'qing. Ravishdoshlarni topib, yasalishini izohlang.

Og'riy-og'riy, avaylab, anglagach, o'xshab, o'qigani, tuzalib, bora-bora, chiqquncha, o'qiy-o'qiy, o'qidi, ekkani, belab, bezatgach, gaplashguncha, gaplashildi, joylab, yo'llab, qarsillatib, kattalashtirgach, sog'ayib, davolanib, yo'tala-yo'tala, isitmalab, titrab-qaqshab, davolanmay, bilib-bilmay.

Nazorat savollari:

1. Fe'lning qanday vazifadosh shakllari bor?
2. Ravishdosh qaysi qo'shimchalar bilan yasaladi?
3. Ravishdoshning bo'lishsiz shakli qanday yasaladi?
4. XXI asr innovatsiyalarining tibbiyot sohasiga joriy qilinganligini misollar asosida gapirib bering.
5. Sog'liqni saqlash sohasida qanday innovatsion texnologiyalar joriy qilish ko'zda tutilmoqda?

16-MASHG'ULOT

POLIKLINIKADA. ANAMNEZ YIG'ISH

Oilaviy poliklinika o'z mijozlariga muntazam, samarali va hamma uchun imkon darajasidagi yordamni beradi. U aholi o'rtasida kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash tizimining ishini yax-

shilashda samarali faoliyat ko'rsatadi. Oilaviy poliklinika oila modelida chaqaloqlardan qariyalargacha bo'lgan aholi qatlamiga xizmat ko'rsatadi.

Kasallikning rivojlanish anamnezi

Anamnezning asl ma'nosi eslamok demakdir. Demak, tekshirila-yotgan bemor o'zida kasallik qanday paydo bo'lganini, shifokorga uchragunga qadar uning qanday davom etganini eslab, mukammal aytib berishi kerak.

Agarda bemorning ahvoli og'ir bo'lsa, kasallik anamnezi bemor-ning kasalini yaqindan biluvchi kishilar yordamida to'planadi.

Bemorga birinchi yordam ko'rsatgan tibbiyot xodimlarining ma'lumotlari va ular bergan hujjatlar kasallik anamneziga material bo'lib kiradi. Anamnez diagnostik jarayonning birinchi bosqichi bo'lganligi uchun, uni to'liq to'plash katta ahamiyatga ega.

Bemorlar ko'pincha kasallikning uncha qimmatga ega bo'lmagan belgilarini, o'zlarining qanday davolash muassasalarida bo'lganliklari to'g'risida mukammal gapirib, shifokorga kerak bo'lgan ma'lumotlarni aytmasliklari mumkin, shuning uchun anamnez to'playotgan shi-fokor bemorga muloyimlik bilan qo'shimcha savollar berib, asosiy ma'lumotlarni bilib olishga harakat qilishi kerak.

LUG'AT

eslamok - вспоминать

paydo bo'lmoq - появиться

mukammal - совершенный

bosqich - ступень

muloyim - вежливый

qo'shimcha - дополнительный

Bemorga beriladigan mehnat davri anamnez savollari

1. Qanday yuqumli kasalliklar bilan og'rigan?
2. Qaysi kasbda ishlagan?
3. Oilaviy ahvoli qanday?
4. Jinsiy hayoti necha yoshdan boshlangan?
5. Hozirgi vaqtdagi ijtimoiy-maishiy ahvoli.
6. Oilada nasliy kasalliklar bo'lganmi?

Anamnez yig'ish (Hajviya)

Biz 3-kursda Toshkent viloyat kattalar shifoxonada xirurgiya fanidan dars o'tar edik. Domlamiz bizni bo'limga olib kirib, hammamizga bemorlarni bo'lib berdi va kasallik tarixiga oid ma'lumotlarni yig'ishni aytdi. Menga ham 70 yoshdagi keksa bemor tushdi. Salom-alikdan so'ng kasallik tarixiga oid ma'lumotlarni yig'a boshladim. Shikoyatlarini birma-bir yozdim, kasallik anamnezini so'radim. Endi navbat hayot anamnezini yig'ish edi. Shunda so'rashni boshladim:

– Oilada nechta farzand bo'lgansizlar?

Bemor o'ylanib:

– 4 nafar edik, – deb javob berdi.

– Onangiz sizga homiladorligida toksikoz o'tkazmagan ekanlarmi?

Bemor yana o'ylanib, yelkasini qisib:

– Bila olmadim bolam, – dedi.

– Tug'ilayotganingizda chinqirib yig'laganmisiz?

Bemor yana kulimsirab:

– Shunday bo'lgandur bolam, – dedi va menga kulimsirab qarab qo'ydi.

– Kindingiz necha kunda tushgan?

Shu vaqt to'satdan eshik ochilib domlamiz kirib keldilar. O'qib turib ko'zlari hayot anamneziga kelganda birdan kulib yubordilar.

Men bunga hayron bo'lib:

– Noto'g'ri yig'ibmanmi, domla? Axir kitobcha bo'yicha birma-bir so'rayapman-ku? – dedim.

– Eh, qizim-ey, bu so'ragan hayot anamnezini bolalar kasalxonalarida qo'llaysan. Axir, bular keksa bo'lsalar.

– Voy!- deb men ham kulib yubordim. Palatada gulduros kulgu ko'tarildi.

– Rahmat, qizim. Umrinni yana 5 yilga uzaytirding, – deb keksa bemor menga kulib qarab qo'ydi.

Sifatdosh (Причастие)

Sifatdosh — fe'l shakli bo'lib, u fe'llik va sifatlik xususiyatiga ega. Sifatdoshning 4 ta shakli bor:

1. O'tgan zamon sifatdoshi;
2. Hozirgi zamon sifatdoshi;
3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi;

4. Kelasi zamon sifatdoshi;

O'tgan zamon sifatdoshi fe'lning bo'lishli yoki bo'lishsiz shakliga *-gan, -kan, -qan* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *ishla+gan, chiq+qan*.

Hozirgi zamon sifatdoshi ravishdoshning *-a, -y* shakliga *-yotgan* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *bora+yotgan, o'qi+yotgan*.

Hozirgi kelasi zamon sifatdoshi ravishdoshning *-a, -y* shakliga *-digan* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *ishlaydi+gan, bora+digan*.

Kelasi zamon sifatdoshi fe'l o'zagiga *-r, -ar* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *oqar, borar, aytar*.

Причастие — это глагольно-именная форма, которая имеет признаки глагола и прилагательного. Причастие имеет 4 формы:

1. Причастие прошедшего времени;
2. Причастие настоящего времени;
3. Причастие настоящего-будущего времени.

4. Причастие будущего времени

Причастие прошедшего времени образуется присоединением к утвердительной или отрицательной форме личных глагола аффиксов спряжения *-gan, -kan, -qan*.

Причастие настоящего времени образуется присоединением к форме деепричастия на *-a, -y* аффикса *-yotgan*. *Например: bora+yotgan, o'qi+yotgan*.


Причастие настоящего-будущего времени образуется присоединением к форме деепричастия на *-a, -y* аффикса *-digan*. *Например: ishlaydi+gan, bora+digan*.

Причастие будущего времени образуется путём присоединения к основе глагола аффиксов *-r, -ar*. *Например: oqar, borar, aytar*.


Harakat nomi (Отглагольное имя действия)


Harakat nomi fe'ning bo'lishli shakliga *-sh(-ish)*, *-moq*, *-v(-uv)* qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *ishla+sh*, *o'qi+sh*, *bor+moq*, *yoz+uv*, *o'q+uv*.

O'zbek tilida bu shakl ko'pincha *kerak*, *uchun*, *mumkin*, *lozim* so'zlari bilan birga ishlatiladi.

Ishla+sh 


Harakat nomi rus tiliga fe'ning noaniq shakli sifatida tarjima qilindi. Ko'pincha harakat nomiga egalik qo'shimchalari qo'shiladi.

Olish + 

Olish + 


Отглагольное имя действия образуется присоединением к утвердительной основе глагола аффиксов *-sh(-ish)*, *-moq*, *-v(-uv)*


В узбекском языке отглагольное имя действия часто употребляется со словами *kerak*, *uchun*, *mumkin*, *lozim*.

Нужно  работать

Отглагольное имя действия обычно переводится на русский язык как неопределенная форма глагола.

Часто к отглагольным именам действия присоединяются притяжательные аффиксы.

Olish + 

Olish + 

Topshiriq. Sifatdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari ishtirok etgan maqollarni toping.

Namuna: *O'qimagan birni, o'qigan mingni yengar.*

Mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalardan sifatdosh yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qaramoq, bilib olmoq, taqmoq, kelishmoq, olib kelmoq, bukmoq, yozib bormoq, og'moq.

Mashq. Maqollardagi sifatdoshlarni aniqlang va birikma holida ko'chiring. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Ekinni erta ekkan, hosilni erta o'rar. 2. To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi. 3. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. 4. Birlashgan kuch yengilmas. 5. Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar.

Mashq. Gaplarni o'qing, harakat nomining tagiga chizing.

1. Bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish. 2. Insonni bilish uchun uni sevish kerak. 3. Ko'rishish, salomlashish, so'rashish va iltifot etish insonlarga xos fazilatdir. 4. Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir. 5. Qilayotgan ishingni sevishing kerak, ana shunda mehnat ijodga aylanadi.

Mashq. Sifatdoshlarni toping va ularning yasalishini tushuntiring.

1. O'tilgan mavzularni takrorlaymiz. 2. Yog'ayotgan yomg'ir qorga aylandi. 3. Ko'chalarda suv sepuvchi mashinalar ko'rinib qoldi. 4. Ezgulik hech eskirmaydigan libosdir. 5. Birovga yomonlikni ravo ko'rmaydigan kishi sahovat egasidir. 6. Qaytib kiradigan eshigingni qattiq yopma.

Mashq. Matndagi harakat nomini toping, ularni ko'chiring va rus tiliga tarjima qiling.

Ota-ona bolaga ustoz. Bolani yaramas ishlardan saqlab, yaxshi ishlarga qiziqtirish, uning yonida yomon qiliqlardan saqlanish kerak. Bolalarni juda erkalatib yubormaslik lozim. Bolalarning suyuq so'zlarini eshitib, kulib turish, yaramas ishlarini olqishlash ularni orsizlik, axloqsizlikka odatlantirishdir. Bolaga yumshoq muomala qilish, faqat vaqtida, o'rni kelganda koyish, bola har vaqt to'g'rilikni saqlasa, ota-ona hayrixoh bo'lishni bildirish lozim bo'ladi. Uning biror bo'lmag'ur ishni ko'rsatishi bilanoq uni qattiq koyish, urish bolaning qarshiligini orttiradi. Haddan ziyod ziynatlanib ko'chalarda va keraksiz joylarda yurish, bekor o'tirishdan qizlarni saqlash va uy ishlariga to'la o'rgatish kerak. Chunki oila rahbari bo'lgan xotin tarbiyali, odobli bo'lishi, uy ishlarini mukammal bilishi kerak.

Mashq. Suhbatni rus tiliga tarjima qilib, yozing.

- Assalomu alaykum, farzandingizga nima bo'ldi?	-?
- 2 kundan beri tomog'i og'rib, issig'i chiqyapti.	-
- Uyda yana kimlar kasal, bironta dori-darmon qildingizmi?	-?
- Qaynonam ham shamollagan. Uyda farzandinga paratsetamol berdim va sizga murojaat qildim.	-
- Keling, bolaning tomog'ini ko'rib qo'yay.	-
- Marhamat.	-
- Tomog'ida qizarish yo'q. Bolani endi eshitib ko'ray-chi.	-

Mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Человеческие мышцы ограничиваются мозгом. На самом деле у человека достаточно сил, чтобы поднять автомобиль. 2. Женщины наделены более сильным иммунитетом, чем мужчины. 3. Слезы вызванные стрессом и слезы от лука имеют разный химический состав. 4. Леонардо Да Винчи покупал птиц и выпускал их из клеток, чтобы понять механизм полёта. 5. В Древнем Китае, доктору платили только тогда если пациенту становилось лучше.

Mashq. Maqol va hikmatli so'zlarni ko'chiring va yodlang. Harakat nomining qo'llanilishiga e'tibor bering.

1. Vaqtni o'g'irlamoq – baxtni o'g'irlamoq. 2. Kimning o'qish, o'rganishga ishtiyoqi zo'r bo'lsa, uning kelajagi porloq bo'ladi. 3. O'rganish oson – yaratish qiyin. 4. Og'izga kelganni gapirmoq – nodonning ishi. 5. Tilni bilish dilni bilishga yo'l ochar.

Mashq. Quyidagi fe'llardan harakat nomi shaklini yasang va kerak, uchun, mumkin so'zlari bilan biriktirib, tarjima qiling.

Tayyorlanmoq, kuzatmoq, javob bermoq, maqtanmoq, gapirmoq, sayr qilmoq.

Nazorat savollari:

1. Anamnez so'zi qanday ma'noni bildiradi?
2. Anamnez yig'ishda qanday savollar beriladi?
3. Oilaviy poliklinikadagi shifokorlarning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Sifatdosh qaysi qo'shimchalarni o'z ichiga oladi?
5. Sifatdoshga misollar keltiring.
6. Harakat nomi qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?

17-MASHG'ULOT

YURAK KASALLIKLARI MIOKARDIT

Miokardit – yurak muskullarining infeksiyon-allergik va infeksiyon toksik yallig'lanishidir. Miokardit ko'pincha difteriya, qorin tifi, brut-sellyoz, tuberkulyoz, zaxm, toshmalı tif kasalliklarida uchraydi. Oxirgi yillarda miokardit viruslar keltirib chiqaruvchi gripp, qizilcha, suvchechak, poliomielit kabi kasalliklarda ko'p uchramoqda. Nospetsifik infeksiyon-allergik miokardit streptokokk va stafilokokka aloqador kasalliklarda (angina, faringit, surunkali tonsillit, gaymorit va boshqalar) uchraydi. Infeksiya miokardni to'g'ridan-to'g'ri zararlantiradi.

Kasallar tez charchab qolish, hansirash, yurak sohasi og'rib turi-shi, yurak o'ynashidan shikoyat qiladilar. Kasal ko'zdan kechirilganda unda qon aylanishi yetishmovchiligining belgilarini ko'rish mumkin: badan terisi oqaradi, ko'kimtir tusga kiradi, bo'yin venalari bo'rtib tu-radi, bosim past, puls tezlashadi, arterial bosim, ayniqsa sistolik bosim pasayadi. Yurak chegaralarining o'zgarishi kam bo'ladi. Yurak tonlari susaygan bo'ladi, biroq uchida sistolik shovqin eshitiladi. Birinchi galda R tishcha voltaji pasayadi, ba'zi o'choqli o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Salitsilatlar va pirazon qatori preparatlari miokarditning allergik komponentiga ta'sir qiluvchi yurak-tomirlar yetishmovchi-ligini davolash uchun buyuriladi.

Miokardit odatda yengilroq o'tadi. Idiopatik miokarditda prognoz juda jiddiy bo'ladi. Miokardit kasalligi davomida kasallar ishga layo-qatsiz hisoblanadilar. Miokard kardiosklerozi rivojlanib, qon aylanish yetishmovchiligi yoki yurak ritmining buzilishlari bilan ke-chsa, bemorlar ishga layoqatsiz bo'lib qoladilar.

LUG'AT

yallig'lanish - воспаление
toshmalı tif - сыпной тиф
suvchechak - ветрянка

zahm - сифилис
qizilcha - краснуха
susaymoq - ослабевать

Ravish haqida tushuncha. Ravishning ma'noga ko'ra turlari, yasalishi

Harakatning vaqti, joyi, maqsadi, sababi va holatini bildiruvchi so'zlar *ravish* deyiladi.

Ravishning quyidagi turlari bor:

1. Payt ravishi
2. O'rin ravishi
3. Holat ravishi
4. Miqdor va daraja ravishi

Payt ravishi — ish-harakatning vaqtini bildirib, qachon? qachondan beri? savollariga javob beradi. Masalan: *bugun, hozir, yaqinda*.

O'rin ravishi — ish-harakatning o'rini bildiradi va qayerda? qayerdan? qayerga? savollariga javob beradi. Masalan: *yuqorida, pastda, u yerda*.

Holat ravishi — ish-harakatning bajarilish holatini bildiradi va qanday? qanday qilib? savollariga javob beradi. Masalan: *asta, jim, piyoda, zo'rg'a*.

Miqdor va daraja ravishlari harakatning miqdori va darajasini bildiradi va qancha? qay darajada? savollariga javob beradi. Masalan: *ko'p, oz, aslo, kam*.

Слова, обозначающие время, место, цель, причину и способ действия, называются наречиями.

Наречия делятся на следующие виды:

1. Наречия времени
2. Наречия места
3. Наречия образа действия
4. Наречия меры и степени

Наречия времени — обозначают время действия и отвечает на вопросы когда? и с каких пор? Например: *сегодня, сейчас, недавно*

Наречия места — обозначают место действия и отвечают на вопросы где? откуда? куда? Например: *наверху, внизу, там*.

Наречия образа действия обозначают способ совершения действия и отвечают на вопросы как? каким образом? Например: *медленно, тихо, пешком, насилью*.

Наречия меры и степени обозначают степень, меру, интенсивность действия и отвечают на вопросы сколько? в какой степени? Например: *много, мало, совсем, мало*.

Mashq. Quyidagi yurak faoliyatiga doir gaplardagi ravishlarni topib, turlarini aniqlang.

Yurakning tug'ma nuqsonlari homilaning noto'g'ri o'sishidan kelib chiqadi. Hozir yurakning tug'ma nuqsonlari har 1000 ta chaqaloqdan 7-8 tasida uchraydi. Yurak zaif bo'lsa, qo'y go'shti yoki yanada yengilroq hazm bo'ladigan parranda go'shti tanlanadi.

Odatda, 40 yoshdan oshgan erkak va ayollarda yurak kasalliklari ko'p uchraydi. Yurak kasalliklariga taxmin qilinuvchi og'riqlar:

sanchiqli, achishuvchan, ezib og'ruvchi, simillagan ko'rinishlarda bo'ladi. Bo'yin sohasidagi simillab, cho'ziluvchan turga mansub og'riq asta-sekin chap yelka va qo'llarga tarqaladi. Ba'zida bunday og'riqning tez-tez takrorlanishi yurak bezovtaligini bildirishi mumkin. Nega shunday? Yurak to'qimasining zararlangan asab to'lalari orqa miyadan yuqori va pastga tarqalgan signallarni yuboradi. Agar nafas olish qiyin bo'lsa bu stenokardiyaning belgisidir. Yurak og'riqlari chap ko'krak sohasida bo'ladi. Agar bosh og'rig'i tez-tez takrorlanib, ko'z oldida yorug'lik siniqlari aks etsa, yurak faoliyatini tekshirtirish kerak. Yurak pulsining tez yoki sekin urishi sabab ayrim vaqtlarda diqqatni jamlash qiyinlashadi. Har kuni 3 km dan 5 km gacha piyoda yurish yurak-qon tomirlari faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Mashq. Nuqtalar o'rniga jadvalning o'ng ustunidan mos javoblarni topib ko'chiring.

organizmdagi eng mehnatkash organ bu	infarkt va insult
Yurak 5 daqiqa davomidaqonni haydaydi.	32 km
Kokain qabul qilish sog'lom odamlarda hamkasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.	yurak
Yurak bir yilda olimpiada basseynini to'ldiradigandan ko'p qonni haydaydi.	5 litr
Yurak bir kunda yengil avtomashinada yo'lni bosib o'tadigan energiyani ishlab chiqaradi.	2,5 million litr

Mashq. Quyidagi maqollarni o'qing. Ravishlarni toping

1. Agar yursang piyoda, umring bo'lar ziyoda. 2. Olisdagi qarindoshdan, yaqindagi yot yaxshi. 3. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatraqatra yig'ilib daryo bo'lur. 4. Maqtanma g'oz, hunaring oz. 5. Kamtar bo'lsang, osh ko'p, manman bo'lsang, tosh ko'p. 6. Oz-oz yegan mazadir, ko'p-ko'p yegan to'zadir. 7. Ot minmagan ot minsa, chopa-chopa o'ldirar, to'n kiymagan to'n kiysa, qoqa-qoqa to'zdirar. 8. Ko'p bo'lsa ketar, oz bo'lsa yetar. 9. Puli borlar yo'rg'a-yo'rg'a, puli yo'qlar zo'rg'a-zo'rg'a. 10. Kambag'al – piyoda, boy – tuyada. 11. Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi. 12. Ishdan qochgan – uzoqqa, yomon tulki – tuzoqqa. 13. Bugungi ishni ertaga qo'yma.

Mashq. Quyidagi holat ravishlari ishtirokida gaplar tuzing.
Piyoda, arang, jim, tez, mardona, astoydil.

Mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli ravishlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1.Sen..... biznikiga kelasanmi? 2.Bugun gidan, ertaga gidan yaxshiroq ishlash kerak. 3. Yerga.... da ishlov berish lozim. 4.O'mimdan turdim va ishgada yetib bordim. 5.Yozda dengizda ... cho'milamiz.

Mashq. Lug'atdan foydalanib, quyidagi ravishlar ishtirokida gaplar tuzing.

Yangicha, astoydil, sekin, birdan, darrov, yaxshi, ko'p, tez, piyoda, to'satdan.

Mashq. So'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Откуда?, куда?, там, туда, где-то, вперед, каждый день, весь день.

Mashq. Quyidagi ravish turlaridan gap tuzing.

Holat ravishi	Payt ravishi	O'rin ravishi	Daraja-miqdor ravishi
arang — едва darrov — быстро yashirincha — тайно	bugun — сегодня doim — всегда kechgacha — до вечера	pastda — внизу olg'a — вперед uzoqdan — издалека	uncha-muncha — не много taxminan — приблизительно ko'p — много

Mashq. Ravish ishtirok etgan gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Yurak uchun o'simliklar orasida eng foydalisi do'lana hisoblanadi. 2. Ertalab bemorning harorati o'lchandi. 3. Bugun institutimizda 1-kurs talabalari qasamyod qabul qilishdi. 4. O'tgan yili bu kasallik alomati asta-sekin namoyon bo'la boshlagandi. 5. Men qasamyod matnini qisman yodladim. 6. Yuqoridan pastga suv oqardi. 7. U oyog'ida zo'rg'a turardi. 8. Bemorning ahvoli ancha yengillashdi.

Topshiriq. Quyidagi suhbatni rollarga bo'lib o'qing.

SUHBAT

Lena:

– Dilnoza, biz «Ichki kasalliklar»ni o'tyapmiz.

– Yurak kasalliklarini. Yurak haqida juda ko'p narsalarni bilib oldik.

- Haqiqatdan ham, yurak har bir urishida taxminan 70 gr qonni haydar ekan.

– Ha, bir sutkada bu raqam 1000 litrni tashkil etadi. O'rtacha umr davomida esa 250 mln litr atrofidagi qonni haydaydi.

– Biz bu kasalliklardan revmatizm, endokarditlar, miokardit, perikardit, yurak ishemik kasalliklari, stenokardiya va boshqalarni o'tdik.

– Bular orasida eng ko'p tarqalgani yurak ishemik kasalliklari hisoblanadi.

– Yurakning ishemik kasalliklari kun tartibini to'g'ri tashkillashtirmaslik, ichkilikbozlik, toliqish, noto'g'ri ovqatlanish, kam harakatlilik, asab buzilishi tufayli kelib chiqadi.

– To'g'ri, Dilnoza, qiziqarli suhbat uchun rahmat!

Dilnoza:

– Qaysi turdagi kasalliklarni o'tyapsizlar?

– Ha, yurak tanamizdagi kuchli nasos.

- Unda bir sutkada bu raqam juda katta bo'lsa kerak.

– Ha, haqiqatdan juda katta raqam. Ammo so'nggi paytda yurak-qon tomir kasalliklari juda ko'paygan.

– Bular orasida eng ko'p tarqalgani qaysi kasallik hisoblanadi?

– Ular nima sabadan kelib chiqadi?

– Demak, bu kasallikning oldini olish uchun zararli odatlardan holi bo'lish va sog'lom turmush tarziga rioya qilish asosiy ahamiyat kasb etar ekan.

Topshiriq. E. Vohidovning quyidagi she'rini ifodali o'qing.

KARDIOGRAMMA

Kardiogramma,
 Nimadir bu xat?
 Nimalar demoqda yuragim zarbi?
 Nechun u ko'ksimda urinar faqat
 Parvozga talpingan tutqun qush kabi?
 Nechun tug'yon qilar,
 Ne istar ko'ngil,
 Ne der bu samandar – o't oshinosi?
 Ayting, shifokorim,
 Siz ko'z tikkan bul
 Turfa chiziqlarning nedir ma'nosi?
 Balki jon rishtasi degani shudir,
 Davomi umrimning so'nggiga tutash?
 Balki hayot yo'lim...
 Bu yo'l ham axir
 O'sha chiziqlarga juda ham o'xshash.

Topshiriq. Quyidagi matnни o'qing. Ravishlarning qo'llanishiga e'tibor bering.

YURAGI YO'Q BOLA (hajviya)

Bu voqea 4-kursda o'qib yurgan paytimda ro'y bergan. Bolalar kasalligidan eng qattiqqo'l va talabchan domla bizga dars berar edilar. "Yurakning tug'ma nuqsonlari" degan mavzuni muhokama qildik. Mavzuning o'zi juda murakkab, buning ustiga domlamiz uncha-muncha javobga qoniqavermaydilar.

Muhokamadan keyin kasal ko'rishga bo'limga chiqdik. Bir kasal bolani tepasiga borib: "Qani bu bolani yuragini eshitib ko'rib, keyin menga o'z fikrlaringizni aytasizlar, nazariy tomonini o'zlashtirmabsizlar, endi amaliyotni ko'ramiz," – dedilar. Hammamiz hayajonlanib, qo'rqib turibmiz. Domlamiz yana baqirib berdilar: "Sen, sen qilavermasdan. Tezroq eshitmaysizlarmi?" Shunda sal dadilroq guruhdoshimiz bolaning yuragini eshita boshladi. Uzoq eshitdi.

Ko'zlari ola-kula bo'lib edi, domlamiz: "Voy, hali siz yurakning qayerda joylashganini ham bilmaysizmi?" – deya urishib berdilar. U yana fonendoskopni chapga olib uzoq eshitdi va domlamizga qarab sekingina: "Domla, bu bolaning yuragi yo'qmi, hech narsa eshitilmayapti-ku?" – dedi. Biz ham, domlamiz ham hayron bo'lib, bolaga qarab turibmiz. Bola bo'lsa: "Aka, fonendoskopingizni qulog'ingizga tiqmadingiz-ku?" – dedi. Biz kulishimizni ham bilmay domlaga qaradik. Shunda domlamiz kulib yubordilar. Kulgiga biz ham qo'shildik. Ayniqsa, bemor bola qiyqirib-qiyqirib kular edi.

Nazorat savollari:

1. Qanday yurak kasalliklarini bilasiz?
2. Miokardit bu qanday kasallik?
3. Miokardit ko'pincha nimada uchraydi?
4. Harakatning vaqti, joyi, maqsadi, sababi va holatini bildiruvchi so'zlar qaysi turkumga mansub?
5. Holat ravishi qanday savollarga javob beradi?
6. Payt ravishi qanday savollarga javob beradi?
7. O'rin ravishi qanday savollarga javob beradi?
8. Miqdor va daraja ravishi qanday savollarga javob beradi?

18-MASHG'ULOT

NAFAS OLISH A'ZOLARI KASALLIKLARI. NAFAS OLISH A'ZOLARI

Qani og'zingizni yumib, burningizni qisib, nafas olmay turingchi. Bunday holatda siz bir necha sekundgina tura olasiz. Siz chuqur nafas olishingiz zarurligini sezasiz. Nafas organizmga kislorodning kirib turishi va hosil bo'lgan karbonat angidrid gazini organizmdan chiqarib tashlashni ta'minlovchi jarayonlar yig'indisidir. Sof havo bo'lmasa organizmdagi barcha tirik hujayralar nobud bo'ladi. Hujayralar uchun havo tarkibida bo'ladigan kislorod har doim zarur. Kislorod bo'lmasa, organizm ovqatdan o'z hayot faoliyati uchun zarur energiyani ololmaydi. Odam biror ishni bajarishga qanchalik ko'p kuch sarflasa, shu sarflangan kuchning o'rnini to'ldirish uchun - shunchalik ko'p kislorod kerak bo'ladi. Mana shuning uchun ham yu-

gurganimizda, sakraganimizda, jismoniy mashqlarni bajarganimizda nisbatan chuqur va tez nafas olamiz.

Nafas a'zolariga burun bo'shlig'i, halqum, hiqildoq, traxeya, bronxlar va o'pka kiradi. Burun teshigidan kirgan havo namlanib iliydi, havodagi chang zarralari va mikroblar shu yerda ushlanib qoladi, yuqumsizlantiriladi. Burun va halqumdan o'tib havo avval hiqildoqqa, keyin traxeyaga o'tadi. Traxeya hiqildoqning davomi bo'lib, uzunligi 9-11 sm li ikkita yo'g'on nay, bronxlarga bo'linadi, bronxlar o'pkaga kirib boradi. O'pka behisob mayda pufakchalar – alveolalardan iborat. Alveolalar devorini ko'zga ko'rinar-ko'rinmas kapillyarlar o'rab olgan.

Nafas olinganda o'pka kengayadi va alveolalar yangi havo bilan to'ladi. Alveolalarning kapillyarlaridan o'tayotgan qon jadallik bilan kislorodni o'ziga yutib oladi, karbonat angidrid gazi esa qondan havoga o'tadi va nafas bilan tashqariga chiqib ketadi. Kislorod bilan to'yingan qon arterial qonga aylanadi va o'pka venalaridan yurakning o'ng bo'lmasiga quyiladi. Katta yoshdagi odam o'pkasida 700 milliondan ortiq alveola bo'ladi.

LUG'AT

yumshoq	мягкий, нежный
ta'minlamoq	обеспечивать
ko'rinar-ko'rinmas	невидимый
sarflamoq	тратить, расходовать
kengaymoq	расширяться,
to'yinmoq	насыщаться
bajarmoq	выполнять

Bronxit

Bu kasallik bronxlar (asosan shilliq pardasi)ning yallig'lanishi bo'lib, nafas a'zolarining ko'p uchraydigan kasalliklaridan biridir. Bronxit o'tkir va surunkali bo'ladi. Kasallikni ko'pincha pnevmokokklar, gemolitik streptokokklar, stafilokokklar, gripp virusi va boshqalar keltirib chiqaradi. Sovqotish, spirtli ichimliklarni suiste'mol qilish, tamaki chekish, ba'zi kimyoviy moddalardan surunkali zabarlanish, yuqori nafas yo'llarida infeksiya o'chog'i borligi

(sinusit, gaymorit) ham o'tkir bronxitning rivojlanishiga olib keladi. Kasallik quruq yo'tal, to'sh atrofida og'riq, yuqori nafas yo'llarining o'tkir yallig'lanishlariga xos o'zgarishlardan boshlanadi. Muskullar qaqshab og'riydi. Ko'krak qafasida qisilish his qilinadi. Quruq yo'tal va balg'am ajralishiga olib keladi, harorat ko'tariladi. Davo boshlangandan bir necha kun o'tgach, kasallik o'tib ketadi. Ba'zan ancha-gacha cho'zilib, surunkali bronxitga aylanishi mumkin. Surunkali bronxit nafas a'zolarining eng ko'p tarqalgan kasalliklaridan bo'lib, ko'proq erkaklarda kuzatiladi. Kasallik ayniqsa keksalarda va bolalarda og'ir o'tadi. Bu kasallik yil fasliga qarab tez-tez qo'zib turadi. Yengil o'tganida bemor o'rnidan turmay yotishi, yaxshi ovqatlanishi, iliq ichimlik ichishi, oyoqlariga vanna qilishi uning ahvolini ancha yengillashtiradi. Og'ir kechgan hollarda bemor kasalxonaga yotqiziladi.

LUG'AT

kimyoviy moddalar - химические вещества

zaharlanish - отравление

to'sh atrofi - вокруг грудины

qaqshab og'gimoq - ломит

chang - пыль

sayr qilmoq - прогуливаться

o'tmoq - проходить

suiste'mol - злоупотребление

Yordamchi so'zlar – Служебные слова

Yordamchi so'zlar gap bo'lagi bo'lmaydi, ular so'zlar va gap bo'laklari orasidagi grammatik munosabatlarni ifodalash uchun, shuningdek, so'zlarga va gaplarga turli ma'no bo'yoqlarini berish uchun xizmat qiladi.

Yordamchi so'zlarga quyidagilar kiradi:

Ko'makchilar

Yuklamalar

Bog'lovchilar

Служебные слова не являются членами предложения, они служат для выражения грамматических отношений между словами и предложениями, а также различных оттенков значений слов и предложений.

К служебным словам относятся:

Послелози

Частицы

Союзы

Ko'makchilar (Послелогои)

Ot, son, olmosh, harakat nomidan keyin kelib, ularni boshqa so'zlar bilan bog'lashga xizmat qiladigan yordamchi so'zlar *ko'makchilar* deyiladi. Ko'makchilar bosh, qaratqich, jo'nalish va chiqish kelishigidagi so'zlardan keyin ishlatiladi. Ko'makchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof ko'makchilar
2. Ot ko'makchilar
3. Fe'l ko'makchilar

Sof ko'makchilar - faqat yordamchi vazifani bajaradigan so'zlardir. Masalan: *bilan, uchun, kabi*.

Ot ko'makchilar - ot va ravishlardan tashkil topgan so'zlardir. Masalan: *avval, keyin, tashqari*.

Fe'l ko'makchilar - yasalishiga ko'ra ra-vishdosh va sifatdosh shakllaridir. Masalan: *ko'ra, qaraganda, boshlab*.

Послелогом называется служебная

часть речи, которая употребляется после существительных, числительных, местоимений, имён действий и служит для связи их с другими словами. Послелогои употребляются после слов в именительном, родительном, дательном или исходном падежах. Послелогои делятся на следующие виды:

1. Собственно послелогои
2. Отыменные послелогои
3. Отглагольные послелогои

Собственно послелогои - это слова выполняющие только вспомогательную функцию *с, для, как*.

Отименные послелогои - это слова, образованные от имен или наречий. Например: *avval, keyin, tashqari*.

Отглагольные послелогои - это слова, являющиеся по своему образованию деепричастным или причастными формами. Например: *ko'ra qaraganda boshlab*.

Topshiriq. "Bronxit" matnidagi ko'makchilarni toping va turini aniqlang.

Topshiriq. O'zingiz bilgan nafas olish a'zolari kasalliklari haqida gapiring.

Mashq. Quyidagi ko'makchilar ishtirokida gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Burun, tashqari, keyin, ko'ra, qaraganda, uchun.

Mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va ko'makchi otlarni toping. Ularni qaysi kelishikda ekanligini aytib bering.

1. Он направился прямо во дворец. 2. Среди нас много отличников. 3. Что произошло между подростками. 4. Внутри крепости был черный дом. 5. Я его завтра пришлю к вам.

Mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'yib gaplarni ko'chiring va rus tiliga tarjima qiling.

1. O'ktam ham ularning orti.... bordi. 2. Olim akasining orqasi... ergashdi. 3. U yon.. o'tdi. 4. Bu darslik talabalar o'rtasi... shuhrat qozondi. 5. Gulnor qizni uy ichi... olib kirdi. 6. Rahim stol usti.... arani oldi.

Mashq. Gaplarni davom ettiring.

1. Uning gapiga qaraganda, 2. Bugundan boshlab, 3. Shifokorlar maslahatiga ko'ra, 4. Talaba bilim olishdan tashqari 5. Bahor yaqinlashgan sari 6. Tong yorishgunga qadar

Mashq. Quyidagi kasalliklar nomlari orasidan nafas olish a'zolari kasalliklarini bir ustunga, boshqalarini ikkinchi ustunga yozing.

Laringit, traxeit, allergiya, gripp, zotiljam, gepatit, seroz, gastrit, bronxial astma, plevrit, stomatit, sil, angina, bo'g'ma, meningit.

Mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

O'tkir pnevmoniyalar

O'tkir pnevmoniyalar uni chaqiruvchi infeksiya turiga qarab: bakterial, virusli, mikoplazmali, zamburug'li pnevmoniyalarga bo'linadi. Shuningdek, shifokorlar orasida pnevmoniyalarning krupoz va o'choqli (bronxopnevmoniya) turlariga bo'linishi saqlanib qolgan. Pnevmoniyalarda parhez ovqatlanish bemorning umumiy quvvatini oshirishga, organizmning immun xususiyatini kuchaytirishga, antibakterial preparatlarning yomon ta'sirini kamaytirishga, umuman, yallig'lanish jarayonining tezroq tugatilishiga qaratiladi.

Nazorat savollari:

1. Nafas olish tizimiga qaysi a'zolar kiradi?
2. Nafas olish a'zolarining vazifalari nimalardan iborat?
3. Nafas olish gigiyenasi haqida gapirib bering?
4. Nafas olishning necha turi bor?
5. Yordamchi so'zlar haqida so'zlab bering.

6. Ko'makchi va uning turlarini ayting.

7. Ko'makchilarning gapdagi vazifalari haqida nimalarni bilasiz?

19-MASHG'ULOT

SHARQ TABOBATI HAQIDA SUHBAT

Tibbiyot fanining rivojlanishida qadimiy Osiyo mamlakatlari-ning hissasi ham bor. Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o'simliklar bilan davolash keng tus olgan. Tibet tibbiyoti hind tibbiyoti yordamida rivojlandi. Mashhur «Djud-shi» («Shifobaxsh dori-darmonlar mohiyati») kitobi Tibet tibbiyotining asosini tashkil etadi. Xitoy xalq tabobati juda uzoq tarixga ega.

Sharq davolash usullarining asosiy xususiyati bemorning butun tanasi va shaxsiy resurslardan foydalanish, bemorni davolash jarayoniga faol jalb etishdan iborat. Bu esa bemorni emas, balki kasallikni davolash usulidir. Barcha shifokorlarning katta muammosi bo'lib qolgan dori allergiyasi, doriga qaramlik dorilarni kam qabul qilishga va ularsiz davolash yo'lini axtarishga majbur etadi. Shuning uchun ham, sharq davolash usullari dolzarb hisoblanadi. Sharq davolash usullari dunyoda tan olingan va iqtisodiy kamchiqimligi hamda salbiy ta'siri yo'qligi bilan afzal hisoblanadi.

Chjen - szyu-terapiya usulining nomi xitoy tilida quyidagi ma'noni bildiradi: "chjen" – igna sanchish va "szyu" - kuydirish. Chjen - szyu usulining asl ma'nosi shundan iboratki, u tananing ma'lum nuqtalariga davo maqsadida maxsus ignalar yordamida ta'sir etishdir.

Akupunktura nuqtasi – bu davolash maqsadida ta'sir etishning aniq sohasi. Nuqtalar alohida energetik tizimlar bo'lgan "kanallar" yoki meridianlar bo'ylab joylashgan. Bu kanallar o'zaro va ichki a'zolar bilan bog'langandir. Odam tanasida 14 ta doimiy meridianlar farqlanib, ularning 12 tasi juft, 2 tasi toq hisoblanadi. Juft meridianlar odam tanasidagi a'zolar nomlari bilan ataladi, toqlari – orqa, o'rta va old o'rta meridianlardir.

LUG'AT

o'simta – опухоль
 ikki boshli mushak – бицепс, двуглавая мышцы
 og'riq qoldiruvchi nuqta – обезболивающая точка
 tirsak – локоть
 bilak – предплечье
 kaft – ладонь

Topshiriq. Matnni o'qing. Ushbu matnda aks ettirilgan Abu Bakr ar Roziyning kuzatishlari bugungi kun uchun naqadar dolzarb deb o'ylaysiz?

Abu Bakr ar Roziy o'zining klinik kuzatishlarida johil tabiblar va bir to'da johil kishilardan ko'p zorlanadi. Johil tabiblar o'z nodonliklari bilan kasalni tuzatish o'rniga, uning ahvolini battarroq qilsalar, bir to'da johil kishilar kasal huzuridan ketmasdan Roziyning bemalol, erkin davolashiga xalaqit beradilar. Roziy ayrim hollarda, chunonchi kasalning uyiga borib ko'rayotganida uning atrofini o'rab olgan johil kishilar tufayli lozim bo'lgan yordamni ko'rsata olmaydi. Bu hol ayrim kasallarda ularning halokatiga sabab bo'ladi. Roziy soxta tabiblarning o'zboshimchalik yo'li bilan kasallarni davolashlariga qarshi turgan.

Yuklamalar (Частицы)

Yuklamalar	Частицы
<p>Yuklamalar yordamchi so'zlar va qo'shimchalar bo'lib, ular gap yoki uning alohida bo'lagiga qo'shimcha ma'no berish uchun xizmat qiladi. Yuklamalar quyidagi turlarga bo'linadi:</p> <p>1. So'roq va taajjub yuklamalari: <i>-mi, -chi, -a, ya;</i></p> <p>2. Aniqlov yuklamasi: <i>xuddi;</i></p> <p>3. Ta'kid va kuchaytiruv yuklamalari: <i>-ku, -u, -yu, -da, hatto, axir.</i></p> <p>4. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: <i>faqat, -gina, -kina, -qina.</i></p>	<p>Частицами называются служебные слова или аффиксы, придающие различные смысловые оттенки предложению или отдельным его членам. Частицы делятся на следующие виды:</p> <p>1. Вопросительные и побудительные частицы: <i>ли, ль, разве, -а, -ка, ведь;</i></p> <p>2. Уточняющие частицы: <i>как раз, точь -в- точь, точно;</i></p> <p>3. Усилительные и утвердительные частицы: <i>даже, в конце концов;</i></p> <p>4. Выделительные и ограничительные частицы: <i>только, лишь.</i></p>

Bog'lovchi va yuklamalar haqida ma'lumot

Bog'lovchilar	Союзы
<p>Bog'lovchilar sodda gaplarda gap bo'laklarini, qo'shma gaplarda sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir. Bog'lovchilar ikki xil bo'ladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Teng bog'lovchilar 2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar <p>Teng bog'lovchilar — sodda gaplarning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gaplarda teng munosabatli sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Teng bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:</p> <p>Biriktiruvchi bog'lovchilar: <i>va, hamda, ham;</i></p> <p>Zidlov bog'lovchilari: <i>ammo, lekin, biroq;</i></p> <p>Ayiruv bog'lovchilari: <i>yo, yoki, goh, dam.</i></p> <p>Ergashtiruvchi bog'lovchilar — ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar quyidagi turlarga bo'linadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maqsad va sabab bog'lovchilari: <i>chunki, shuning uchun;</i> 2. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: <i>go'yo, go'yoki;</i> 3. Shart va to'siqsiz bog'lovchilar: <i>agar, agarda, garchi.;</i> 	<p>Союзы — это служебные слова, связывающие между собой члены в простом предложении или простые предложения в сложном. Союзы бывают двух видов:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Сочинительные союзы 2. Подчинительные союзы <p>Сочинительные союзы — связывают однородные члены простого и равноправные части сложносочиненного предложения, Сочинительные союзы делятся на следующие виды:</p> <p>Соединительные союзы: <i>и, тоже, также;</i></p> <p>Противительные союзы: <i>но;</i></p> <p>Разделительные союзы: <i>или, то.</i></p> <p>Подчинительные союзы связывают придаточное предложение с главным. Подчинительные союзы делятся на следующие виды:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Союзы цели и причины: <i>потому что, чтобы;</i> 2. Сопоставительные союзы: <i>будто, якобы;</i> 3. Условно-уступительные союзы: <i>хотя, если, даже.</i>

Mashq. Sharq tabobatiga oid quyidagi matnni o'qing, gaplardagi bog'lovchilarni toping.

Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o'simliklar bilan davolash keng tus olgan. «Yajur -veda» («Hayot haqidagi fan») dorivor o'simliklar haqida yozilgan qadimiy hind kitobidir. Tibet tibbiyoti hind tibbiyoti yordamida rivojlandi. Mashhur «Djud-shi»

(«Shifobaxsh dori-darmonlar mohiyati») kitobi Tibet tibbiyotining asosini tashkil etadi. Xitoy tibbiyotining asoschisi bundan 3 ming yil oldin xoqonlik qilgan Shen Nung hisoblanadi. Uning kitobida o'simliklarning sinonim nomlari, botanik ta'rifi, dori-darmonning ta'sir doirasi, qo'llanishi va retseptlar ro'yxati keltirilgan.

Sharqning mashhur olimlari Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Buxoriylar ham tibbiyot fani rivojiga katta hissa qo'shdilar.

Mashq. Gaplarni o'qing, bog'lovchilarni toping va uarning turini aniqlang.

1. Tibetliklar juda qadim zamonlardan buyon hayvonning xom va pishirilgan qonini ovqat sifatida iste'mol qilar ekanlar. 2. Agarda bemorni og'riq bezovta qilsa, jarrohlik bo'limiga o'tkazish kerak. 3. Shunday shifokorlar bo'ladiki, ular bemorni ham shirin so'z bilan, ham dori-darmonlar bilan davolaydilar. 4. 8-palatada yotgan bemorning qon bosimi goh ko'tariladi, goh pasayadi. 5. Agarda bemorda sog'ayishga nisbatan o'zida ishonch bo'lmasa, unga hech qanday davo yordam bermaydi. 6. Maktab yoshidagi bolalarning ko'pchiligida umurtqa pog'onasining qiyshayishi hamda ko'zning yomon ko'rishi kabi holatlar uchraydi.

Mashq. Quyidagi bog'lovchi va yuklamalar ishtirokida gap tuzing.

Nahotki, -gina, -mi, faqat, axir, lekin, va, yo, agarda, toki, ham, shuning uchun, go'yoki, mabodo, dam..., dam...

Mashq. O'qing, matnni tarjima qiling. Gaplarda qatnashgan bog'lovchi va yuklamalarni toping.

Bolalar bo'limidagi hamma bolalar uyquda, faqatgina bir bola uyg'oq. Uni besh kun avval og'ir holatda mehribonlik uyidan tez yordam mashinasida olib kelishgan. Shifokorlarning hatti-harakatlari bilangina u ancha o'ziga keldi. Navbatchi hamshira bolaning uyg'oqligini bilib, uning yoniga keldi.

– Nega uxlamayapsan? Hech qayering og'rimayaptimi?

– Yo'q, ertak eshitgim kelyapti.

– Eshit, bo'lmasa, bundan ikki yuz yilcha avval Germaniyada Baron Myunxgauzen degan jasur soldat bo'lgan ekan. U soldatgina emas, hatto sayohatchi ham ekan. U shunday sarguzashtlarni boshidan kechirgan ekanki, eshitgan har bir odam kulgidan o'zini to'xtata olmas ekan. U do'stlariga qanday qilib tirik bo'rining ichak-chavog'ini ag'dar-to'ntar qilib tashlagani-yu, zambarak o'qida uchgani, uzun loviya poyasida hatto oyga tirmashib chiqib ketganini so'zlab berar ekan.

Hamshira bolaga ko'z tashladi-da, ustini yaxshilab yopib qo'yib, sekingina chiqib ketdi. Chunki bola uxlab qolgan edi-da, endi u ko'zlari yumuq, asta jilmayib yotar edi.

Siz qanday fikrdasiz? Hamshira to'g'ri yo'l tutdimi? Shu mavzuda suhbat uyushtiring.

Topshiriq. Quyidagi skanvorddan O'rta Osiyoning o'n nafar buyuk mutafakkiri nomlarini toping.

A	B	G	D	E	F	U	T	B	P	V	B	A	O	P	X
O	G	A	H	I	Y	T	Q	Z	B	M	U	N	I	S	L
Y	S	B	O	K	V	X	Q	J	B	Z	X	F	Y	E	D
G	O	Y	N	A	V	O	I	Y	G	S	O	I	F	B	N
U	V	B	O	B	U	R	X	A	N	X	R	Y	T	S	Z
G	O	N	I	L	F	A	R	G'	O	N	I	Y	D	H	P
O	T	E	R	M	I	Z	I	Y	T	I	Y	U	T	R	O
S	Q	I	E	I	O	M	A	R	G'	I	L	O	N	I	Y
X	B	I	B	N	S	I	N	O	S	E	R	Y	R	A	T
I	O	R	O	Z	I	Y	P	T	U	S	A	Q	B	I	B

Nazorat savollari:

1. Qaysi davlatlarda o'simliklar bilan davolash keng tarqalgan?
2. Abu Bakr ar Roziyning tibbiyotga qiziqishiga nima sabab bo'lgan?
3. Nima uchun Abu Bakr ar Roziyni turli hukmdorlar o'z poytaxtlariga taklif qiladilar?
4. Sharqning qaysi mashhur olimlari tibbiyot fani rivojiga katta hissa qo'shdilar?
5. Bog'lovchilarning qanday turlari bor?
6. Qanday bog'lovchilar teng bog'lovchilar deyiladi?
7. Biriktiruv bog'lovchilariga qaysi bog'lovchilar kiradi?
8. Zidlov bog'lovchilariga qaysi bog'lovchilar kiradi?
9. Ayiruv bog'lovchilariga qaysi bog'lovchilar kiradi?
10. Chunki, shuning uchun bog'lovchilari qaysi bog'lovchilarga kiradi?

20-MASHG'ULOT

KASBIY DEONTOLOGIYA

Deontologiya yoki deontolgik etika qadimiy yunon tilidan olingan bo'lib, zaruriy ma'nosini anglatadi. Deontologiya axloq-odob haqidagi fandır. Demak, kasbiy deontologiya har bir kasbning etik me'yorlari haqidagi fan hisoblanadi. Tibbiyot xodimlarning tibbiy kasbiy etikasi davoni maksimal foydaliligini oshirishga qaratilgan xulq-atvor tamoyillaridir.

Deontologiya shifokorlik sirini saqlashni, tibbiyot xodimining bemor hayoti va sog'ligi uchun mas'uliyatini, tibbiy xodimlarning o'zaro munosabati masalalarini o'z ichiga oladi. Deontologiyaga ko'ra tibbiyot xodimlari bemorga nisbatan nihoyatda e'tiborli bo'lishi va ularning salomatligini tiklash uchun bor bilim va mahoratini, e'tiborini sarflashlari lozim. Bemorni uning sog'ayishiga foyda beruvchi ma'lumotlardan xabardor qilish kerak.

Shifokorlik kasbi yuksak ma'naviyatli bo'lishni talab qiladi. Shifokorning yuqori ma'naviyatli bo'lishi uning pok axloqiy qiyofasi bilan chambarchas bog'liqdir. Yaxshi inson bo'lmagan odam yaxshi shifokor bo'lolmaydi. Yaxshi, komil inson - bu ta'magirlik, qalloblikdan

holi bo'lgan, samimiy, olijanob odamdir. U o'z atrofida gilariga yaxshilik istovchi, ularning tashvish va quvonchlarini tushunuvchi, kerak bo'lsa vaqtini ayamay, so'zi va ishi bilan beg'araz yordam beruvchi, odamlarni sevuvchi shaxsdir. Odamoxunlik va xushmuomalalik yaxshi shifokor uchun o'ta muhim bo'lgan sifat hisoblanadi.

Bemorning yonida shifokor hamkasblari bilan so'zlashganda tushunarli bo'lmagan tibbiy iboralarni ishlatmasligi kerak. Aks holda bemor buni o'zicha tushunishi yoki noto'g'ri talqin qilib shubhaga tushishi mumkin.

Shuni yodda tutish kerakki, og'ir kasalliklar va tanada qaytib ketmaydigan o'zgarishlar qayd qilinsa ham (*saraton kasalligi, buyrak va jigar faoliyati buzilishining tuzalmas turlari va sh.k.*) bemorga haqiqatni aytmaslik kerak, chunki u tuzalib ketishga umid bog'laydi. Va shu umidni shifokor eng og'ir hollarda ham bemorning ko'ngliga solishi lozim. Ko'pincha bunday paytlarda bemor dardi bedavo ekani, bemorning hayoti tugab qolganini shifokorlar uning eng yaqin va yoshi ulug'roq qarindoshi yoki do'stiga ma'lum qiladilar. Lekin bu holda ham juda ehtiyot bo'lish kerak, sirdan voqif bo'lgan shaxs uni bemorga va boshqalarga oshkor qilmasligi shart.

Shifokorlar orasidagi o'zaro munosabat bemor foydasi uchun bir-birini qo'llab-quvvatlashga va birgalashib yordam berishga asoslangan bo'lishi kerak. Boshqa shifokorning ishida kamchilik sezilsa, shifokor bemorga bilintirmay uni tuzatib yuborishi ham farz, ham qarz.

LUG'AT

ta'magirlik - корысть
 axloq - этика, мораль
 chambarchas - неразрывно
 hamkasb - коллега

bedavo - неизлечимый
 saraton - рак
 talqin - тракторка
 shubha - сомнение

Topshiriq. Matnni tarjima qiling va qisqacha mazmunini so'zlab bering.

Topshiriq. Matnga savollar tuzing.

Topshiriq. Lug'atdagi so'zlardan foydalanib 6 ta gap tuzing.

Modal so'zlar (Модальные слова)

<p>Modal so'zlar bayon qilinayotgan fikrga so'zlovchining munosabatini bildirgan so'zlar. Ular quyidagi ma'nolarni bildiradi:</p>	<p>Модальные слова выражают отношение говорящего к высказываемой мысли. Они выражают следующие смысловые оттенки:</p>
<p><u>Ishonch munosabati:</u> shubhasiz albatta</p> <p><u>Gumon:</u> ehtimol balki chamasi</p> <p><u>Tasdiq:</u> haqiqatdan darhaqiqat bor mayli xo'p to'g'ri</p> <p><u>Xulosa:</u> demak xullas modomiki</p> <p><u>Achinish:</u> afsus attang esiz</p> <p><u>Inkor:</u> yo'q</p>	<p><u>Ясность мысли:</u> несомненно, безусловно обязательно</p> <p><u>Сомнение:</u> вероятно, возможно может быть, возможно, что по-видимому, видимо</p> <p><u>Утверждение:</u> действительно, поистине действительно, на самом деле есть, имеется, существует ладно хорошо, ладно совершенно верно, правда</p> <p><u>Итог:</u> значит одним словом, короче говоря так как, ввиду того, что</p> <p><u>Сожаление:</u> жаль, к сожалению как жаль, вот досада жаль, как жаль, жалко</p> <p><u>Отрицание:</u> нет, не имеется</p>

Undov so'zlar (Междометия)

Undov so'zlar — his-hayajon, tuyg'uni, haydash-chaqirishni bildirish uchun xizmat qiladi. Undov so'zlar ikki guruhga bo'linadi:

1. His-hayajon undovlari kishilar-ning quvonchi, qo'rquv, rohatlanish, rozilik, norozilik va boshqa shu kabi hissiyotlarni ifodalaydi. Masalan: *e, eh, ey, aha, ah, uf, uh, hey, ha, o'ho', ura...*

2. Buyruq-xitob undovlari kishilar-ning diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish va to'xtalish uchun qo'llaniladi. Masalan: *tu-u-tu, beh-beh, pisht, kisht, qurey-qurey, bah-bah, chu...*

Междометия — служат для выражения различных чувств и волевых побуждений. Междометия подразделяются на две группы:

1. Эмоциональные междометия выражают чувства радости, страха, удовольствия, одобрения, сожаления и т.д. Например: *e, eh, ey, aha, ah, uf, uh, hye, ha, o'ho', ura...*

2. Побудительные междометия служат для призыва, зова, оклика и отгона животных. Например: *tu-u-tu, beh-beh, pisht, kisht, qurey-qurey, bah-bah, chu...*

Taqlidiy so'zlar (Звукоподражательные слова)

Taqlid so'zlar atrofimizni o'rab turgan muhitda eshitiladigan turli xil ovoz (tovush)larni so'zlar yordamida qayta tiklaydi, ya'ni real voqelik tovushlarini til vositalari yordamida o'xshatib beradi. Masalan: *pichir-pichir, shildir-shildir, shuv-shuv va hokazo.*


Taqlidiy so'zlar gapda ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol o'rnida qo'llanilishi mumkin. Masalan: *Sinfdan bolalarning qiy-chuvlari eshitilardi.*

Звукоподражательные слова представляют собой словесное воспроизведение различных звуковых явлений окружающей среды, то есть имитацию звуков реальной действительности языковыми средствами. Например: *pichir-pichir, shildir-shildir, shuv-shuv* и т.д.

Звукоподражательные слова в предложении могут употребляться в роли подлежащего, сказуемого, определения, дополнения, обстоятельства.

Например: *Sinfdan bolalarning qiy-chuvlari eshitilardi* — Из класса были слышны крики детей. (в роли подлежащего)

G'ir-g'ir shabada esmoqda. — Дует приятный ветерок. (в роли определения)



Topshiriq. Quyidagi matnni o'qib, rus tiliga tarjima qiling.

Ustoz jazosi

Har bir kasalga nihoyatda e'tibor bilan qarash zarurligini, shu bilan birga shifokorlik kasbida loqaydlik, bugungi ishni ertaga qoldirish mumkin emasligini Sodiq Aliyevich o'z namunasida ko'rsatar, ammo shundaylarga nihoyatda rahm-shafqatsiz edilar.

O'sha paytda klinik ordinator Karimjonga ham o'n sakkizta kasal biriktirilgan edi. Har kuni kundalik yozish, kasallik tarixini to'ldirish kerak. Bir kuni odatdagidek kasallarni ko'rish uchun kasallik varaqalari turadigan papkasini qidirsam, papka yo'q.

– Mening papkam qani? – so'radi u, bosh hamshira Anna Moiseyevadan.

– Papkang Sodiq Aliyevichda. O‘zlari kasallarni ko‘rib chiqyaptilar, – dedi u. Karimjonning ranglari o‘zgardi. Ha, u ustozini nimadan jahli chiqishini darrov sezdi. O‘n sakkiz bemordan 2 nafariga kundalik yozilmagan edi. Bir necha kun Sodiq Aliyevich bir og‘iz ham gapirmadi. Kasallarni faqat o‘zi ko‘rdi. Karimjon uchun bundan ortiq jazo yo‘q edi. Ana shu jazo uni har bir ishni o‘z vaqtida qilishga o‘rgatdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mashq. Matnni davom ettiring.

Shifokor ma‘naviyati

Shifokorlik kasbi undan yuksak ma‘naviyatli bo‘lishni talab qiladi. Shifokorning yuqori ma‘naviyatli bo‘lishi uning pok axloqiy qiyofasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Yaxshi inson bo‘lmagan odam, yaxshi shifokor bo‘la olmaydi. Yaxshi, komil inson – bu ta‘magirlik, qalloblikdan holi bo‘lgan, samimiy, olijanob odamdir. U o‘z atrofidagilariga

Mashq. Gaplarni o‘qing, modal so‘zlarni topib, ma‘nosini izohlang.

1. Darhaqiqat, ular o‘z xalqi uchun ulug‘ ish qildilar. 2. Baxtimizga, shifokor ilmi ekan. 3. Ehtimol, ustaning xatosi uchun meni aybdor qilarsiz. 4. Xullas, ishimiz tezda bitdi. 5. Bu xat, shubhasiz, Gulnoraniki.

Mashq. Quyidagi modal so‘zlar ishtirokida dialoglar tuzing.
Ho‘sh, bo‘pti, rost, mumkin, darvoqe, attang.

Mashq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling, undovlarni ko‘rsating va ma‘nosini tushuntiring.

1. Ах, надо бы тебя проучить! 2. Ух, как больно! 3. Ну и ну, какое высокое здание! 4. Киш! Киш! Пошли гуси с крыльца! 5. Баю-бай, закрой ты глазки. 6. Эй, ты тоже подумай!



Mashq. Gaplarni ko'chiring. Undovlarning turini va ma'nosini aniqlang.

1. Voy-bo'y, intizomli talabalar ham shunaqa bo'ladimi? 2. Uf, bugun shunaqa boshim og'ridi. 3. Uzoqdan "qurey-qurey" degan ovoz eshitildi. 4. Hoy bola, qayerdan kelding, o'zing? 5. O'xo', bugun ancha kasal kelibdi-ku!

Mashq. Nuqtalar o'rniga mos keladigan taqlidiy so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. Ko'chadan qadam tovushi eshitildi.
2. Bola choyni qilib ichdi.
3. Hayajondan yuragim urardi.
4. Ariqdan suv oqardi.
5. Bola qo'rqqanidan titrardi.
6. Qizcha etib ko'zdan g'oyib bo'ldi.
7. Onamning ko'zlaridan yosh oqardi.
8. Osmonda chaqmoq chaqdi.
9. Chumchuqlar etib don izlashardi.
10. Bemor birdan hushini yo'qotib..... etib yiqildi.

So'zlar: gurs-gurs, chirq-chirq, gurs, yalt-yult, mo'lt-mo'lt, lip, dir-dir, shildir-shildir, duk-duk, qult-qult.

Mashq. Quyida berilgan gaplardagi fe'llarning o'zagi qanday taqlidiy so'zlardan tuzilganligini aytib bering.

1. Eshik qattiq taqilladi. 2. Bemor kuchli og'riqdan tinmay ingrardi. 3. Alisherning oyog'idagi yarasi sim-sim og'ridi. 4. Operatsiyadan so'ng sharillab oqqan qonni zo'rg'a to'xtatishdi. 5. Vaqirlagan qurbaqa, nega afting bunaqa? 6. Yurak dukillab urdi. 7. Qizcha dugonasining qulog'iga bir nima deb pichirladi. 8. Gulnozaning qovog'i asabdan lipillab ucha boshladi.

Mashq. Gaplarda qatnashgan modal so'zlarni topib, ularning qanday ma'noda qo'llanganini aytib bering.

1. Albatta, har qanday dorini tartibsiz ichish ham bo'lavermaydi.
2. Shifokorning barcha tavsiyalari to'g'ri, shubhasiz.

3. Demak, bu davolanish maskani oshqozon-ichak kasalliklarini davolar ekan-da.

4. Balki, kecha qilingan muolajalar bugun o'z ta'sirini ko'rsatar?

5. Afsus, u kasallik tashxisini juda kech bildi.

6. Aytgandek, bemorning haroratini o'lchash esimdan chiqib ketibdi.

7. Yo'q, bu gal men barcha muolajalarni qabul qilaman.

8. To'g'ri, men ham shu retseptni aytgan edim.

Nazorat savollari:

1. Modal so'zlar deb qanday so'zlarga aytiladi?

2. Undov so'zlar necha guruhga bo'linadi?

3. Taqlidiy so'zlar deb nimaga aytiladi?

4. *Pichir-pichir, gurs-gurs* qanday so'zlar?

5. *Ehtimol, albatta, shubhasiz* so'zlari qaysi yordamchi so'zlarga kiradi?

21-MASHG'ULOT

PEDIATRIYA

Pediatriya klinik tibbiyotning bir bo'limidir. Bu fan bolalar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq holda, ularda uchraydigan kasalliklarning kelib chiqishi, patogenezi, klinik kechishi, davolash va profilaktikasini o'rganadi. Pediatriyaning asosiy yo'nalishi bolalar kasalliklarining oldini olishdir. Bolalar kasalliklari va o'limini kamaytirish zamonaviy pediatriyaning muhim vazifasidir. Bu vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi pediatrlarga bog'liq. *Pediatr* so'zi yunoncha "*paedion*" bola va "*iatria*" davolash so'zlaridan olingan. *Pediatr* bolalardagi ichki (somatik) kasalliklarni aniqlovchi, oldini oluvchi, davolash bilan shug'ullanadigan mutaxassis shifokordir.

Pediatriya sohasidagi bilimlarning ildizi qadimiydir. Hindiston, Xitoy, qadimgi Misr, Bobil, Assiriyaga tegishli bo'lgan qo'lyozmalarda bolani ko'krakdan emizish va parvarishlash haqida ma'lumotlar uchraydi. Bolalarni ovqatlantirish, parvarish qilish, ba'zi bolalar kasalliklarini davolash to'g'risida ayrim fikr va maslahatlar Gip-

pokrat, Galen, Abu Ali ibn Sino va boshqalar asarlarida uchrasa ham, pediatriya XIX asrning ikkinchi yarmida mustaqil fan sifatida shakllandi. Bag'dodlik shifokor ar-Roziy o'z ishlarida bolalarni davolash haqida so'z yuritgan bo'lsa, ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlarida bolaning yoshiga qarab patologik va fiziologik o'zgarishlar yuzasidan fikr bildirilgan.

LUG'AT

davolamoq - лечить

ichki kasalliklar - внутренние болезни

bo'lim - отделение, раздел

shug'ullanmoq - заниматься

zamonaviy - современный

uchramoq - встречаться

go'dak - грудной ребёнок, младенец

aniqlamoq - уточнять, выяснять,

yo'nalish - направление

Topshiriq. Qizamiq matni asosida moslikni toping.

1.	Qizamiq	kuchli mikroskop vositasida ko'rish mumkin bo'lgan virusdir.
2.	Qizamiq bilan	bemor yo'taladi, harorati ko'tariladi, burni oqadi.
3.	Qizamiq epidemiyasi har 2-4 yilda	issig'i tusha boshlaydi
4.	5 oygacha bo'lgan chaqaloqlarga	katta shaharlarga hujum qilib turadi.
5.	Qizamiq yuqqanidan so'ng 10-12 kun o'tgach	hayotda bir marta kasal bo'lish mumkin
6.	Toshma toshgan zahoti	qizamiq yuqmaydi.
7.	Qizamiqning sababchisi.....	yuqumli kasallik.

Topshiriq. Qizamiq yuqtirgan bolaning onasi va shifokor o'rtasidagi dialogni shifokor savollari bilan to'ldiring.

—

— Bolamning isitmasi ko'tarilib, burni oqa boshladi.

—

— Bog'chaga boradi.

—

— 6 yosh.

-
- Yo‘q, faqat issig‘i ko‘tarilganda ko‘proq suyuqlik ichirdim, badanini spirt bilan artdim, xolos.
-
- Yo‘q, oilada boshqa farzandlarim bunday kasallik bilan og‘rimagan.
-
- Bu farzandim hali qizamiqqa qarshi emlanmadi.
-
- Toshma kun sayin badanining hamma joylariga tarqalyapti.
-
- Bog‘chaga ma‘lumotnoma berasizmi?
-
- Xo‘p, rahmat.
-

Topshiriq. Quyidagi dialogni rollarga bo‘lib o‘qing.

- Assalomu alaykum, mumkinmi?
- Vaalaykum assalom, keling. Sizni nima bezovta qilyapti?
- Immunitetim pastligi tufayli tez-tez shamollayman. Immunitetni mustahkamlovchi dorilar ham ichdim, foydasi bo‘lmadi.
- Immunitetni mustahkamlash uchun shifokor tavsiyasisiz, o‘zicha pala-partish dorilarni qabul qilish organizm uchun qanchalik zarar ekanligini bilasizmi? Immun tizimi bunday davolashdan keyin qayta tiklanmasligi ham mumkin.
- Immunitet o‘zi nima?
- Immunitet bu organizmning yagona himoyasidir. U bakteriya va viruslarga qarshi kurashadi, begona hujayralarni o‘ldiradi. Sport bilan shug‘ullanish, toza havoda sayr qilish, ayniqsa, to‘g‘ri ovqatlanish organizmda immunitet uchun muhim oq qon tanachalari ishlab chiqarilishini ko‘paytiradi.
- Men unda dorilar o‘rniga qanday foydali mahsulotlarni qilganim ma‘qul?
- Siz qanday ovqatlanasiz?



– Ko‘pincha ko‘chada tez tayyorlanadigan fastfud, gamburgerlar iste‘mol qilaman.

– Kafe, restoranlarda tez tayyorlanadigan bunday gamburger va kartoshkalar bir necha marotaba ishlatilgan yog‘da qovurilganligi tufayli organizm uchun juda zararli. Unda oshqozon - ichak trakti kasalligiga olib keluvchi kanserogen hosil bo‘ladi. Shuning uchun hech qachon ko‘chada tayyorlanadigan ovqatlarni yemaslik kerak.

– Immunitetim mustahkam bo‘lishi uchun nima qilishim kerak?

– Immunitet mustahkam bo‘lishi uchun ovqat ratsioni, ayniqsa, oqsil, vitamin va minerallarga boy bo‘lishi kerak. Agar allergiyangiz bo‘lmasa, har doim sizning stolingizda dengiz mahsulotlari, go‘sht, baliq, tuxum, dukkaklilar, sut va sut mahsulotlari, ko‘katlar, meva-sabzavotlar bo‘lishi kerak. Bularning hammasi kuchli immunitet garovi!

– Rahmat. Tavsiyalaringsizga amal qilaman.

O‘zbek tili sintaksisi.

Gap.

Gapning ifoda maqsadlariga ko‘ra turlari

(Предложение. Виды предложений по содержанию)

<p>Tugal fikr bildirgan so'z yoki so'zlar birikmasi gap deyiladi. Gapning ifoda maqsadlariga ko'ra 4 ta turi bor:</p> <p>1. Darak gaplar biror voqea hodisa haqidagi xabarni yoki tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi. Masalan: <i>Bahor keldi.</i></p> <p>2. So'roq gaplar suhbatdoshidan ma'lumot olish uchun ishlatiladi. Masalan: <i>Kim keldi? Sen borasanmi?</i></p> <p>3. Buyruq gaplar: Buyruq gaplar talab, buyruq, maslahat, iltimos, taklif ma'nolarini bildiradi. Masalan: <i>Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma.</i></p> <p>4. Undov gaplar alohida intonatsiya bilan aytiladi. Masalan: <i>Biz tinchlik istaymiz! Bu qo'shimcha ma'lumot. Undov gaplar haqidagi asosiy ma'lumotni bering.</i></p>	<p>Отдельное слово или словосочетание, выражающее законченную мысль, называется предложением. По содержанию предложения делятся на 4 вида:</p> <p>1. Повествовательные предложения содержат утвердительное или отрицательное сообщение о каком либо факте. Например: <i>Пришла весна.</i></p> <p>2. Вопросительные предложения употребляются для получения информации от собеседника. Например: <i>Кто пришел? Ты пойдешь?</i></p> <p>3. Побудительные предложения выражают требование, приказ, совет, просьбу, пожелание. Например: <i>Если не можешь делать добро, не делай зла.</i></p> <p>4. Восклицательные предложения произносятся с особой интонацией. <i>Мы хотим мира!</i></p>
--	--

Mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib ko'chiring va gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini ayting.

1. Dunyoda shifokorlik kasbidan a'lo kasb.....	yaxshi emas.
2. Bemorning taqdiri – shifokorning.....	nefrit, magnit va pnevmoniyaga sabab bo'ladi.
3. Bemorning ishtahasi.....	qo'lida.
4. Insoniyat qadimdan turli kasalliklarni davolashda shifobaxsh o'simliklardan.....	yaxshimi?
5. Bemorlarning his-tuyg'ulari va o'y-xayollari, orzu-umidlari va kelajak ishlari, hamma-hammasi.....	yo'q.
6. Suvchechak kamdan-kam hollarda.....	foydalanishi kerak.
7. Inson tabiatning bir qismi bo'lganligi uchun tabiat ne'matlaridan.....	foydalanib kelgan.

Mashq. Quyidagi darak gaplarni so'roq gaplarga aylantiring.

1. Dizenteriya bolalarda uchraydigan barcha yuqumli kasalliklarning 70 foizini tashkil etadi. 2. Raxit – organizmda kalsiy va

fosfor almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. 3. Gastroenterit kasalligi ko'proq maktab yoshidagi bolalarda uchraydi. 4. Bolalarda bronxial astma nafas bo'g'ilishi xurujlari bilan kechadi. 5. Epidemik parotitning qo'zg'atuvchisiga qarshi o'ziga xos kurash vositalari yo'q. 6. Poliomielitga chalingan bolalar va uning virusini tashib yuruvchilar kasallikning asosiy o'chog'i hisoblanadi. 7. Bolalar gemolitik kasalligi 3 xil klinik turda uchraydi: anemik, sariqlik va shishli. 8. Daun kasalligida bolaning kallasi yapaloq, orqa tomoni yassi, chakka suyaklari oldinga chiqqan va burni kichik bo'ladi.

Mashq. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang.

1. Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti 1972-yilda tashkil topgan. 2. Toshkent Tibbiyot akademiyasi 2005-yilda tashkil etilganmi? 3. Har qanday odamga tibbiy yordam ko'rsatish har bir shifokorning burchidir. 4. Men tibbiyot kollejida o'qiganman. 5. Bemorning, ahvoli yaxshimi? 6. Bemorga darhol qon quyilsin! 7. Vitaminlar organizm uchun juda zarur. 8. Siz tish shifokori qabuliga yozildingizmi?

Mashq. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang.

1. Chaqaloqlarda qon tomirlarining devori nafisroq bo'lib, uning egiluvchan mushak to'qimasi zaif rivojlangan. 2. Bolangizning holatida sizni nima bezovta qilyapti? 3. Yo'tal qachon boshlandi? 4. Bemorning isitmasi tushdimi? 5. Bola ko'kyo'tal va qoqsholga qarshi emlanganmi? 6. Darhol bemorni operatsiyaga tayyorlang! 7. Dorilaringni ich. 8. Chaqaloqlar pnevmoniyasi eng xavfli kasallik hisoblanadi. 9. Qizamiq virusi bemor yo'talganda, aksirganda yoki gapirganda havo tomchilari orqali sog'lom bolalarga yuqadimi? 10. Bolaning nafas olishi fonendoskop bilan eshitib ko'rildi.

Mashq. Gaplarni ko'chiring va buyruq mazmuni qaysi shaxsga qaratilganini ayting.

1. Shunday yashaginki, sen bo'lsang Sharqda, seni duo qilsin

odamlar G'arbda. 2. Agar senda aqldan biron satr bor, umring bir lah-zasin o'tkazma bekor. 3. Ilm agar oz bo'lsa ham hech etma xor, oz ilmning ham buyuk qiymati bor. 4. Biliming osmonga yetgan bo'lsa ham, boshqalar ilmiga quloq sol har dam. 5. "O'zingga ko'rmasang ravo, birovga ham berma ozor", – buni juda yaxshi aytdi xo'jasiga bir xizmatkor. 6. O'zgalar aybiga tetik nazar sol, o'z aybing ko'rgandek, undan ibrat ol.

Topshiriq. Quyidagi jadvalning o'ng ustunini javoblar bilan to'ldiring. Inson sog'lom bo'lishi uchun nima qilish kerak?

- Immunitet mustahkam bo'lishi uchun nima qilish kerak?
- Yana nima qilishi kerak?
- Yana-chi?
- Inson ko'p kasal bo'lmasligi uchun nimalar qilishi kerak?
- Qaysi kasalliklarga qarshi vaksinalar qilinadi?

Nazorat savollari:

1. Pediatriya nimani o'rganadi?
2. Pediatriyaning asosiy yo'nalishi nima?
3. Pediatr so'zining ma'nosi nima?
4. Qaysi Sharq allamolari o'z asarlarida bolalar kasalliklari haqida so'z yuritganlar?
5. Qaysi kasalliklar bog'cha va maktab yoshidagi bolalarda ko'p uchraydi?
6. Gap deb nimaga aytiladi?
7. O'zbek tilida gaplar ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
8. Darak gapning so'roq gapdan farqi nimada?
9. Undov gaplarning oxirida qanday tinish belgisi qo'yiladi?

22-MASHG'ULOT

STOMATOLOG QABULIDA

Stomatolog:

Bemor:

– Assalomu alaykum, xizmat, qanday shi- – Tishim og'riyapti.
koyatingiz bor yoki nima bezovta qilyapti?

- Tishingiz nimadan va qachon ko'proq og'riyapti? Og'riq issiq yoki sovuqqa kuchayadimi yoki o'z-o'zidan og'riydimi? – Bilmayapman. Kovaksimon bo'lib qolgan jag' tishim ham lo'qillab og'riyapti va kechasi kuchayadi.
- Ilgari stomatologda davolanganmisiz? Og'zingizni oching, tekshirib ko'ramiz. – Yo'q, davolanmoqdaman.
- Qo'rqmang. Biz og'riqsizlantirib, keyin sizga ozor bermay tishingizni davolaymiz. – Juda qo'rqib ketyapman. Muolaja paytida yanayam og'riq kuchaymaydimi?
- Tishning kovagiga bo'r mashina bilan ishlov beriladi.
- Bu tishingizdan tashqari boshqa tishlaringizni va milkingizni davolatishingiz kerak. Og'iz bo'shlig'i gigiyena qoidalariga rioya qiling. Bu eslatmada gigiyena qoidalari yozilgan. Stomatologning ko'rigiga 1 yilda 2 marta kelishingiz shart. Salomat bo'ling!
- Tishimni davolab bo'ldingizmi? Men hech narsa sezmadim, rahmat.

Topshiriq. “Stomatolog va bemor” mavzusida rolli o'yin uyushtiring.

Topshiriq. “Tish parvarishi” nomli matn tuzing.

Gapda so'z tartibi (Порядок слов в предложении)

O'zbek tilida sodda yoyiq gap bo'laklari quyidagi ketma-ketlikda joylashadi.

Payt holi, o'rin holi, ega, to'ldiruvchi, ra-vish holi, miqdor-daraja holi, sabab holi, kesim. Masalan: *Kecha' teatrdan men' eng yaqin dugonamni' to'satdan' uchratib qoldim*⁶.

Gapda so'z tartibi muhim ahamiyatga ega. Uning o'zgarishi gap mazmunining o'zgarishiga olib keladi. Masalan:

Ko'm-ko'k osmon. (so'z birikmasi)

Osmon ko'm-ko'k. (gap)

В узбекском языке члены простого распространенного предложения обычно располагаются в следующей последовательности. Обстоятельство времени, обстоятельство места, подлежащее, дополнение, обстоятельство образа действия, обстоятельство меры, обстоятельство причины, сказуемое. Например: *Kecha' teatrdan men' eng yaqin dugonamni' to'satdan' uchratib qoldim*⁶.

Порядок слов в предложении играет существенную роль. Его изменение приводит к изменению смысла предложения. Например:

Голубое небо. (словосочетание)

Небо голубое. (предложение)

Topshiriq. Quyidagi og'iz bo'shlig'i kasalliklaridan biriga ta'rif bering.

Stomatit, pulpit, periodontit, karies, odontit

Mashq. So'zlar tartibini to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

1. Organizmi, chekadiganlar, zaharlanadi, odamlarning 2. Gipnoz, bildiradi, ma'noni, uyqu, degan, yunoncha. 3. Gipnozda, ketadi, odam, uyquga, sun'iy. 4. Ongli, va, bo'ladi, ongsiz, bosh, pog'onasi, miyaning. 5. Xitoyda, igna, qadimdan, sanchib, davolash, kelinadi, foydalanib. 6. Shiatsu, davolash, Yaponiyaning, usulidir, tarqalgan, keng. 7. Yetishmasligi, havo, deyiladi, gipoksiya. 8. Uchraydi, qo'l, kishilarda, titrashi, hamma, deyarli. 9. Farq, shaytonlash, qiladi, tutqanoqdan. 10. Surma, kasalliklarga, ba'zi, davodir. 11. A.S.Pushkin, she'rlarini, ayrim, uyqusida, ekan, yaratgan. 12. Nikotin, qon-tomir, sistemasining, izdan, chiqaradi, faoliyatini.

Mashq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

O'zbekistonning SERGOL DENTAL va Italiyaning FONA kompaniyasining innovatsion CAD CAM uskunasi o'ratildi. Bu uskuna yordamida tish protezlari bilan protezlashda qolip olinmasdan, to'g'ridan-to'g'ri og'iz bo'shlig'idan og'iz skaneri yordamida o'lchovlar olinadi. Kompyuterda bo'lajak protez konstruksiyasi yaratiladi va maxsus frezer uskunasi yordamida tayyor metal, sirkoniy dioksidi, silikat bloklaridan protezlar 10-15 daqiqada tayyor bo'ladi.

Yangi innovatsion texnologiya yordamida bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifati oshadi, bemorning shifokorga qatnov soni kamayadi.

Mashq. Gaplardagi so'zlarning joylashishini namuna asosida yozing.

Bu bino tez qurildi. (Aniqlovchi – ega – hol – kesim)

1. Kechqurun bemorning ahvoli ancha yaxshilandi. 2. Operatsiyadan oldin bemorga qon quyildi. 3. Har bir odam shaxsiy gigiyena

qoidalariga rioya qilishi kerak. 4. Raxit kichik yoshdagi bolalarda uchraydigan kasallikdir. 5. Yosh bola va o'smirlarning ovqati sifatli, to'yimli va xilma-xil bo'lishi kerak.

Mashq. Quyidagi "У стоматолога" suhbatini o'zbek tiliga tarjima qiling.

Доктор: Доброе утро. Чем могу быть вам полезным? Что вас беспокоит?

Пациент: У меня болит зуб. Он меня беспокоит и днем и ночью.

Доктор: Сейчас я осмотрю вас. Откройте рот пошире. Который зуб?

Пациент: Вот этот слева. Вы его вырвете?

Доктор: Нет но пока ещё не слишком поздно для того, чтобы попробовать его лечить. Сейчас положу в зуб специальное лекарство. Затем вы подойдете ко мне через два дня в это же время. Я поставлю пломбу.

Пациент: Большое спасибо, доктор.

Доктор: Не стоит благодарности.

Пациент: До свидания.

Доктор: До свидания.

Mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib ko'chiring.

.....980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. asarlarini men sevib o'qiyman. «Hindiston», «Minerologiya» asarlarini yaratgan.— tabobat otasi. ...bilimni inson uchun eng zarur fazilat deb biladi.Hindistonning tabiiy manzaralarini «Boburnoma» asarida aks ettirgan.

So'zlar: Bobur, men, Gippokrat, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy.

Mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Зубную пасту изобрели египтяне ещё 5 тысяч лет назад – она являлась смесью пемзы и вина. 2. За весь день во рту может образоваться до 1.5 литров слюны. 3. 1867 году в США появилась первая дипломированная женщина – стоматолог – Люси Тэйлор. 4. Все знают, что кальций необходим для костей, однако 99% всего кальция в организме сосредоточено именно в зубах. 5. Зубы являются единственной частью организма, которая не способна восстанавливаться самостоятельно.

Nazorat savollari

1. Tish og'rimasligi uchun nima qilish kerak?
2. Tish qanday parvarishlanadi?
3. Og'iz bo'shlig'i gigiyenasi haqida nimalar bilasiz?
4. O'zbek tilida gapdagi so'zlar tartibi qanday bo'ladi?
5. So'zlar tartibi gapning mazmuniga ta'sir qiladimi?
6. O'zbek tilida kesim gapda qaysi o'rinda turadi?

23–MASHG'ULOT**TOZALIK VA ORASTALIK SOG'LIK GAROVIDIR**

Ozodalik va orastalik barcha uchun zarur qoidadir. V.Shekspir: “Tozalik bor yerda hamma narsa ham toza”, – degan ekan. Tumov sof havoda tuzaladi.

Abu Ali ibn Sino: “Agar havoda chang va to'zon bo'lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo'lardi”, – deydi.

Matbuotda shunday xabar e'lon qilingan:

“Himolay tog'larida istiqomat qiluvchi kichik xunza qabilasi gripp, sil, bo'g'ma va boshqa kasalliklarning nimaligini bilmaydi. Bu yerda yashovchi kishilarning hatto tishlari ham og'rgan emas. Ular toshdan yasalgan, katta derazalari janubga qaratilgan uylarda yashashadi. Hammayoq hayratda qolarli darajada toza, saranjom-sarishta, o'simliklar juda ko'p. Oziq-ovqatlarni yerto'lada saqlashadi. Molxonalar qishloqdan ikki-uch kilometr uzoqda joylashgan. Ko'chada na go'ng, na pashsha ko'rinadi”.

Patogen mikroblar oqava, ariq suvlarida uzoq muddat yashaydi. Ichterlamani qo'zg'atuvchi tayoqcha ariq suvida 21 kun, muzda 60 kun, oqava suvda 6-30 kun, ichburug' tayoqchasi ariq suvida 3 kun yashaydi. Oqava suv tushgan 1 gramm tuproqda umumiy bakteriyalar soni 40 million, odamlar yashaydigan punktlardagi 1 gramm tuproqda umumiy bakteriyalar soni 7-10 milliontagacha bo'ladi. Shuning uchun meva va sabzavotlarni yuvib yeyish, qaynagan suvni ichish tavsiya etiladi.

Inson o'z terisini toza tutishi, gigiyena qoidalariga rioya qilishi ham juda muhim. Qo'lni o'qishdan, ishdan kelganda ovqatdan oldin va hojatdan chiqqandan so'ng, albatta, sovunlab yuvish zarur. Yuz va bo'yinni kuniga 2 martadan, ertalabki yuvinish paytida har kuni qo'ltiq ostlarini yuvish ham maqsadga muvofiqdir. Haftada kamida 1-2 marta cho'milish zarur. Tishlarni yuvishkariesning oldini oladi.

LUG'AT

turmush tarzi - образ жизни

voz kechmoq - отказаться

shug'ullanmoq - заниматься

ko'rik - осмотр

homilador - беременная

faol - актив

hordiq - отдых

Topshiriq. Quyidagi dialogni rollarga bo'lib o'qing

– Saida, sog'lom turmush tarzi deganda sen nimani tushunasan?

– Sog'lom turmush tarzi – insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta'minlaydi.

– Sen har doim kun tartibiga amal qilasanmi?

– Albatta, har kuni sport bilan shug'ullanaman, to'g'ri ovqatlanaman.

– Mening esa kun tartibini tuzishga vaqtim ham yo'q. Institutda har kuni soat 4 gacha darsim bor, keyin kechki ovqat, dars qilish.... Har kuni shu ahvol.

– Yo'q, Mohira, sen yanglishyapsan. Kun tartibini tuzish hech qancha vaqt olmaydi. Ertalab 5-10 daqiqa badan tarbiya qil, nonushtaga sut mahsulotlarini iste'mol qil. Har kuni iloji bo'lsa, kamida 5 km piyoda yur.

– Voy, shundoq uyimning oldidan institutgacha avtobus yursa-yu, men piyoda boraymi?

– Buning hech qiyin joyi yo‘q. Aksincha, sen toza havoda sayr qilasan. Axir sening o‘qishdan keyin piyoda yurishga xohishing ham, vaqting ham yo‘q-ku.

– Ey dugonajon, meni bilasan-ku tez-tez boshim og‘riydi, buning ustiga piyoda yurishni hech ham yoqtirmayman.

– Agar aytganlarimga amal qilsang, senda qon aylanish tizimi yaxshilanib, boshing ham og‘rimaydigan bo‘ladi.

– Mayli, bir sinab ko‘ray.

Topshiriq. Quyidagi yumoristik dialoglarni rollarga bo‘lib o‘qing va tarjima qiling.

– Kasal bo‘lib qolganingizga ajablanmasa ham bo‘ladi, - dedi shifokor bemorga, – axir uyingiz to‘la bakteriya-ku!

– Qiziq ekansiz-u, – javob berdi bemor, – bir yildan beri eshik-derazalarni ochmasam, bakteriya qayerdan kiradi?

Bir kishining qulog‘i kir bo‘lib yurardi. Keksa bir odam so‘radi.

– Nahotki, uyalmasdan shu kir qulog‘ingiz bilan yursangiz?

– Afsus, ming afsus. Menda boshqa quloq yo‘q-da, – javob berdi u.

Gap bo‘laklari. Bosh bo‘laklar
(Члены предложения. Главные члены)

Ma'lum savolga javob beruvchi gapdagi so'z yoki so'z birikmasi *gap bo'lagi* de-yiladi. Gap bo'laklari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi. Gapning bosh bo'laklari bu - ega va kesimdir.

Ega — predmetni bildirib, kim?, nima? savoliga javob beradi. Ega gapda bosh kelishikda keladi. Ega ot, olmosh, sifat, son, sifatdosh bilan ifodalanishi mumkin.

Kesim — grammatik jihatdan egaga bog'liq bo'lgan gap bo'lagi. Kesim nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? savollariga javob beradi.

Ot, sifat, son va olmosh bilan ifodalgan kesim — ot kesim deyiladi. Masalan: O'zbekistonning poytaxti — Toshkent.

Fe'l bilan ifodalangan kesim fe'l-kesim deyiladi. Masalan: *Men institutda o'qiyarman.*

Слово или словосочетание в предложении, отвечающее на определенный вопрос называется членом предложения.

Члены предложения делятся на главные и второстепенные. Главными членами предложения являются подлежащее и сказуемое.

Подлежащее — это главный член предложения, обозначающий предмет и отвечающий на вопросы кто? что? Подлежащее в предложении выражается именительным падежом. Подлежащее может выражаться существительным, местоимением, прилагательным, числительным, причастием.

Сказуемое — главный член предложения, грамматически зависящий от подлежащего. Сказуемое отвечает на вопросы что сделал? что делает? что будет делать? Сказуемое, выраженное существительным, прилагательным, числительным и местоимением называется **именным сказуемым**. O'zbekistonning poytaxti - Toshkent. *Сказуемое* выраженное глаголом, называется **глагольным сказуемым**. Men institutda o'qiyarman

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot so'z turkumi. Talaba javob berdi
2. Olmosh. Ular kelishdi.
3. Fe'l. O'qish — mening maqsadim.

O'qimoq — yuksalmoq.

4. Sifat. — Qo'rqoq oldin musht ko'tarar.
5. Son. Ikkalamiz birga keldik.

Подлежащее выражается следующими частями речи:

1. Имя существительное. Студент ответил.
2. Местоимение. Они пришли.
3. Отглагольные имена: Учиться — моя цель. Учиться — развиваться.
4. Прилагательное. Числительное, употребляющееся в значении существительного. Трус первый поднимает руку.
5. Числительное. Вместе вдвоем пришли.

Kesim va uning ifodalanishi

(Сказуемое и способы его выражения)

O'zbek tilida kesim har doim gapning oxirida turadi. Kesim quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi.

Fe'l. Men dars tayyorladim.

Biz o'zbek tilini o'rganyapmiz.

Ot so'z turkumi. Mening onam — shifokor.

Shaxs-son qo'shimchalari: *-man, -san, -miz, -siz, -lar*.

Men talabaman.

Sen talabasan.

U talaba.

Biz talabamiz.

Siz talabasiz.

Ular talaba(lar).

Affiksdir:

O'zbekistonning poytaxti — Toshkent.

Sifat so'z turkumi.

Asal shakardan shirin.

Son so'z turkumi.

Uch karra uch — to'qqiz.

Olmosh so'z turkumi.

Eng muhimi — mana shu.

Ravish so'z turkumi.

Bu yil hosil mo'l.

Modal so'zlar.

Bugun darsda hamma bor.

Darsda faqat Azizova yo'q.

В узбекском языке сказуемое всегда располагается в конце предложения. Сказуемое выражается следующими частями речи.

Глагол. Я готовил уроки.

Мы изучаем узбекский язык.

Имя существительное. Моя мать — врач.

Личные аффиксы спряжения:

-man, -san, -miz, -siz, -lar

Я — студент.

Ты — студент.

Он — студент.

Мы — студенты.

Вы студенты.

Они — студенты.

Affiksdir:

Столица Узбекистана — Ташкент.

Имя прилагательное

Мёд слаще сахара.

Имя числительное.

Трижды три — девять.

Местоименные.

Самое главное — вот это.

Наречие.

В этом году урожая много. **Модальные слова.**

Сегодня на уроке все.

На уроке нет только Азизовой.

Mashq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va egani aniqlang.

Barcha, bolalar, uchalamiz, yaxshilar, havo, organizm, ovqatlanish, qoida, mamlakat, kislород.

Mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib ko'chiring va

bu so'zlar gapda qaysi gap bo'lagi vazifasida kelganini ayting.

1. maydonda bilinadi.	Ichburug'
2. oldin musht ko'tarar.	Shirinliklar
3. Bolalarga tarqatiladi.	Mard
4. yuqumli kasallik.	Qo'rqqoq
5. matnni tarjima qildi?	Nima
6.....Toshkent shahrida tug'ilganman.	Men
7. Ularga deding?	Kim
8. Bu tortni pishirgan.	Kim

Mashq. Quyidagi maqollarning egasini toping, ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1. Ko'ngil kirin aytsa ketar, qo'lning kirin – yuvsa. 2. Pokliging – sog'liging. 3. Hamma vaqt tozalikka e'tibor bersang, hech qachon kasal bo'lmaysan. 4. O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma. 5. Yomon baliq suv loyqatar. 6. Daryo bo'yida quduq qazima. 7. Dardingning vaqti o'tsa, tabibdan o'pkalama. 8. Har narsaning yangisi yaxshi. 9. Salomatlik qadrin bilmas, bemor bo'lmaguncha. 10. Tozalik – sog'lik garovi.

Mashq. Quyidagi gaplarda kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan.

1.O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. 2. Tanlovda ToshPTI talabasi Qodirova Shahnoza g'olib chiqdi. 3. Toshkentda pediater-shifokorlarning ilmiy – anjumani bo'lib o'tdi. 4. Nafsnii tiyish va dam olish – barcha dorilarning eng yaxshisidir. 5. Taomning eng yaxshi qaylasi – ochlik (Suqrot). 6.Bahorda qir-adirlar, tog'lar ko'm-ko'k. 7. Ikki karra ikki – to'rt. 8. Shirinlik – tishning dushmani, achchiq – me'daning do'stidir. 9. Choy tanin moddasiga boy. 10. Xalq tibbiyotida shaftoli guli surgi dori sifatida ishlatiladi.

Mashq. Quyida berilgan gaplarda ega va kesimlarni toping.

1. Abu Ali ibn Sino shaftoli mevasini ishtaha ochish va ichni yumshatish uchun ishlatgan. 2. Anjir tarkibida qand moddasi ko'p bo'lganligidan, u qandli diabet kasalligi bor bemorlar uchun zarar-

lidir. 3. Odamlarning haqiqiy fe'l-atvor kulganlaridagina chinakam namoyon bo'ladi. 4. Kulgining kuchi shu qadar zo'rki, unga jahondagi manman degan kimsalar ham bo'ysunadi. 5. Tabassum – tinchlikning kaliti, yaxshilikning chirog'idir. 6. Bemorga cheksiz muhabbat shifokorning birinchi burchidir. 7. Haqiqiy tabib o'zining qadr-qimmatini saqlagan holda davolaydi. 8. Davolash – buzilgan organizmni tiklash maqsadida uni sun'iy ravishda idora etish demakdir. 9. Kasalni davolashda shifokor faqat tabiatga yordam berishi kerak, chunki bemorni ko'pincha tabiatning o'zi davolaydi.

Mashq. Gaplardagi kesimlarni toping.

1. "Tez yordam" og'ir bemorni olib keldi. 2. Shifokorlik – mashaqqatli kasb. 3. Mohir shifokor bo'lish uchun ko'p izlanish kerak. 4. Toshkent Tibbiyot akademiyasi tashkil etildi. 5. Bugun 8-palatadagi bemorning ahvoli yaxshi. 6. Bemorning harorati 36,6°. 7. "Tez yordam" mashinasida keltirilgan bemor – mana shu. 8. Bu kasbni tanlashimdan maqsad – odamlarga yordam bermoq.

Mashq. Kesim o'rniga mos keladigan so'zlarni qo'yib ko'chiring. Ega va kesimlarni aniqlang.

1. Yetti o'lchab bir (kes, o'qi, o'lcha). 2. Yaxshi so'z – yarim (ovqat, uyqu, davo). 3. Mehnat – mehnatning tagi (azob, er, rohat). 4. Kitob – bilim (o'chog'i, boylik, manbai). 5. Tishing og'risa, tilingni (tiy, tishla, chiqar). 6. Yaxshi gap bilan ilon inidan (yotar, qochar, chiqar). 7. Yaxshi bilan yursang – (qolarsan, yetarsan, choparsan) murodga, yomon bilan yursang – (qolarsan, yetarsan, choparsan) uyatga. 8. Bekorchining bahonasi (yo'q, oz, ko'p).

Mashq. Qaysi gaplarda ot-kesim ishtirok etganini toping.

1. Vitaminlar odam organizmi uchun foydali. 2. Kasalni davolagandan uning oldini olish oson. 3. OITS davosiz, xavfli kasallik. 4. Ovqat tarkibida turli vitaminlarning yetishmasligi kasallik kelib chiqishining bosh sababidir. 5. Tabobat – hamma san'atlar ichidagi eng olijanob san'at. 6. D vitamini moddalar, mineral almashinuvi, suyak



hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. 7. Izzat tilasang ko'p dema, sog'liq tilasang ko'p yema. 8. Tabibning eng birinchi davolash quroli – shirin so'z. 9. Bolalar va o'smirlarga to'yimli, mazali va xilma-xil ovqat berish vazifamizdir. 10. To'g'ri ovqatlanish bolani turli kasalliklarga nisbatan chidamliligini oshiradi.

Nazorat savollari:

1. Sog'lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
2. O'z turmush tarzingizdagi nimalar sizga yoqadi, nimalar yoqmaydi?
3. Sizningcha ideal turmush tarzini kechirgan inson qanday bo'lishi kerak?
4. Abu Ali ibn Sino tozalik haqida nima degan?
5. Kasalga chalinmaslik uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
6. Gapning bosh bo'lagiga nimalar kiradi?
7. Ega deb nimaga aytiladi?
8. Ega gapda qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin?
9. Kesim qaysi savollarga javob beradi?
10. Kesim gapda qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin?

24-MASHG'ULOT

YUQUMLI KASALLIKLAR

Yuqumli kasalliklar – patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng sodda jonivorlar va h.k.)ning kishi, hayvon, o'simlik organizmiga kirib, ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklardir. Bemor organizmida kasallikni vujudga keltiruvchi maxsus mikroorganizm borligi va kasallikni odamdan odamga yuqishi mumkinligi infeksiyon kasallikning muhim belgisi hisoblanadi.

Yuqumli kasallikning chinakam sabablari XIX asrning ikkinchi yarmida L.Paster, R.Kox, I.I.Mechnikov va boshqa olimlarning ishlari bilan isbot qilindi.

Ba'zi kasalliklar – vabo, ichterlama, paratif, dizenteriya va boshqa ichak kasalliklari – hazm yo'li orqali, ya'ni bemorlar najasi tushgan suv, oziq-ovqat yoki yuvilmagan qo'l orqali yuqadi. Bemor yo'talganda, aksa urganda, so'zlashganda chiqadigan mayda shilliq zarralar havo bilan nafas yo'liga kirishidan kelib chiqadigan kasal-

liklar (tomchili infeksiyalar)ga gripp, ko'kyo'tal, parotit, difteriya, qizamiq va boshqalar kiradi. Ba'zi kasalliklar qonso'rar hashorat (bit, chivin, burga, kana, iskabtopar va hokazo) orqali yuqadi. Bunday kasalliklarga bezgak, toshmali terlama, qaytalovchi terlama, iskabtopar isitmasi kiradi.

Bemorga yaqin yurganda yoki uning sochig'i, idish-tovog'i va boshqa buyumlaridan foydalanganda yuqadigan kasalliklar – tanosil kasalliklar, kuydirgi, yara va boshqalar alohida guruhni tashkil etadi.

Yuqumli kasallik bir necha kun (gripp, qizamiq, iskabtopar isitmasi), bir necha hafta (ichterlama, toshmali terlama) yoki oyga va hatto yilga (sil, moxov, zaxm) cho'zilishi mumkin.

Yuqumli kasallikning o'tishida inkubatsion davr, kasallik belgilarining paydo bo'lishi va oshib borish davri, kasallik avjiga chiqqan davr, kasallikning so'nish davri va sog'ayish davri farq qilinadi. Ko'pgina infeksiyon kasallikdan so'ng odamda immunitet saqlanib qoladi.

LUG'AT

jonivor - живое существо

muhim - важный

pajas - кал

aksa urmoq - чихать

qonso'rag - кровососущие

hasharot - насекомое

sochiq - полотенце

sog'ayish - выздоравливать,
излечиваться

Topshiriq. «Yuqumli kasalliklar» matni asosida quyidagi berilgan konstruksiyalar bo'yicha misollar keltiring.

«Nima nima orqali yuqadi?»

vabo, ichterlama, paratif, dizenteriya va boshqa ichak kasalliklari
gripp, ko'kyo'tal, parotit, difteriya, qizamiq
bezgak, toshmali terlama, qaytalovchi terlama, iskabtopar
kuydirgi, yara, teri-tanosil kasalliklari

YUQUMLI KASALLIKLAR BILAN OG'RIGAN BEMORLARNI AJRATIB QO'YISH MUDDATLARI

Yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlar maxsus jihozlangan infeksiyon kasalxonalarda davolanadi. Kasallikning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun shunday kasalliklar bilan og'rigan bemorlar yoki kasallik bor deb gumon qilingan kishilar kasalxonada yoki uyda ajratib qo'yiladi. Bunda quyidagi ajratish muddatlari belgilangan.

Kasallik nomi	Bemorlarni ajratib qo'yish usullari
Ichterlama paratif	Antibiotiklar bilan davolangan bemorlar harorati normallashgach, 23 kungacha ajratib qo'yiladi. Oziq-ovqat sanoati, sut mahsuloti, umumiy ovqatlanish, bolalar muassasalari, kasalxona xodimlari davolash muassasalaridan uyga jo'natilgach, najasi, peshobi uch marta, o'n ikki barmoq ichak suyuqligi bir marta bakteriologik tekshiruvdan o'tkazilganda kasallik mikroblari topilmasa, 30 kundan keyin ishga qo'yiladi.
Bakterial dizenteriya	Kasallikning belgilari yo'qolgach, najasi uch marta (har bir-ikki kunda) tekshiriladi, kasallik belgilari yo'qolguncha ajratib qo'yiladi. Oziq-ovqat ta'minoti xodimlari, bolalar va davolash muassasasida ishlovchi xodimlar najasi uch marta bakteriologik tekshirishdan o'tkazilgandan keyin kasallik mikroblari topilmasa, uylariga jo'natiladi.
Virusli gepatit	Kasallikning klinik belgilari yo'qolguncha yoki kasallik boshlangach 30 kun ajratib qo'yiladi.
Poliomielit	40 kun ajratib qo'yiladi.
Difteriya	Bemor sog'ayguncha, tomoq va burun shilimshig'ini ikki marta (har uch kunda) bakteriologik tekshirishda mikroblar topilmaydigan bo'lguncha ajratib qo'yiladi.
Qizamiq	Toshma paydo bo'lgach, besh kun ajratib qo'yiladi.
Ko'kyo'tal	Kasallik boshlangach, 40 kungacha yoki bemor quvquvlab yo'tala boshlagandan keyin 30 kungacha ajratib qo'yiladi.
Skarlatina	Kasallik boshlangach, 21 kungacha (boshqa kasalliklar qo'shilmaganda 15 kungacha) ajratib qo'yiladi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari (Второстепенные члены предложения)

<p>Gapning ikkinchi darajalari bo'laklari bosh bo'laklarning ma'nosini to'ldirib keladi.</p> <p>Aniqllovchi gapda predmetning belgisini bildirib keladi. Aniqllovchi qanday? qaysi? kimning? nimaning? qancha? savollariga javob bo'ladi. Aniqllovchi har doim aniqlanuvchi so'zdan oldin turadi. Masalan: <i>Bizning hovlimizda chiroyli gullar bor.</i></p> <p>To'ldiruvchi — ikkinchi darajali bo'lak bo'lib, harakat yo'naltirilgan obyektini bildiradi. To'ldiruvchi kimga? nimaga? kimni? nimani? kimda? nimada? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan? savollariga javob beradi. To'ldiruvchi vositali va vositasiz bo'ladi.</p> <p>Hol — ish-harakatning bajarilish holati o'mi, vaqti, maqsadi va miqdorini bildiradi. Hol quyidagi turlarga bo'linadi:</p>	<p>Второстепенные члены предложения служат для пояснения главных членов предложения.</p> <p>Определение — второстепенный член предложения, указывающий на признак предмета. Определение отвечает на вопросы какой? чей? чья? чье? сколько? Определение всегда стоит перед определяемым словом.</p> <p>Дополнение — второстепенный член предложения, обозначающий предмет на который направлено действие. Дополнение отвечает на вопросы кому? чему? кого? чего? у чего? от кого? от чего? с кем? с чем? Дополнение бывает прямое и косвенное.</p> <p>Обстоятельство — обозначает образ, место, время, цель и меру совершения действия. Различаются следующие разряды обстоятельств:</p>
<ol style="list-style-type: none"> 1. Ravish holi. 2. O'rin holi. 3. Payt holi. 4. Maqsad holi. 5. Sabab holi. 6. Daraja-miqdor holi. <p><i>Ravish holi</i> ish-harakatning qay holatda bajarilganini bildiradi. Ravish holi qanday? qanday qilib? savollariga javob beradi. Masalan: <i>Darsni diqqat bilan eshit.</i></p> <p><i>O'rin holi</i> ish-harakatning qayerda bajarilayotganini bildiradi. O'rin holi qayerda? qayerdan? qayerga? savollariga javob beradi. Masalan: <i>Institutdan keldim.</i></p> <p><i>Payt holi</i> ish harakat qachon bajarilayotganligini bildiradi. Qachon? qachongacha? qachondan beri? savollariga javob beradi. Masalan: <i>Yaqindan yozgi ta'til boshlanadi.</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Обстоятельство образа действия. 2. Обстоятельство места. 3. Обстоятельство времени. 4. Обстоятельство цели. 5. Обстоятельство причины. 6. Обстоятельство меры и степени. <p><i>Обстоятельство образа действия</i> обозначает, как совершается действие. Обстоятельство образа действия отвечает на вопросы как? каким образом?</p> <p><i>Обстоятельство места</i> обозначает место, где происходит действие. Обстоятельство места отвечает на вопросы где? откуда? куда?</p> <p><i>Обстоятельство времени</i> указывает на время совершения действия. Обстоятельство времени отвечают на вопросы когда? до каких пор?</p>

1 **Sabab holi** ish-harakatning bajarilish sababini bildiradi. Sabab holi nimaga? nima uchun? nima sababdan? savollariga javob beradi. Masalan: *Talaba kasalligi sababli darsga kelmadi.*

Maqsad holi - ish - harakatning bajarilish maqsadini bildiradi va nima uchun? nima maqsadda? nimaga? savollariga javob beradi. Masalan: *Men imtihon topshirish uchun keldim.*

Daraja-miqdor holi ish-harakatning bajarilish miqdorini bildiradi, qancha? necha marta? qanchalik? qanchalab? savollariga javob beradi. Masalan: *Biz bu kunni ko'p kutdik.*

1 **Обстоятельство причины** указывает на причину совершения действия. Обстоятельство причины отвечает на вопросы почему? по какой причине?

Обстоятельство цели указывает на цель выполнения действия и отвечает на вопросы почему? с какой целью?

Обстоятельство меры и степени указывает на меру совершения действия и отвечает на вопросы сколько? сколько раз? насколько? по сколько?

Mashq. O'qing, gaplardagi aniqlovchilarni toping.

1. Ba'zi bolalarda tug'ma qobiliyat juda erta seziladi. 2. Yuqumli kasalliklarning turi ko'p. 3. Gipnozda odam sun'iy uyquga ketadi, bu vaqtda bosh miya po'stlog'ining tormozlanmay qolgan uyg'oq bo'lishi orqali bemor bilan so'zlashish mumkin bo'ladi. 4. Dori-vor o'simliklardan na'matak tarkibida «S» vitamini ko'p miqdorda bo'ladi. 5. Professor Madamin Yusupov asab kasalliklarini davolashning yangi usullarini topgan. 6. Bel og'rig'i kishining kasbiga bog'liq bo'ladi.

Mashq. So'z birikmasi ishtirokida gaplar tuzing.

Yaxshi so'z, tibbiy muolaja, har bir shifokor, chiroyli qiz, tushki ovqat, Oybekning romanlari, zararli odat, samimiy inson.

Mashq. Berilgan gaplardagi vositasiz to'ldiruvchilarni toping va tagiga chizing.

1. Ko'm-ko'k o'tlar ustidagi shudring quyosh nurida jimirlab, ko'zni qamashtiradi. 2. Bolalarni sport murabbiyi iliq kutib oldi. 3. Karim bo'lib o'tgan voqeani to'liq gapirib berdi. 3. To'yga barcha kursdoshlarimni taklif qildim. 4. Ona o'z bolasini allalab uxlatardi. 5. Odamlar Navro'z bayramini xursandchilik bilan kutib oldilar. 6. Limonchilik shirkat xo'jaligi olingan rejani ortig'i bilan bajardi.

Mashq. To'ldiruvchilar qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan.

1. Yozuvchi O'.Umarbekov bilan qiziqarli uchrashuv bo'ldi. 2. Ra'noda yangi chiqqan roman bor. 3. Ma'ruza insonning ichki kasalliklari haqida bo'ldi. 4. Dugonam bilan telefonda gaplashdim. 5. Men bu ko'ylakni sizga oldim. 6. Yomg'ir yog'ayotganda Nargiza bilan Anvar kirib keldi.

Mashq. Savollar o'rniga javob yozing. Gaplarni sintaktik tahlil qiling.

1. Shamshod (kim bilan?) onasiga yordamlashdi. 2. Bola (kimga?) sovg'a oldi. 3. Men kutubxonada (kimni?) ko'rib qoldim. 4. Bu kitob (kimda?) bor. 5. Dugonam bilan (nima orqali?) gaplashdik. 6. Mehmon (kimday?) ulug'. 7. Talabalar (nimalarni?) kutubxonaga topshirishdi.

Mashq. O'qing, to'ldiruvchilarni aniqlang.

1. Sog'lom odamlarning badan terisi ichki sabablar ta'sirida o'z rangini o'zgartirishi mumkin. 2. Isitma deb qator kuchli ta'sirotlarga javoban organizmda yuzaga chiqadigan murakkab reaksiyaga aytiladi. 3. Puls arteriyalar devorining tebranib turishi, tomir urishi bo'lib, qonning sistolik to'lqinini vujudga keltiradi. 4. Puls chastotasi bir minutdagi puls to'lqinlari sonini sanash yo'li bilan aniqlanadi. 5. Kasallik tarixi va laboratoriya tekshirishlarining natijalarini bemorning ko'zi tushmaydigan qilib saqlash kerak. 6. Havo vannalari terining funksiyasini kuchaytiradi, organizmning infeksiyalarga chidamliligini oshiradi.

Mashq. Quyidagi gaplardagi sifatlovchi-aniqlovchilarni toping.

1. "Zakovat" maydoniga qora quti olib kirilsin. 2. Eshik ochilib oppoq soqolli bir nuroniy kirib keldi. 3. Uzoq-yaqin yerlardan kelgan talabalar bir-birlari bilan do'stlashib ketishdi. 4. Ana shu ajoyib gullarni unga turmush o'rtog'i sovg'a qilgan edi. 5. Uning moviy ko'zlaridan xursandligi ko'rinib turardi. 6. Ariq bo'yidagi qari majnuntol suvga egilib turardi. 7. Bahorda esgan mayin shamol dilga hu-

zur bag'ishlaydi. 8. Qo'shnimizning qizi uzun sochli bo'lib, u ham-maga yoqadi.

Mashq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Qizamiqqa qarshi vaksinani faqat Sevara olmadi.
1. 8-palatadagi bemordan tahlil uchun qon olindimi?
2. Sog'liqdan ham azizroq, zarurroq narsa bormi?
3. Hamma o'pkasini rentgen qildirib bo'ldimi? Sen-chi?
4. Komandamiz futbol bo'yicha shahar birinchiligini olishga muvaffaq bo'ldi.
5. Shu bugunoq ota-onamni ko'rishga boraman, faqat poyezdga chipta bo'larmikin-a?

Mashq. Quyidagi misollardagi maqsad holi, sabab holi va daraja-miqdor hollarni toping va ularga savol bering.

1. Nazira shifokor bo'lish maqsadida a'lo baholarga o'qiyapti.
2. Ulug'bek dam olish uchun «O'zbekiston» oromgohiga yo'llanma oldi.
3. Men sevinganimdan tanamga sig'may, ertalab Xadra tomonga yugurib ketdim.
4. Oz so'zlasang ham, soz so'zla.
5. U majlisga biroz kechikib keldi.
6. Yakshanba kuni bo'lgani uchun ko'chada odamlar kam edi.
7. O'n marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi.
8. Dugonamni tug'ilgan kuni bilan tabriklash uchun uyiga bordim.

Mashq. Gaplarni o'qing, gaplardagi hollarning turini aniqlang.

1. Xurрак kishining o'ziga zararsiz bo'lsa ham, atrofdagi kishilarni ancha bezovta qiladi.
2. Oyoqlarini yig'ib, yonboshga o'girilgan holda uxlaydigan kishilar og'ir-vazmin, ko'ngilchan bo'ladilar.
3. Salbiy emotsiya, og'ir stress, asabning buzilishi tufayli yuzmuskullarining g'ayriixtiyoriy harakatlari yuzaga keladi.
4. AQSHda 20% aholi butun spirtli ichimliklarning 80 % ini iste'mol qiladi.

Mashq. Nuqtalar o'rniga qavsda berilgan so'zlarning mosini qo'ying va holning turini aniqlang.

1.(ko'p, oz, hech) so'zla, (mazmunli, ko'p, oz) tingla. 2.

.....(o'n, bir, yetti) marta o'lchab, (bir, yetti, o'n) marta kes. 3. Qo'rqoq (oldin, keyin, ertaga) musht ko'tarar. 4. Siringni bировга aytma: u senga ... (ertaga, bugun, kelasi yil) do'st, (bugun, kecha, ertaga) dushman bo'lishi mumkin. 5. Vaqtni «esiz», «qaniydi», «koshkiydi» lar bilan o'tkazadigan kishining umri eng(qisqa, uzun, barhayot) umr ekan. 6. Yolg'on so'z.... (bir oz, ko'p, ancha) foyda berib, (keyin, avval, har doim) o'ldiradi. 7.(bir, o'n, yuz) marta eshitgandan ko'ra, (bir, ikki, o'n) marta ko'rgan yaxshi.

Mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Инфекционный гепатит

Возбудителями этой болезни являются вирусы. Различают вирусы вида А, В и С, пути заражения ими также различны. Вирус А передается через зараженную пищу, посуду, не прокипяченную воду, воду из арыков, колодцев, бассейнов. Вирусы В и С передаются через плохо простерилизованные медицинские инструменты, а также в результате переливания в лечебных целях крови и сыворотки, взятых от больных с легкой формой этой болезни.

25-MASHG'ULOT

Tabiat va biz

Agar havoda kislorod bo'lmasa, odam bir daqiqa ham yashay olmaydi. Ammo tabiat bunga yo'l qo'ymaydi. U o'pkamiz uchun hamisha kerakli miqdorda toza havo yetkazib beradi. Agar suv bo'lmasa, hayot bo'lmas edi. Lekin g'amxo'r tabiatning shu kungacha insonni suvsiz qoldirgan hollari bo'lgan emas. Quyosh bo'lmasa, hayot to'xtab qolgan bo'lar edi. Ammo tabiatning buyuk qonuniga bo'ysungan Quyosh har doim erta tongda chiqib, tirik mavjudotga xizmat qiladi.

Inson – tabiatning oliy mahsuli. Boshqacha qilib aytganda – farzandi. Tabiat marhamatisiz yashay olmas ekanmiz, demak u bizning onamiz. Ha, shuning uchun ham ona-tabiatni, uning qushlari, hayvonlari, o'simliklari va boshqa boyliklarini sevishimiz, e'zozlashimiz va ko'paytirib borishimiz kerak.

Tabiat insonga faqat toza suv, havo, oziq-ovqat, kiyim-kechakki-na emas, balki sog'liq, a'lo kayfiyat ham beradi. Inson ana shu boyliklarni tabiatdan tayyor holda olmaydi, albatta. U o'zining mehnati, aql-zakovati, bilimini ishga soladi. Tabiat qonuni va sirlarini o'rgana boradi.

Tabiatni sevish, uni muhofaza qilish, yoshlarni tabiat shaydosi ruhida tarbiyalash borasida mamlakatimizda ko'pgina ishlar amalga oshirilgan.

Havoda kisloroddan tashqari oz miqdorda ozon bo'ladi. Ozon kuchli oksidlovchanlik xossasiga ega bo'lib, bakteriyalarni o'ldiradi. Ozon odatda bulutli elektr zaryadidan keyin paydo bo'ladi. Olimlarning hisoblashlaricha, ona sayyoramizdagi barcha o'simliklardan yiliga 400 mlrd. tonna kislorod ajraladi.

Tabiatni muhofaza qilish esa barchaning burchi.

Taniqli yozuvchi Ch.Aytmatov aytganidek, tabiat bu o'zimiz demak. Hammamiz ham tabiatdan o'sib chiqib, tabiatda kamol topamiz. Tabiat oldidagi burchimiz tuganmasdir.

LUG'AT

havo	воздух	kayfiyat	настроение
g'axo'g	заботливый	kiyim	одежда
buyuk	великий	ruh	дух
mavjudot	все сущее	muhofaza	беречь
oziq-ovqat	продукты		

Topshiriq. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

Inson-tabiatning bo'lagi deganda nimani tushunasiz?

3. «Tabiatni sevish» tushunchasini izohlab bering.

4. Siz ham atrofingizdagi tabiatni muhofaza qilishga hissa qo'shganmisiz?

5. Sizningcha buning uchun nimalar qilish kerak?

6. Vaqtli matbuotdan tabiat muhofazasi haqida ma'lumot topib - quyidagicha dialog tuzing. -



– Siz kechagi gazetadagi «Tabiat qasos oladi» maqolasini o'qidingizmi?

– Afsuski, o'qimagan ekanman. U yerda nima haqida yozilgan ekan?

– Fransiya mamlakatining qirg'og'ida supertanker cho'kib, dengizga 200 tonna neft to'kilgan.

– Bu dahshat-ku! Endi nima bo'ladi? Oqibati yaxshi bo'lmasa kerak.

– Neft qirg'oqqa yaqin joylardagi suvlarning ekologik balansini izdan chiqargan.

– Bu nima degani?

– Neft dengiz o'tlarini qirib yubordi. Bu esa o'z-o'zidan ular bilan oziqlangan dengiz hayvonlariga ta'sir qildi. Ko'p baliqlar esa halok bo'ldi.

– Bu narsa baliqchilar hayotiga ham ta'sir qilgan bo'lsa kerak.

– Ha, u yerda ishsizlik avj oldi.

– Demak, inson tabiatga ozor yetkazsa, o'zi ham ozor chekadi, deb bekorga aytishmas ekan.

Mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Загрязненность атмосферы, воды, почвы и пищевых продуктов наносит ущерб здоровью человека. Каждый год в атмосферу выбрасывается более 200 миллионов тонн ядовитых газов— это отходы работы фабрик, электростанций, автомобильных двигателей и т.п. Эти газы вызывают у людей болезни легких, разрушают озоновый слой атмосферы, защищающий Землю от вредных излучений, вызывают парниковый эффект и кислотные дожди, уничтожающие растительность. Вода, необходимая человеку так же, как и воздух тоже постоянно загрязняется: в воду попадает мусор, промышленные отходы и сельскохозяйственные удобрения, что делает ее непригодной для питья. Загрязнение рек и морей вызывает гибель многих животных и растений, а также становится причиной болезней и отравлений среди людей.

Gapning uyushiq bo'laklari (Однородные члены предложения)

<p>Bir xil gap bo'lagi bo'lgan va bir xil savolga javob beradigan so'zlar <i>gapning uyushiq bo'laklari</i> deyiladi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklari uyushib kelishi mumkin. Masalan: <i>Saraton kasalligini davolovchi V17 vitamini o'rik, shaftoli, olma va olcha danaklari tarkibida bordir.</i></p>	<p>Однородными членами предложения называются такие члены предложения, которые выполняют одинаковые синтаксические функции, отвечают на один и тот же вопрос. Однородными могут быть главные и второстепенные члены предложения</p>
<p>Ular biriktiruvchi bog'lovchilar va sanash ohangi yordamida bog'lanadi.</p>	<p>Они связываются с помощью сочинительных союзов и перечислительной интонацией.</p>
<p>Uyushgan ega: <i>Anjumanga o'z kasbining ustalari bo'lan kardiolog, stomatolog, urolog, ginekolog va jarrohlar qatnashdi.</i></p>	<p>Однородные подлежащие: <i>Anjumanga o'z kasbining ustalari bo'lan kardiolog, stomatolog, urolog, ginekolog va jarrohlar qatnashdi.</i></p>
<p>Uyushgan kesim: <i>U goh kulardi, goh yig'lardi.</i></p>	<p>Однородные сказуемые: <i>Он то смеялся, то плакал.</i></p>
<p>Uyushgan to'ldiruvchi: <i>Men Shamshod va Anvardan xat oldim.</i></p>	<p>Однородные дополнения: <i>Я получил письмо от Шамшода и Анвара.</i></p>
<p>Uyushgan aniqlovchi: <i>Parizod go'zal va aqlli qiz.</i></p>	<p>Однородные определения: <i>Паризод красивая и умная девочка.</i></p>
<p>Uyushgan hol: <i>Shahnoza tez va chiroyli yozadi.</i></p>	<p>Однородные обстоятельства: <i>Шахноза пишет быстро и красиво.</i></p>
<p>Gapning uyushiq bo'laklari biriktiruvchi bog'lovchilar yoki vergul bilan ajratiladi. Va, ham, hamda, bilan biriktiruvchi bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yilmaydi. Masalan: <i>Muslima va Mirjalol birga o'qishadi.</i></p>	<p>Однородные члены предложения отделяются друг от друга запятой или сочинительными союзами. Перед сочинительными союзами <i>va, ham, hamda, bilan</i> запятая не ставится. Например: <i>Муслима и Миржалол вместе учатся.</i></p>
<p><i>Ammo, lekin, biroq, balki</i> zidlov bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: <i>U qattiq xafa bo'ldi, lekin yig'lamadi.</i></p>	<p>Перед противительными союзами <i>ammo, lekin, biroq, balki</i> ставится запятая. Например: <i>Она очень обиделась, но не заплакала.</i></p>

Mashq. Matnni o'qing.

Qadimda ota-bobolarimiz farzand ko'rishlari munosabati bilan daraxt nihollari ekishgan. Momolarimiz oilada qiz bola tug'ilsa, unib-o'ssin, bir etak farzandlarni yetaklab yursin, deya yaxshi niyat bilan mevali daraxtlar ekishgan. Agar o'g'il bola tug'ilsa, voyaga yetgach unga uy-joy qurish uchun kerak bo'ladigan tol va teraklar ekishgan. Bu yaxshi udum, albatta, yashillik olamini ko'paytirishga xizmat qilgan.

Bir yo'lovchi keta turib, nuroniy cholning mevali daraxtlar ekayotganini ko'rib, debdi:

— Siz ekayotgan bu nihollar qachon voyaga yetadi-yu, qachon meva beradi, sizga nasib qiladimi, yo'qmi?

— Menga savobi tegsa, bo'ldi. Kelajakda ularning mevasini farzandlarimiz yeydi, — degan ekan u.

Topshiriq. Siz yashayotgan hududda tabiatga munosabat qanday? Shu haqda gapirib bering.

Mashq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

Havodagi kislorod bilan nafas olib, nafas chiqaramiz. Inson yaxshi nafas olishi uchun havo kislorodga boy bo'lishi kerak. Agar havoda kislorod yetishmasa, o'zini horg'in sezadi. Atrofimizdagi har bir daraxt, o'simliklar iflos havoni to'sib, o'zi chiqargan kislorod bilan havoni tozalab turadi. Changli havodan nafas olish ham o'pka uchun zararli hisoblanadi. Agar ko'cha changib ketsa, darrov suv sepib changni kamaytirish kerak.

Mashq. Matnni o'qing. Gaplardagi uyushiq bo'laklarni toping. Ular qaysi gap bo'lagi vazifasida kelganligini aniqlang.

TABIAT QO'YNIGA SAYOHAT

Yoz kunlarining birida oilaviy tarzda, tabiat qo'ynida dam olgani bordik. Ming afsuski, bizga sirdan ma'qul ko'ringan salqin, yashillikka burkangan joy bizdan avval kelib-ketganlarning kasridan achinarli holatda yotardi. Maysalar payhon qilingan, ichimlik shishalari-yu

ovqat va sigaret qoldiqlari, non bo'laklari sochilib yotardi. Bir savol tug'iladi. Nahotki, dam olishga kelganlar bu yerga o'zidan keyin ham odamlarning hordiq chiqarishi, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lishga haqqi borligini o'ylab ko'rmasa? Ular bizni yedirib, kiyintiradigan, to'ydiradigan ona tabiatga shavqatsizlarcha munosabatda bo'lgani uchun gunohga botishi va uning uvoli tutishini xayollariga keltirishmasa? Agar ularda ekologik madaniyat ko'nikmasi shakllantirilganda, bunday achinarli holatga duch kelmagan bo'lardik. Ulug' olim Abu Rayhon Beruniy aynan ana shundaylarga: «Agar odamlar tabiatga nisbatan loqayd munosabatda bo'lsalar, uning qonun-qoidalarini qo'pol ravishda buzsalar, bir kun kelib tabiat ulardan o'ch oladi, o'shanda hech qanday kuch uni to'xtata olmaydi», — deya ta'kidlagan edi.

Mashq. Gaplarni o'qing. Uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring.

1. Sirkadan qichima, qo'tiru, toshma-yu, sepkil, Surkalsa, bog'lansa, yo'qotar butkul. 2. Birovga sog'insa har kim yomonlik, nihoyat ul o'zi topmas omonlik. 3. Og'izga kelganni demak – nodonning ishi, oldiga kelganni yemak – hayvonning ishi. 4. Ko'p vaqillagan donodan ko'ra, jim o'tirgan nodon yaxshi. 5. Insonlar yo hasad, yo ko'rolmaslik yoki nafrat tufayli bir-birlarining dillarini og'ritishadi. 6. Insonning dushmani uchta: dunyosi, shaytoni va nafsi. 7. Sabrning avvali achchiq, oxiri esa shirin.

Mashq. Quyidagi gaplarda qaysi gap bo'laklari uyushib kelganligini toping.

1. Saraton kasalligini davolovchi V17 vitamini o'rik, shaftoli, olma va olcha danaklari tarkibida bordir. 2. O'tkir gastrit me'da shilliq pardasining o'tkir yallig'lanishi, ovqatlanish tartibining buzilishi, o'ta issiq yoki sovuq, achchiq va sho'r taomlarni me'yoridan ziyod tanovul etish, shuningdek, yuqumli omillar bilan ifloslangan ovqatlarni, me'daga ta'sir ko'rsatuvchi dorilarni iste'mol qilish natijasida kelib chiqadi. 3. Patologik stafilokokk bakteriologik

tekshirishda teridagi yiringli toshmalardan, kindik yarasidan, tomoqdan, burundan va qondan ajratilishi mumkin. 4. Sepsis tashxisini qo'yishda bola organizmiga yuqumli omil tushganligining belgilari sifatida kindik tizimchasi qoldig'i tushishining kechikishi, uzoq muddat kindik yarasining namlanib turishi, terida yiringli toshmalar paydo bo'lishi, bolaning sababsiz qusishi, tana vaznining o'zgarimasdan qolishi yoki kamayishi kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mashq. Gaplarni ko'chiring. Qaysi gap bo'laklari uyushib kelganligini toping.

1. Fidoiy, tadbirkor bo'lsa shifokor, tezda tuzalajak har qanday bemor. 2. Agar balg'am tanda aylasa vatan, uni kuchaytirma, u xavfli dushman. 3. Qovun bilan birga yemagil asal, gar yesang, albatta, bo'lasan kasal. 4. Suv garchi bo'lsa ham kavsaru zilol, ortiqcha ichilsa, keltirar malol. 5. Qondan hosil bo'lsa milklararo shish, qonni oldirmasa ortadi tashvish. 6. Issiq suvdan agar tish topsa orom, shvit bosmoq kerak ostiga mudom. 7. Kasaldan qo'rqma-yu, g'am yema hech vaqt, badaning doriga qilmasin odat.

Mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, uyushiq bo'laklarning tagiga chizing.

1. В нашем институте учатся представители разных национальностей: русские, узбеки, казахи, таджики, туркмены. 2. В человеке все должно быть прекрасно: и лицо, и одежда, и душа и мысли. 3. Трамвай, троллейбусы, автобусы, метро – все это общественный транспорт. 4. В самых различных местах: в лесах, в горах, в степях и на побережье морей есть заповедники. 5. Наблюдение за животным и растительным миром ведутся учеными круглый год: и зимой, и летом, и весной, и осенью.

Mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib, uyushiq bo'laklarni toping.

К природным богатствам относятся солнечная энергия, вода, воздух, подземные богатства, растения, почва, животный мир. Природные богатства делятся на три вида: исчерпаемые, неисчерпаемые и вновь восстанавливаемые. К исчерпаемым природным богатствам относятся в основном подземные богатства, к неисчерпаемым – солнечные лучи, внутреннее тепло Земли, воздух, вода и др.

Nazorat savollari:

1. Ob-havo deb nimaga aytiladi?
2. Metereologiya fani nimani o'rganadi?
3. Yer yuzida qancha o'simlik turlari mavjud?
4. Nima uchun tabiatga «ona» so'zini qo'shib aytamiz?
5. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
6. Gapning uyushiq bo'laklari deb nimaga aytiladi?
7. Qaysi gap bo'laklari uyushib kelishi mumkin?
8. Uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gapda qaysi tinish belgilari ishlatiladi?
9. Uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gapda qaysi bog'lovchilar qo'llaniladi?
10. Gapda ikkinchi darajali bo'laklar uyushib kelishi mumkinmi?

26-MASHG'ULOT

ICHKI KASALLIKLAR

Ichki a'zolarning kasalliklarini o'rganish, ularni tashxis qilish, kechishini aniqlash, kerakli tashxis asboblaridan foydalana bilish, ta'sirchan dori-darmonlar tayinlash har bir shifokorning burchidir.

Ichki kasalliklar quyidagi turlarga bo'linadi: nafas olish a'zolari kasalliklari, yurak-tomir kasalliklari, hazm qilish kasalliklari, buyrak kasalliklari, qon tizimi kasalliklari, biriktiruvchi to'qima va bo'g'imlarning diffuz kasalliklari.

GASTRIT

Hazm qilish kasalliklari aholining umumiy kasallanishida salmoqli o'rin tutadi. Oshqozon xastaliklari orasida eng ko'p uchraydigani – gastritdir. Gaster–grekchada “*oshqozon*”, itis–lotinchada “*yallig'lanish*” ma'nolarini bildiradi. Demak, gastrit - oshqozon yallig'lanishidir. Gastrit ko'p sababli xastalik bo'lib, oshqozonning shilliq qavati va bezlarida turli darajadagi organik va funksional o'zgarishlar paydo qilibgina qolmay, balki me'daning boshqa qavatlari ham tarqalib ketishi bilan xarakterlanadi. Gastritning o'tkir va surunkali turlari mavjud.

O'tkir gastrit to'la davolanmaganligi natijasida surunkali gastrit yuzaga keladi. Pala-partish va shoshma-shosharlik bilan ovqatlanish, quruq, qattiq ovqatlarni ko'p iste'mol qilish, achchiq, sho'r ovqatlarga o'ch bo'lish, chekishga, ichishga ruju qo'yish, turli-tuman (gormonal, og'riq qoldiruvchi) dorilar ta'siri, ko'mir, metall, paxta changi, ishqor yoki kislotalarning me'daga tushib turishi, boshqa a'zo va tizim xastaliklari (sil, zaxm, buyrak va jigarning surunkali xastaliklari), yurak yetishmovchiligi oqibatida qon aylanishining keskin buzilishi, surunkali zotiljam, yurak nuqsonlari gastritga sabab bo'ladi.

Asosiy shikoyatlar quyidagicha:

– To'sh osti sohasida simillagan, zirqiragan og'riq paydo bo'lishi, u odatda ovqat yeyilganidan keyin yoki och qolganida paydo bo'ladi. Shuningdek, bemor to'sh osti sohasida achishish va shish bordek his qiladi. U tez-tez kekiradi, mabodo me'dada xlorid kislota oshgan bo'lsa, achchiq nordon havo, kamaygan bo'lsa, palag'da tuxumning hidi keladi. Qorin tez-tez dam bo'lib, bemor bezovtalanadi, ko'ngli ayniydi va qusadi. Shuningdek, ich o'tishi yoki qotib qolishi ham mumkin. Asab tizimida o'zgarishlar yuz berib, uyqu buziladi, bemor injiqlanib, boshi og'rib tez-tez aylanadi, darmoni quriydi, ish qobiliyati pasayib ketadi. Og'irroq hollarda esa bemorning ko'z oldi qorong'ulashib, kamqonlik rivojlanishi mumkin. Ishtahaning yomonlashishi, zarda qaynashi ham surunkali gastritga xos shikoyatdir.

Davolashda parhyez katta ahamiyatga ega.

LUG'AT

nafas olish a'zolari kasalliklari	болезни органов дыхания
yurak qon tomir kasalliklari	сердечно сосудистые болезни
ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari	болезни органов пищеварения
buyrak kasalliklari	болезни почек
qon kasalliklari	болезни крови
o'zgarish	изменение
me'da	желудок
ruju qo'ymoq	пристраститься
ko'ngil aynamoq	тошнота
qusmoq	рвота(вырвать)
kekirmoq	отрыгивать
yurak yetishmovchiligi	сердечная недостаточность

Topshiriq. Matnni tarjima qiling va mazmunini so'zlab bering.

Topshiriq. Matn asosida quyidagi konstruksiyalar bo'yicha gaplar tuzing.

«Nima nima bilan xarakterlanadi?»

Gastrit

«Nimaga nimalar sabab bo'ladi?»

Gastritga

«Nima qanday turlarga bo'linadi?»

Gastrit

«Nima natijasida nima yuzaga keladi?»

O'tkir gastrit

«Nimada nima bo'ladi?»

Surunkali gastritda

Qo'shma gap va uning turlari. Bog'langan qo'shma gap

(Сложное предложение и его виды.

Сложносочинённое предложение)

Qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gapdan tashkil topadi. Qo'shma gaplar bog'lovchilar yordamida yoki ularsiz tuziladi.

Eshik ochildi va o'qituvchi kirdi.

Eshik ochildi, o'qituvchi kirdi.

Qo'shma gaplar 2 xil bo'ladi:

1. Bog'langan qo'shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar.

Bog'langan qo'shma gaplarda sodda gaplar bir-biri bilan teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.

a) Biriktiruv bog'lovchilari: *va, ham-da, ham.*

b) Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq.*

v) Ayiruv bog'lovchilari: *goh ... goh, yo ... yo, yoki ... yoki, ba'zan ... ba'zan.*

g) Inkor bog'lovchilari: *na...na.*

d) Yuklamalar: *-u, -yu, -da.*

Сложное предложение состоит из двух или более простых предложений. Простые предложения соединяются с помощью союзов и без союзов.

Сложное предложение длится на:

1. Сложносочинённые предложения.

2. Сложноподчинённые предложения.

В сложносочинённом предложении простые предложения соединяются сочинительными союзами.

a) Соединительные союзы: *и, тоже.*

б) Противительные союзы: *но.*

в) Разделительные союзы: *или, иног-да.*

г) Отрицательные союзы: *не*

д) Частицами: *-у, -ю, -да*

Mashq. Quyidagi sodda gaplardan teng bog'lovchilar yordamida qo'shma gaplar tuzing.

1. Men o'zimning kimligimni sizga aytib berdim. Siz o'zingizni kimligingizni aytib bermadingiz. 2. Narigi uydan qandaydir musiqa ovozi eshitilar. Qizlarning kulgusi jaranglar edi. 3. Yigitlarda shunchalik hunar bor ekan. Bilmay yurgan ekanmiz. 4. Alisher hali yosh bola edi. Husayn saroyida xizmat qilardi. 5. Yaxshi nom chiroyli so'zlar uchun berilmaydi. U mehnat natijasi uchun beriladi.

Mashq. Biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan oltita qo'shma gap tuzing.

Mashq. Nuqtalar o'rniga mos keladigan teng bog'lovchilarni qo'yib ko'chiring.

1. Qo'ng'iroq chalindi . . . dars boshlandi. 2. U o'rniga yotdi, . . . uxlamadi. 3. . . . u gapirdi, . . . men gapirdim. 4. Zal odamga to'ldi . . . , majlis boshlandi. 5. Toshkentning bugungi ko'rinishi chiroyli, . . . ertasi yanada go'zal. 6. Bahor keldi . . . kunlar isib ketdi.

Mashq. Quyidagi sodda gaplardan tegishli bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar tuzing, kerakli tinish belgilarini qo'ying.

1. Biz turli millat vakillarimiz. Hech birimiz urushni istamaymiz. 2. Yomg'ir yog'adi. Bo'ralab qor. 3. Quyosh chiqdi. Borliq nurga to'ldi. 4. Dugonalarim yugurib yetib keldilar. Ustozimiz hali ham yo'q. 5. Eshikdan shamol urar edi. Botayotgan quyoshning so'nggi yorug'i tushib turar edi.

Mashq. Quyidagi gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Inglizlar yaxshi uxlash uchun yotishdan oldin bir stakan qaynoq sut ichishni tavsiya qiladilar. 2. Mutaxassislarning kuzatishicha ko'p uxlaydigan kishilar ikkilanuvchi, sermulohaza, hissiyotga beriluvchan bo'ladi. Kam uxlaydiganlar serharakat, ishchan va jasur bo'ladi. 3. 1930-yilda rus olimi A.M.Svyadosh tabiiy uyqu davrida nutqni his qilish masalalariga doir yirik asar yaratdi. 4. Agar bo'g'imda og'riq paydo bo'lsa, og'riq bo'g'imga parafin, ozokerit, balchiq qo'yish yaxshi natija beradi.

Mashq. Ikki ustunda berilgan sodda gaplardan bog'langan qo'shma gap turlarini tuzib ko'ring, orasidagi farqni tushuntiring.

Birdan eshik ochildi.	Bemor kirib keldi.
Bahor keldi.	Ariqlarda to'lib suv oqa boshladi.
Bosh miya hamma narsani kuzatib turishi qiyin.	Orqa miya yordam beradi.
Vitamin yetishmaganda kishining mehnat qobiliyati pasayadi.	Ba'zi vitaminlarning fiziologik ehtiyojdan ortiqroq bo'lishi gipervitaminozga olib kelishi mumkin.

O'tkir gastrit to'la davolanmaganligi natijasida surunkali gastrit yuzaga keladi.

Mashq. Sodda gaplardan bog'langan qo'shma gap tuzing.

1. Shom tushishiga qaramasdan Aziz ko'chaga chiqdi. 2. Vaqt me'yorlariga ko'ra men allaqachon uyda bo'lishim kerak edi. 3.

Ko'zlarim yumilib ketishiga qaramasdan men uxlamaslikka harakat qildim. 4. Siz men uchun dunyoda eng qimmatli, mehribon odamsiz.

Mashq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Для нормальной деятельности органов пищеварения и предупреждения желудочно-кишечных заболеваний важное значение имеет соблюдение гигиенических правил.

Желудочно-кишечные заболевания подразделяются на воспалительные и инфекционные.

В воспалительным желудочно-кишечным заболеваниям относятся воспаление слизистой оболочки желудка – гастрит, воспаление слизистой оболочки тонкой кишки – энтерит, толстого кишечника – колит.

Nazorat savollar:

1. Ichki kasalliklarning nomlarini sanab bering?
2. Gastrit qanday kasallik?
3. Gastrit qanday ma'noni bildiradi?
4. Surunkali gastritda nima yuz beradi?
5. Gastritga nima sabab bo'ladi?
6. Qo'shma gap deb qanday gaplarga aytiladi?
7. Qo'shma gap necha xil bo'ladi?
8. Bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot bering.

27–MASHG'ULOT

BOLALARDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR

Kasallik – organizmga tashqi va ichki muhitning zararli omillari ta'sir etganda ro'y beradigan patologik jarayondir. Kasallikning paydo bo'lish sabablari xilma-xil. U bitta omilning ta'sirida yoki bir qancha sharoitlarning birga qo'shilishidan kelib chiqishi mumkin.

Bolalar kasalliklari asosan bolalar orasida uchraydigan kasalliklar guruhidir. Bolaning rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra: ona qornida o'sish davri, chaqaloqlik davri (bola tug'ilganidan keyingi to'rt hafta), emizikli davri (bir yoshgacha), yasli davri (uch yoshgacha), maktabgacha davri (yetti yoshgacha), boshlang'ich maktab yoshi (o'n ikki yoshgacha) va o'smirlik yoki balog'atga yetish davrlariga (o'n sakkiz yoshgacha) bo'linadi. Shu davrlarga ko'ra kasalliklar ham o'ziga xos bo'lishi mumkin. Ona qornida o'sish vaqtidagi homiladorlik davridagi zararli omillar homilaning o'sish va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tug'ruq vaqtida asfiksiya, shikastlanishlar, falajlar, stafilokokk infeksiyalar kuzatiladi. Ular chaqaloqlarda kindik jarohatining yiringli yallig'lanishiga, chilla yaraga, hatto chaqaloqlar sepsisi kabi og'ir kasalliklarga sabab bo'ladi. Bu davrda zotiljam ham xavfli hisoblanadi.

Emizikli davrda bola ovqatining o'zgarishiga moslashishi qiyin bo'ladi, me'da-ichak buzilishi – diareya, ichak infeksiyalari, modda almashinuvining buzilishlari kuzatiladi. Bu davrda raxit avj oladi, diatez, spazmofiliya tez-tez uchraydi. Yasli va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ko'koyo'tal, qizamiq, difteriya, tepki va boshqa yuqumli kasalliklar ko'payadi. Boshlang'ich maktab davrida bolalar ko'proq angina, yurak, buyrak, allergik kasalliklar bilan og'riydilar. Kattaroq bolalar va o'smirlarda yurak-tomir, asab, endokrin tizimi kasalliklari kuzatiladi.

Har qanday kasallik jismonan baquvvat, sog'lom bolada yengilroq, nimjon bolalarda esa og'irroq o'tadi. Bolalar kasalliklarining oldini olish ota-ona va shifokorlarning burchi va vazifasidir.

LUG'AT

qo'shmoq - соединять

bir pecha - несколько

o'smoq - вырастать, расти

chaqaloq - младенец

balog'at - совершеннолетие

falaj - паралич

chilla - сорокодневье

o'smir - подросток

nimjon - слабый, хилый

burch - долг, обязанность

*Topshiriq. Matn yuzasidan o'zaro suhbatlashing.**Topshiriq. Matn mazmunini yorituvchi savollar tuzing.**Topshiriq. Bolalarda uchraydigan kasalliklar belgilari haqida gapiring.*

SUHBAT

Lena:

— Yaxshimisan, Dilnoza? Sendan xabar olgani keldim. Kecha biznikiga kelaman deb kelmading.

— Voy, nima bo'lgan ekan?

— Hozir yaxshimi?

— Anginada uch-to'rt kun isitma bo'lib turadi.

— Ko'p suyuqlik ichib turish kerak.

— Bilasanmi, Dilnoza, angina ko'proq boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda ko'p uchraydi.

— Bola qanday kasallik bilan og'rimasin, bu uning salomatligi uchun xavfli hisoblanadi.

— Umuman, kasalliklarning ko'pchilik turi bolalardagi yosh davrlariga qarab uchraydi. Masalan, raxit bolaning emizikli davrida uchraydi.

Dilnoza:

— Kecha, kechasi jiyanim isitmaladi. Boshi, tomog'i og'ridi. Bir marta qayt ham qildi. Tez yordamni chaqirdim.

— Angina bo'libdi. Ertalab poliklinikadan pediatr ham chaqirdik.

— Ha, hozir ancha yaxshi, lekin isitmasi 37,5 °C.

— To'g'ri, lekin boshi va tomog'idagi og'riq bosildi.

— Issiq sut, murabboli choy, na'matak damlamasini tez-tez ichirib turibmiz.

— Ha, yana bu yoshda yurak, buyrak, allergik kasalliklar ham ko'p uchraydi.

— Ko'pchilik bolalar uyda kattalar nazoratida bo'lsalar ham, ko'chada sovuq suv ichib qo'yishadi yoki biron yoqmagan narsa yeb qo'yishadi.

— Yasli va maktabgacha davrdagi yoshda bolalar ko'kyo'tal, qizamiq difteriya, tepki kabi yuqumli kasalliklari bilan og'riydilar. Umuman, homila davridayoq onalar bo'lajak farzandiga e'tibor berishlari kerak.

- To'g'ri, onaning chekishi, spirtli ichimliklarni ichishi homila rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- Bundan tashqari, ona vitaminlarga boy ovqatlar iste'mol qilishi, ochiq havoda sayr qilishi, asabiylashmasligi kerak.

Ergashgan qo'shma gaplar (Сложноподчинённые предложения)

<p>Ergashgan qo'shma gaplar ikki va undan ortiq sodda gapdan tashkil topib, ularning biri <i>bosh gap</i>, ikkinchisi <i>ergash gap</i> bo'ladi.</p> <p>Ergash gap o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.</p>	<p>Сложноподчинённые предложения состоят из двух или более предложений, одно из них является главным, другое придаточным. Сложноподчинённые предложения связываются между собой подчинительными союзами.</p>
--	--

<p>Ergashgan qo'shma gaplarning bir nechta turi bor:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap bosh gapning ma'nosini to'ldirib keladi. Masalan: <i>Men bilamanki, bizning oramizda yolg'onchilar yo'q.</i> 2. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi biror bo'lak belgisini aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan: <i>Shunday talabalar borki, ular har ishda boshqalarga namuna bo'ladilar.</i> 3. Hol ergash gapli qo'shma gap fe'l bilan bog'liq bo'lib, harakatning o'mi, vaqti, sababi, miqdorini bildiradi. Masalan: <i>Qayerda intizom yaxshi bo'lsa, shu yerda ish yaxshi bo'ladi.</i> 	<p>Сложноподчинённые предложения делятся на несколько видов:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Изыяснительные придаточные предложения конкретизируют и раскрывают значение главного предложения. 2. Определительные придаточные предложения служат для определения признака одного из членов главного предложения. 3. Обстоятельственные придаточные предложения относятся к глаголу и уточняют место, время, причину, цель действия.
---	---



Mashq. Gaplarni ko'chiring. Ergashgan qo'shma gaplarning turini aniqlang.

1. Kimki o'z kasbini sevsa, unday kishi hurmatga loyiq bo'ladi. 2. Vazifang shundan iboratki, beshta xonani bugunoq tozalab qo'lasan. 3. Anvarning xizmati shuki, u do'stini yolg'izlatib qo'ymadi. 4. Shu narsa ayonki, inson bilimi bilan munavvar. 5. Kim sport bilan shug'ullansa, u o'zini sog'lom va bardam his etadi. 6. Shunday oliy davrda yashaymizki, bu davrda ilmsizga o'rin yo'q. 7. Kim ko'p o'qisa, u shunchalik bilimli bo'ladi.

Mashq. Gaplarni ko'chiring. Hol ergash gaplarning qanday ifodalanganini aniqlang.

1. Uning xursandchiligini ko'rib, onasi quvonib ketdi. 2. Ko'z qayerda bo'lsa, mehr o'sha yerda bo'ladi. 3. Mening rangi-ro'yim o'chganini ko'rib, onam yugurib keldi. 4. Javob beruvchilar shunchalik ko'p ediki, Alijonga navbat tegmadi. 5. Qatorda noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi. 6. Orqadan kelayotgan qiz-juvonlar yetib kelsin deb, Valijon mashinani ancha berida to'xtatdi.

Mashq. Gaplarni davom ettirib, qo'shma gap turini aniqlang.

1. Quyosh chiqdi va 2. Shunday voqealar bo'ladiki, 3. Men bu haqda bilgan edim, ammo 4. Shifokor bemorni tekshirib ko'rdi, lekin 5. Sen o'qishdan kelsang, 6. Bir u gapirdi, bir 7. Sen qanday bo'lsang, 8. Biz bilamizki,

Mashq. Berilgan shakl asosida qo'shma gaplar tuzing.

1. Kim ... – sa, u 2. Kim ... – sa, o'zi 3. Kimki ... – sa, u 4. Kimda-kim ... – sa, u 5. Nimaiki ...sa, o'sha 6. Shunisi ... ki, o'sha

Mashq. Berilgan shakl asosida qo'shma gaplar tuzing.

1. ... qayerga ... – sa, o'sha yerga 2. ... qayerda ... – sa, o'sha yerda 3. ... – mang, u yerda 4. ... – masin, o'sha yerda 5. ... qayerda ... – sa, shu yerda 6. ... qayga ... – sa, o'sha yerda

Mashq. Ko'chiring. Bosh va ergash gaplarni ko'rsating. Sabab ergash gapning bog'lanishi, vazifasi, so'rog'i va o'rnini ayting. Rus tiliga og'zaki tarjima qiling.

1. Qorong'i tez tushdi, shuning uchun biz yo'ldan adashdik. 2. Qizi gapga e'tibor qilmaganidan, otasi endi qiziga qarab so'zlay boshladi. 3. Adiba juda xursand bo'ldi, chunki uchrashuv u kutganidan yaxshiroq o'tdi. 4. Ikromjon sovqotgani sababli, bir piyolagina choy ichgisi keldi. 5. Meni taklif etishmadi, shuning uchun majlisga bormadim.

Nazorat savollari:

1. Bolalarda uchraydigan kasalliklarni sanab bering?
2. Qanday bolalarda kasalliklar yengil o'tadi?
3. Qanday gaplar ergashgan qo'shma gaplar deyiladi?
4. Ergashgan qo'shma gap o'zaro qanday bog'lanadi?
5. Ergashgan qo'shma gaplarning nechta turi bor?
6. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap deb qanday gaplarga aytiladi?

ADABIYOTLAR

1. Turdiyeva K. va hammualliflar, O'zbek tili. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o'quv yurtlari rusiyzabon talabalari uchun darslik. T., 2018-y.
2. Turdiyeva K., Ahmedova D., O'zbek tili. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o'quv yurtlari rusiyzabon talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., 2006-y.
3. Turdiyeva K., Ahmedova D., O'zbek tili. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T., 2007-y.
4. Shodmonov E., Rafiyev A., Goyibov S. O'zbek tili. O'rta maxsus o'quv yurtlari uchun. T., 1994-y.
5. Totayev T., Tavaldiyeva G., Akromova M. O'zbek tilining kirill va lotin alifbosidagi imlo lug'ati. T., 1999-y.
6. O'tbosarova B., Akromova M. O'zbek tilida ish yuritishga doir uslubiy tavsiyanoma. T., 2001-y.
7. Qosimov E., Dustxo'jayeva N. va boshqalar. Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati. Respublika tibbiyot institutlarining barcha fakultetlari uchun o'quv qo'llanma. T., Ibn Sino. 2002-y.
8. O'tbosarova B. Nurmatov N. va boshqalar. O'zbek tili fani bo'yicha matnlar va suhbatlar qo'llash, uslubiy tavsiyanoma. T., 2004-y.
9. Ishmuxammedova M. O'zbek tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Uslubiy qo'llanma. T., 2006-y.
10. "O'zbekim dasturlari" elektron lug'atlari. 2003-y.
11. Ishmuxammedov R., Yo'ldoshev M., Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2012. 276-bet.
12. Qilichev E., Qilichev V.E., Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 1992, 2002.
13. Qudratov T., Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, 1993. 38-bet.
14. Qong'urov R., va boshqalar. O'zbek tili statistikasi va nutq madaniyati. Samarqand, 1984.
15. Qurbonov R., va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat

asos-lari. Toshkent 1992.

16. Yo'ldosheva S., Pedagogik texnologiya fanini o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyasi (kasb ta'limi yo'nalishi) Toshkent 2014. 252-bet.

17. Almatov T., Yo'ldoshev Q., Almatova Sh., O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T-2013.

18. Kenjaboyev A., Ergasheva D., Kenjaboyev D., Ilg'or pedagogik texnologiyalar dars samaradorligini oshirishning muhim omili. – T., 2012.

19. Maxmudov N. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5 sinfi uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2015.

20. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 216-bet.

21. Sodiqova T., Yoningdagi baxt. Adabiyot va san'at nashriyoti, T.: 1981 yil 3-bet.

22. Xojiyev A., Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. 66-bet.

Интернет сайтлари:

1. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursbooks> – Самоучитель узбекского языка.

2. <http://solver.Uz/translate.php> – Русско-узбекский переводчик.

3. http://sahifa/tj/russko_uzbekskij_razgovornik/aspх– Русско-узбекский разговорник.

MUNDARIJA

Kirish	4
1-mashg'ulot. O'zbekiston – yagona Vatan.	6
Davlat tili va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini o'rganishning ahamiyati.	
O'zbek tilining tovush tuzilishi. Unli va undosh tovushlar	9
2-mashg'ulot. Oilam - tayanchim va faxrim.	12
Urg'u va bo'g'in ko'chirish qoidalari	16
3-mashg'ulot. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari.	19
Leksikologiya. So'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nosi (omonim, sinonim, antonim, paronim so'zlar)	22
4-mashg'ulot. Ona tili – millat ko'zgusi.	26
So'z va atama. Til va terminologiya	29
5-mashg'ulot. Dunyo tillari.	32
Ibora (frazologizm)	35
6-mashg'ulot. Odam anatomiyasi.	37
Morfologiya. So'z turkumlari. Ot haqida umumiy tushuncha. Otlarda son kategoriyasi. Egalik qo'shimchalarining ishlatilishi	40
7-mashg'ulot. Men shifokor bo'lmoqchiman.	44
Otlarda kelishik kategoriyasi	47
8-mashg'ulot. Shifoxonada.	50
Otlarning yasalishi	53
9-mashg'ulot. Yil fasllari.	56
Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi	59
10-mashg'ulot. Abu Ali ibn Sino	64
Son haqida umumiy tushuncha. Sonning ma'no va tuzilishi jihatdan turlari.	
O'zbek tilida vaqt hisobi	67-68
11-mashg'ulot. Dorishunoslik.	71
Olmosh va uning turlari, gapda qo'llanilishi, vazifalari	73
12-mashg'ulot. Ulug' ajdodlarimiz.	76
Fe'l. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar	77
13-mashg'ulot. Tez tibbiy yordam chaqirish.	83
Fe'llarda zamon kategoriyasi. Hozirgi zamon fe'li	84
14-mashg'ulot. Tish nima o'zi?	89
O'tgan zamon fe'li. Kelasi zamon fe'li	90
15-mashg'ulot. XXI asrda innovatsiyalar.	96
Ravishdosh va uning qo'llanilishi	97
16-mashg'ulot. Poliklinikada. Anamnez yig'ish.	100
Sifatdosh. Harakat nomi	102
17-mashg'ulot. Yurak kasalliklari.	106
Ravish haqida tushuncha. Ravishlarning ma'noga ko'ra turlari, yasalishi	107

18-mashg'ulot. nafas olish a'zolari kasalliklari.	112
Yordamchi, ko'makchi so'zlar	114
19-mashg'ulot. Sharq tabobati haqida suhbatlar.	117
Bog'lovchi va yuklamalar haqida ma'lumot	119
20-mashg'ulot. Kasbiy deontologiya.	122
Modal so'z. Undov so'z. Taqlid so'z	124-125
21-mashg'ulot. Pediatriya.	129
O'zbek tili sintaksisi. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari	132
22-mashg'ulot. Stomatolog qabulida.	135
Gapda so'zlar tartibi	136
23-mashg'ulot. Tozalik va orastalik sog'liq garovidir.	139
Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar	141
24-mashg'ulot. Yuqumli kasalliklar.	146
Gapning ikkinchi darajali bo'laklari	148
25-mashg'ulot. Tabiat va biz.	154
Gapning uyushiq bo'laklari	156
26-mashg'ulot. Ichki kasalliklar.	161
Qo'shma gap va uning turlari. Bog'langan qo'shma gap	163
27-mashg'ulot. Bolalarda uchraydigan kasalliklar.	166
Ergashgan qo'shma gap va uning turlari	168
Adabiyotlar	171

O'ZBEK TILI

Muharrirlar: Nasiba Mehmonova

Rohila G'o'chchiyeva

Feruza Musayeva

Texnik muharrir: Saida Karimova


Kampyuter sahifalovchi: Saida Karimova

Musahhih: Gulruxsor Qurbonova

Litsenziya raqami AI № 0048. 18.03 2020 Bosishga 2019 yil 25 mayda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$ Ofset qog'oz. Times New Roman garnituras. Shartli bosma tabog'i 10,15 . Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 65

«Poytaxt exclusive», Navoi ko'chasi 30.

ISBN 978-9943-307-22-3



9 789943 307223